

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMLI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**TERMODINAMIKA  
fanining**

**ISSIQLIK UZATILISHI**

**qismidan o‘quv qollanma**

Toshkent- 2018

«Termodinamika» fanining “Issiqlik uzatilishi” qismi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. M.M.Alimova, L.O.Alimova, F.Sh.Umardjanova, S.R.Axmatova. Toshkent, ToshDTU, 2018. 128 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma issiqlik almashinuvi turlari: issiqlik o‘tkazuvchanlik, issiqlik beruvchanlik, nurlanish va ularning qonunlari, koeffitsiyentlari, qaynash va kondensatsiyada issiqlik beruvchanlik, issiqlik almashinuvi apparatlari va ularning turlari, ularning issiqlik va gidravlik hisoblari to‘liq bayon etilgan.

“5310100 – Energetika (issiqlik energetikasi)” yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalar uchun dastlabki ma’lumotlar va ilova materiallar ma’lumotlari keltirilgan.

*Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan chop etildi.*

Taqrizchilar:

Anarbayev A.I.- AO O‘zbekenergo ITMlaboratoriya mudiri, t.f.n.

Badalov A. - «Energetikada tizimlarni boshqarish va nazorat qilish»  
kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Issiqlik va elektr energiyasini tejash va ulardan to‘g‘ri foydalanish chora-tadbirlari davlat ahamiyatidagi siyosiy-iqtisodiy muammo darajasiga chiqdi. Ushbu muammolarni hal etishda yosh mutaxassis kadrlaro ‘quv qo‘llanmalari va darsliklarning tutgan o‘rni boshqachadir.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada issiqlik uzatish turlari, qaynash va kondensatsiya jarayonlari, nurlanish va unung qonunlari, issiqlik almashinuv apparatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Мероприятия по сбережению и правильному использованию электрической и тепловой энергии стали политico-экономической проблемой государственной важности. В решении данных проблем особую роль играют учебники и учебные пособия для подготовки молодых специалистов.

В данном учебном пособии приведены сведения о видах теплопередачи, процессах кипения и конденсации, излучении и его законах, аппаратах теплообмена.

Measures to save and properly use electric and thermal energy have become a political and economic problem of state importance. In solving these problems a special role is played the textbooks and tutorials for the training of young specialists.

In this tutorial, you will find information on the types of transmission of thermal energy, processes of boiling and condensation, irradiation and Irradiation and its rules, heat exchangers.

## K i r i sh

Insoniyat o‘zining tarixiy taraqqiyoti mobaynida turli tuman hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun ma’lum darajada issiqlik energiyasidan foydalanib kelgan.

Bu dastlab odamlarning o‘zlarini sovuqdan muhofaza qilish masaladida turli himoya vositalaridan foydalanish, quyosh nurlanishidan tabiiy holda yoki gulxan yoqib isitish tarzida bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik ovqat pishirishdan boshlab to issiqlik energiyasini sanoati miqyoslarida ishlab chiqarish va undan energetika, isitish ta’minoti tizimlari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoati va shunga o‘xhash qator iste’molchilarining ehtiyojlarini qondirish uchun zamonaviy va avtomatlashtirilgan texnikaviy vositalardan foydalanish darajasigacha kelib yetdi.

XX asrning oxirlariga kelib sayyoramizda issiqlik energiyasi ishlab chiqarish ko‘lamlari shu darajaga borib yetdiki, endi u bir tomondan kurrai zaminimizda bir necha o‘n million yillar davomida shakllangan yoqilg‘i zaxiralarini tugash muddatlarini tezlashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan atrof-muhitning yonish mahsulotlari bilan ifloslanish darajasining keskin oshishi va natijada sayyoramiz iqlimining sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Tabiiyki, insoniyat taraqqiyoti uchun salbiy bo‘lgan mazkur jarayonlarning bundan keyingi jadal rivojlanishlarining oldini olishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hosil qilingan issiqlik energiyasidan xalq xo‘jaligining turli sohalarida oqilona va samaraliroq foydalanishdir. Bu muammoning ijobi hal qilinishi ma’lum darajada issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va undan foydalanishga asoslangan texnikaviy vositalarda ro‘y beradigan issiqlik uzatish va qabul qilish jarayonlarining chuqur tahlil qilinishi, aniq hisoblanishi va zarur hollarda tegishli tajribaviy izlanishlarning bajarilishini taqozo qiladi.

Issiqlik almashinish nazariyasi issiqlikning tarqalish va bir jismdan ikkinchi jismga uzatilish qonuniyatları to‘g‘risidagi fan bo‘lib, texnikaviy termodinamika fani bilan birgalikda issiqlik texnikasining nazariy asoslarini tashkil qiladi.

Ma’lumki, issiqlik tabiiy holda faqat harorati yuqori bo‘lgan (ya’ni issiq) jismlardan harorati past bo‘lgan (ya’ni sovuq) jismlarga o‘tadi va mazkur jarayon natijasida issiq jismlar soviydi va sovuq jismlar isiydi. Ammo biz uchun dastlab juda oddiy bo‘lib tuyulgan bu jarayon aslida yetarlicha murakkab bo‘lgan va mexanizmlari turlicha bo‘lgan issiqlik o‘tkazuvchanlik, konvektiv issiqlik almashinish va nurlanish kabi issiqlik almashinish jarayonlari majmuasidan iboratdir. Issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayoni issiqlikning jismlarning harorati yuqori bo‘lgan qismlaridan harorati past bo‘lgan qismlariga mazkur jismlar mikroskopik zarrachalarning issiqlik

harorati vositasida uzatilishiga asoslanadi. Bu jarayon issiqlik texnikasida ayrim hollarda konduktiv issiqlik uzatish jarayoni deb ham nomlanadi va ideal holda faqat qattiq jismlarga xosdir. Suyuqliklar va gazlarda issiqlik uzatilishi ularni tashkil qiluvchi makroskopik jismlarining o‘zaro aralashuvi natijasida amalga oshiriladi va bu jarayon konvektiv issiqlik almashinish jarayoni deb ataladi. Odatda konvektiv issiqlik almashinish jarayoni issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayoni bilan uyg‘unlashgan holda ro‘y beradi. Nurlanish orqali issiqlik almashinish jarayoni issiqliknинг issiq jismlardan sovuq jismlarga elektromagnit to‘lqinlari vositasida uzatilishiga asoslanadi. Qattiq jism sirti bilan gaz yoki suyuqliklar o‘rtasidagi issiqlik almashinish jarayoni odatda ularning bir - biroviga tegib issiqlik almashinishida tashqari nurlanish vositasida ham amalga oshishi ham mumkin. Bunday jarayon issiqlik texnikasida radiatsion konvektiv issiqlik almashinish jarayoni deb nomlanadi va yuqorida ta’riflangan va turli tabiatga ega bo‘lgan uchchala jarayonni ham o‘z ichiga oladi. Turmushda va texnikaning turli sohalarida eng ko‘p uchraydigan issiqlik almashinish jarayonlaridan biri qattiq jismdan iborat devor bilan ajratib qo‘yilgan. Ikki suyuq yoki gazsimon muhitlar o‘rtasida ro‘y beradigan jarayon bo‘lib, bunday jarayon issiqlik texnikasi nazariyasi va amaliyotida issiqlik uzatish jarayoni deb nomlanadi. Ko‘pchilik holatlarda issiqlik uzatilish jarayoni bug‘lanish, kondensatsiya kabi ma’lum modda uzatilishi jarayonlari bilan uyg‘unlashgan holda ro‘y beradi va bunday jarayon issiqlik va massa almashinuv jarayoni deb nomlanadi.

# **1. ISSIQLIK O‘TKAZUVCHANLIK**

## **1.1. Issiqlik o‘tkazuvchanlik**

Yuqorida qayd qilinganidek, issiqlikning jismlarning harorati yuqori bo‘lgan qismlaridan harorati past bo‘lgan qismlariga mazkur jismlar mikroskopik zarrachalarning issiqlik harakati tufayli uzatilishiga asoslangan jarayon issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayoni deb ataladi.

### **Haroratlar maydoni**

Jismlarning issiqlik holatlarining harorati ( $T$ ,  $t$ ) bilan belgilanadi. Issiqlik o‘tkazuvchanlik mexanizmiga asoslangan issiqlik uzatilish jarayonida jismlarning turli nuqtalarining harorati turlicha bo‘ladi va uzlusiz o‘zgarib turadi. Jism nuqtalari haroratlarining barcha qiymatlari majmuasiga mazkur jismning harorat maydoni deyiladi. Jismlarning harorati bir ( $x$ ), ikki ( $x; u$ ) va uch ( $x; y; z$ ) koordinatao‘qlari bo‘ylab o‘zgarishi mumkinligi sababli ularning harakat maydoni ham mos ravishda bir, ikki va uch o‘lchamli bo‘lishi mumkin.

Agar jismlarning harorat maydoni vaqtga ( $\tau$ ) bog‘liq ravishda o‘zgarib tursa, bunday maydon nostatsionar, nobarqaror harorat maydoni deyiladi va

$$t = f(x, y, z, \tau) \quad (1.1)$$

tenglama bilan ifodalanadi(1.1), ifoda uch o‘lchamli nobarqaror harorat maydoni ifodasi hisoblanadi. Agar jismlarning harorati 2ta o‘q va vaqt bo‘yicha o‘zgarsa bunday harorat maydoni ikki o‘lchamli deyiladi, quyidagicha aniqlanadi:

$$t = f(x, y, \tau) \quad (1.2)$$

Agar jismlarning harorati 1ta o‘q va vaqt bo‘yicha o‘zgarsa bunday harorat maydoni bir o‘lchamli deyiladi, quyidagicha aniqlanadi:

$$t = f(x, \tau) \quad (1.3)$$

Harorat maydoni vaqtga bog‘liq bo‘lmasa, bunday maydon statsionar yoki barqaror harorat maydoni deyiladi va

$$t = f(x, y, z) \quad (1.4)$$

tenglama bilan ifodalanadi. (1.4) ifoda uch o'lchamli barqaror harorat maydoni ifodasi hisoblanadi.

Agar jismlarning harorati 2 ta o'q bo'yicha o'zgarsa bunday harorat maydoni ikki o'lchamli barqaror harorat maydoni deyiladi, quyidagicha aniqlanadi:

$$t = f(x, y, ) \quad (1.5)$$

Agar jismlarning harorati bitta o'q bo'yicha o'zgarsa bunday harorat maydoni bir o'lchamli barqaror harorat maydoni deyiladi, quyidagicha aniqlanadi:

$$t = f(x) \quad (1.6)$$

## 1.2. Haroratlar gradiyenti

Jismlarning bir xil haroratli nuqtalarini tutashtiruvchi sirtlar izotermik sirtlar deyiladi va ular tekislik, silindr, shar, ellipsoid va shunga o'xshash sirtlar shaklida bo'lishi mumkin.

Agar jismning ikkita  $F_1$  va  $F_2$  izotermik sirtlarining haroratlari mos ravishda  $t_1$  va  $t_2$  hamda  $t_1 > t_2$  bo'lsa, issiqlik  $F_1$  sirtidan  $F_2$  sirtga o'tadi  $F_1$  sirtidan  $F_2$  sirtga uzatilgan issiqlik oqimi  $Q$  mazkur sirtlar haroratlarining ayirmasi  $\Delta t = t_1 - t_2$  va oralaridagi masofaga ( $\Delta n$ ) bog'liq bo'lib  $Q$  ning eng katta qiymati mazkur sirtlarga nisbatan normal ( $n$ ) yo'nalishida bo'ladi.

Izotermik sirtlar haroratlari ayirmasining mazkur sirtlar orasidagi masofaga nisbatining ( $\Delta t / \Delta n$ )  $\Delta n \rightarrow 0$  ga intilgandagi limitiga haroratlar gradiyenti deb ataladi va quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\lim_{\Delta n \rightarrow 0} \frac{\Delta t}{\Delta n} = \frac{\delta t}{\delta n} = grad t = \nabla t \quad (1.7)$$

Haroratning ortish yo'nalishi harorat gradiyentining musbat yo'nalishi hisoblanadi. Issiqlik tabiiy holda faqat harorati yuqori bo'lgan sirtidan harorati past bo'lgan sirtga, ya'ni haroratning kamayish yo'nalishida uzatilishi mumkinligi sababli issiqlik oqimi bilan harorat gradiyenti o'zaro qarama-qarshi yo'nalishda bo'ladi.

## 1.3. Issiqlik o'tkazuvchanlikning asosiy qonuni

Issiqlik oqimi ( $Q$ ) deb vaqt birligi ( $\Delta \tau$ ) ichida ma'lum bir sirt orqali o'tayotgan issiqlik miqdoriga ( $\Delta Q$ ) aytildi.

$$Q = \frac{\Phi}{\tau} [Vt] \quad (1.8)$$

Issiqlik oqimining ( $Q$ ) mazkur oqim o‘tayotgan sirtning ko‘ndalang kesim yuzasiga ( $F$ ) nisbati bilan o‘lchanadigan kattalik issiqlik oqimining zichligi ( $q$ ) deb ataladi, ya’ni

$$q = \frac{Q}{F}, \quad \frac{Vt}{m^2} \quad (1.9)$$

Issiqlik oqimi va uning zichligi vektor kattalik bo‘lib, ularning yo‘nalishi issiqlikning tarqalish yo‘nalishida bo‘ladi.

Yuqorida bayon qilingan mulohazalardan issiqlik uzatuvchanlik vositasida uzatilgan issiqlik oqimi harorat gradieyntiga va issiqlik oqimi o‘tayotgan sirtning ko‘ndalang kesim yuzasiga to‘g‘ri mutanosibligi kelib chiqadi, ya’ni

$$Q = -\lambda F \frac{\delta t}{\delta n}. \quad (1.10)$$

Agar uzatilgan issiqlik oqimining birlik yuzaga nisbatini oladigan bo‘lsak

$$q = -\lambda \frac{\delta t}{\delta n}. \quad (1.11)$$

tenglama kelib chiqadi va u issiqlik o‘tkazuvchanlik asosiy qonunining matematik ifodasi bo‘lib, issiqlik texnikasida Fur’ye qonuni deb nomlanadi. (1.10) va (1.11) tenglamalardagi «minus» ishorasi issiqlik oqimi bilan harorat gradiyenti vektoralarining yo‘nalishlari qarama - qarshi ekanligini bildiradi. Mazkur tenglamalardagi mutanosiblik koeffitsiyenti  $\lambda$  jismning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti deb ataladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$\lambda = -\frac{\varphi}{F \frac{\delta t}{\delta n} \tau} = -\frac{q}{\frac{\delta t}{\delta n}}. \quad (1.12)$$

(1.12) ifodadan ko‘rinib turibdiki, u son jihatdan vaqt birligi ichida issiqlik oqimi yo‘nalishiga tik bo‘lgan birlik yuzadan harorat gradiyenti bir birlikka teng bo‘lgandagi o‘tadigan issiqlik miqdorini ifodalaydi. Bundan issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti jismlarning o‘zlari orqali issiqlik o‘tkaza olish qobiliyatini ko‘rsatadigan fizikaviy kattalik ekanligi kelib chiqadi. Issiqlik

o'tkazuvchanlik koeffitsiyentining son qiymati moddalarning tarkibiy tuzilishi, zichligi, namligi, bosim va haroratga bog'liq bo'lib, turli xil moddalar uchun maxsus tajribalar yordamida aniqlanadi. Olingan natijalar asosida turli moddalarningissiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentlari bo'yicha maxsus ma'lumotnomalar tayyorlanadi.

Issiqlik o'tkazish jarayonlarini aniq hisoblash uchun moddalar issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentining haroratga bog'liqligini e'tiborga olish talab qilinadi. Tajribalar natijasiga ko'ra ko'pchilik moddalar uchun bunday bog'liqlik

$$\lambda = \lambda_0 (1 + at) \quad (1.13)$$


ko'rinishdagi chiziqli funktsiya orqali ifodalanishi mumkin. Bu yerda  $\lambda_0$  – moddaning harorati ( $t$ ) nolga teng bo'lgandagi issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti;  $a$  – tajriba asosida aniqlanadigan doimiy koeffitsiyent.

Barqaror jarayonlar uchun issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentining o'rtacha qiymati jism haroratining o'rtacha arifmetik qiymatiga ko'ra aniqlanishi mumkin.

#### 1.4. Issiqlik o'tkazuvchanlikning differensial tenglamasi

Buning uchun jismda elementar tomonlari  $dx$ ,  $dy$ ,  $dz$  bo'lgan parallelepiped ajratamiz. Chekkadagi haroratlar har xil bo'lgani uchun  $x$ ,  $y$ ,  $z$  o'qlari yo'nalishi bo'yicha parallelopipeddan issiqlik oqib o'tadi.

$dxdy$  yuzadan  $d\tau$  vaqt ichida Fur'ye qonuniga binoan parallelopipedga kiruvchi issiqlik oqimini yozib olamiz.



1.1-pacM. Fazoviy elementar parallelopiped.

$dQ_{z_1} = -\lambda dx dy dt \left( \frac{\delta t}{\delta z} \right)$  qarama-qarshi tomondan  $dz$  masofada parallelopiped chiquvchi issiqlik oqimini yozamiz:

$$dQ_{z_1} = -\lambda dx dy dt \left( t + \frac{\delta t}{\delta z} dz \right),$$

- bu yerda  $t + \frac{\delta t}{\delta z} dz$  -ikkinci qirraning harorati hisoblanadi.

Ikkala tenglamani quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$dQ_z = -\lambda dx dy dt \left( \frac{\delta t}{\delta z} \right) - \lambda dx dy dz dt \left( \frac{\delta^2 t}{\delta z^2} \right) \quad (1.14)$$

zo‘qi bo‘yicha ichki energiyaningo‘zgarishi

$$dQ_z = dQ_{z_1} - dQ_{z_2} = -\lambda dx dy dt \left( \frac{\delta t}{\delta z} \right) + \lambda dx dy dt \frac{\delta t}{\delta z} + \lambda dx dy dz dt \frac{\delta^2 t}{\delta z^2} \quad (1.15)$$

Qisqartirish natijasida

$$dQ_z = \lambda dx dy dz dt \left( \frac{\delta^2 t}{\delta z^2} \right)$$

ega bo‘lamiz.

yo‘qi bo‘yicha

$$dQ_y = \lambda dx dy dz dt \left( \frac{\delta^2 t}{\delta y^2} \right) \quad (1.16)$$

xo‘qi bo‘yicha

$$dQ_x = \lambda dx dy dz dt \left( \frac{\delta^2 t}{\delta x^2} \right) \quad (1.17)$$

Boshqacha qilib aytganda, energiya saqlanish qonuniga binoan

$$dQ = dx dy dz \rho c \left( \frac{\delta t}{\delta \tau} \right) d\tau \quad (1.18)$$

(1.18) dagi  $dx, dy, dz$  –parallelopiped hajmidx,  $dy, dz$  –parallelopiped hissasi,  $c$ -issiqlik sig‘imi,  $\left( \frac{\delta t}{\delta \tau} \right) d\tau$  - haroratni vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

To‘liq ichki energiyani o‘zgarishi

$$dQ = dQ_z + dQ_y + dQ_x = \lambda dx dy dz dt \left( \frac{\delta^2 t}{\delta x^2} + \frac{\delta^2 t}{\delta y^2} + \frac{\delta^2 t}{\delta z^2} \right) \quad (1.19)$$

(1.18) va (1.19) ifodalarni chap tomoni bir biriga teng bo‘lgani uchun o‘ng tomonlarini ham tenglab yozamiz.

$$\lambda dx dy dz dt \left( \frac{\delta^2 t}{\delta x^2} + \frac{\delta^2 t}{\delta y^2} + \frac{\delta^2 t}{\delta z^2} \right) = dx dy dz \rho c \frac{\delta t}{\delta \tau} d\tau \quad (1.20)$$

$$\text{yoki } \frac{\delta t}{\delta \tau} = \frac{\lambda}{c \cdot \rho} = \left( \frac{\delta^2 t}{\delta x^2} + \frac{\delta^2 t}{\delta y^2} + \frac{\delta^2 t}{\delta z^2} \right) \quad (1.21)$$

bu yerda  $\nabla^2 t = \frac{\delta^2 t}{\delta x^2} + \frac{\delta^2 t}{\delta y^2} + \frac{\delta^2 t}{\delta z^2}$  - Laplas operatori

$a = \frac{\lambda}{c \cdot \rho}$  -harorat o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti deb ataladi.

$\frac{\delta t}{\delta \tau} = a \nabla^2 t$  -ushbu tenglama issiqlik o‘tkazuvchanlik differensial tenglamasi deyiladi

Agar jism ichki manbara ega bo‘lgan tenglama quyidagicha yoziladi;

$$\frac{\delta t}{\delta \tau} = a \nabla^2 t + \frac{q_v}{c \cdot \rho}$$

## 1.5. Bir o‘lchamlik shartlari

Bir o‘lchamlik maydon uchun (1.22) tenglama ko‘rib chiqilgan differensial tenglamaning yechimini topish uchun juda katta, murakkab matematik kattaliklarni yechishga to‘g‘ri keladi. Bizga bular yechishda bir o‘lchamlilik shartlari yordam beradi. Ular quyidagilarga bo‘linadi:

1. Geometrik sharti – jismning tuzilishi va geometrik o‘lchamlari keltiriladi;
2. Fizik sharti - jism va atrof - muhitni fizik parametrlari beriladi.
3. Baqt sharti - haroratning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi keltiriladi.
4. Chegara sharti - haroratning jism qirrasida o‘zgarishi keltiriladi:

- 1 tartibli - qattiq jism sirti harorati –  $t_{d1}, t_{d2}$ ;
- 2 tartibli - jism bo‘ylab oqib o‘tuvchi issiqlik oqimi –  $q_d$ ;
- 3 tartibli – atrof-muhitning harorati beriladi –  $t_{c1}, t_{c2}$ .

$$\frac{\delta t}{\delta \tau} = a \frac{\delta^2 t}{\delta x^2} + \frac{q_v}{c\rho} \quad (1.22)$$

ko‘rinishga ega.

Barqaror issiqlik jarayonlari uchun  $t = const$  ea  $\frac{\delta t}{\delta t} = 0$  bo‘lganligi sababli (1.23) tenglama

$$\frac{d^2 t}{dx^2} + \frac{q_v}{\lambda} = 0 \quad (1.23)$$

shaklida yoziladi.

Endi yuqorida bayon qilingan asosiy tushunchalaridan foydalanib barqaror issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayonlari uchun hisoblash ifodalarini keltirib chiqaramiz.

$$\begin{aligned} x=0 & \text{ bo‘lganda } t=t_1 \\ x=\delta & \text{ bo‘lganda } t=t_2 \end{aligned}$$

Shaklida yozish mumkin (1.22) tenglama (1.23) chegaraviy shartlar bo‘yicha ikki marta integrallash natijasida bir jinsli. Yassi devorning harorat maydoni tenglamasini

$$t(x) = t_1 - \frac{x}{\delta}(t_1 - t_2) \quad (1.24)$$

keltirib chiqaramiz.

(1.24) tenglamadan bir jinsli yassi devor orqali issiqlik o‘tayotganda harorat mazkur devor qalinligi bo‘ylab to‘g‘ri chiziqli qonunyat asosida o‘zgarishi kelib chiqadi.

Yassi devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimi zichligini hisoblash uchun Fur’ye qonuni asosida

$$q = -\lambda \frac{dt}{dx} = \frac{\lambda}{\delta}(t_1 - t_2) \quad (1.25)$$

ifodani hosil qilamiz.

(1.25) ifodadan bir yassi devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimi zichligi mazkur devor materialining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini va shu devor tashqi sirtlari haroratlari ayirmasiga to‘g‘ri va mazkur devor qalinligiga teskari mutnosib ekanligiko‘rinib turibdi.

(1.25) ifoda bir qatlamlı yassi devorning issiqlik o‘tkazuvchanligini hisoblash ifodasi bo‘lib, u to‘rtta kattalikni, ya’ni  $q, \lambda, \delta$  va  $t_1 - t_2$  larni o‘zaro bog‘laydi. Ulardan istalgan uchtasining qiymatiga ko‘ra to‘rtinchisini topish mumkin.

$$\lambda = \frac{q\delta}{t_1 - t_2}; \quad t_2 - t_1 = \frac{q\delta}{\lambda}; \quad \delta = \lambda \frac{t_1 - t_2}{q} \quad (1.26)$$

Yuqorida keltirib chiqarilgan ifodalarda  $\frac{\lambda}{\delta}$  nisbat yassi devorning issiqlik o‘tkazuvchanligi, va uning teskarisi, ya’ni  $\frac{\delta}{\lambda}$  mazkur devorning issiqlik yoki termik qarshiligi deb ataladi.

## Masalalar

1. Uzunligi  $\ell=5$  m , balandligi  $h = 4$  m va qalinligi  $\delta=250$  mm bo‘lgan qizil g‘isht devordan o‘tgan issiqlik oqimini toping. Devor sirtlaridagi haroratlar  $t_1 = 110^{\circ}\text{C}$  ,  $t_2 = 40^{\circ}\text{C}$  va qizil g‘ishtning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\lambda = 0,7 \text{ Vt/m}^0\text{C}$  ga teng.

Javob :  $Q = 3920 \text{ Vt.}$

2. Qalinligi 180 mm bo‘lgan alyuminiy g‘o‘lani bir tarafdan  $t_{s1}=400^{\circ}\text{S}$  isitkich va ikkinchi tarafdan  $t_{s2}=10^{\circ}\text{C}$  sovutgich bilan siqilgan. Agar issiqlik oqimi  $Q=176,8 \text{ Vt}$ , issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\lambda = 204 \text{ Vt/m}^0\text{C}$  va yon sirtlaridan issiqlik yo‘qolishi bo‘lmaganda g‘o‘laning termik qarshiligi, harorat gradiyenti va ko‘ndalang kesimi yuzasini toping.
3. Yassi sirni shunday izolyatsiya qilish kerakki, bunda vaqt birligi ichida birlik yuzadan o‘tgan issiqlik  $450 \text{ Vt/m}^2$  gdan oshmasin. Izolyatsiya sirtlaridagi haroratlar  $t_1=450^{\circ}\text{C}$  va  $t_2=50^{\circ}\text{C}$  ga teng. Ikki xil holat uchun izolyatsiya qalinligini aniqlang:

a) sovelitdan qilingan izolyatsiya uchun issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\lambda = 0,09 + 0,0000874 t \text{ Vt/m}^0\text{C}$

b) asbotermitedan qilingan izolyatsiya uchun issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\lambda = 0,109 + 0,000146 t \text{ Vt/m}^0\text{C}$

Javob : a)  $\delta = 100 \text{ mm} ;$   
b)  $\delta = 130 \text{ mm.}$

4. Bug‘ qozoni yonish kamerasining devori qalinligi  $\delta_1 = 150$  mm bo‘lgan shamot, qalinligi  $\delta_2=50$  mm bo‘lgan diatomit va qalinligi  $\delta_3=250$  mm bo‘lgan qizil g‘ishtdan iborat. Materiallarning issiqlik o‘tkazuvchanlik

koeffitsiyentlari mos ravishda  $\lambda_1 = 0,93$ ;  $\lambda_2 = 0,13$  va  $\lambda_3 = 0,7 \text{ Vt/m}^0\text{C}$  ga teng. Yonish kamerasining ichki sirtidagi harorat  $t_1=1200^0\text{C}$  va tashqi sirtidagi harorat  $t_4=50^0\text{C}$  ga teng. Yonish kamerasining devoridan o'tgan issiqlik oqimining zichligi va qatlamlar yopishgan sirtlaridagi haroratlarni aniqlang.

Javob :  $q = 1274 \text{ Vt / m}^2$ ,  $t_2 = 995^0\text{C}$ ,  $t_3 = 505^0\text{C}$ .

### **Nazorat savollari**

1. Issiqlik uzatilishini turlarini aytib bering.
2. Issiqlik o'tkazuvchanlikning sodir bo'lish shart-sharoitlari nimalarga bog'liq?
3. Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti nima?
4. Haroratlar gradiyent qanday kattalik?
5. Issiqlik o'tkazuvchanlikning differensial tenglamasini tushuntirib bering.

## 2. Birinchi tartibli chegara shartidagi barqaror issiqlik o'tkazuvchanligi

### 2.1.Bir qatlamlili yassi devorining issiqlik o'tkazuvchanligi

Hamma nuqtalarida fizikaviy xususiyatlari (issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, zichligi, solishtirma issiqlik sig'imi harorat o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti va h. k.) bir xil bo'lgan devorga bir jinsli devor deyiladi.

Qalinligi  $\delta$ , chap ( $F_1$ ) vao'ng ( $F_2$ ) izotermik sirtlarining haroratlari mos ravishda  $t_1 \neq t_2$ , hamda materialining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\lambda$  bo'lgan bir jinsli yassi devorining (rasm) harorat maydoni tenglamasini va shu devor orqali o'tayotgan issiqlik oqimi zichligini mazkur devorda ichki issiqlik manbai bo'lmasagan (ya'ni  $q_v=0$ ) holat uchun hisoblash ifodalarini keltirib chiqaramiz.


Bir o'lchamlilik shartlarini yozib olamiz:

- 1) geometrik shart- $\delta$ , bir qatlamlili
- 2)fizik shart- $\lambda$
- 3)vaqt sharti-harorat o'zgarmaydi
- 4)chevara sharti-I tartibli  $t_1, t_2$
- 5)bizga kerak bo'lgan issiqlik oqimining zichligini aniqlashimiz zarur.

Buning uchun devorining chap izotermik sirtidan x masofada turgan va qalinligi  $\delta$  va ikkita izotermik sirtlar bilan chegaralangan qatlamni ajratib olamiz. Mazkur devorda harorat faqat x o'qi yo'nalishida o'zgarganligi tufayli harorat maydoni bir o'lchamli deb qaralishi mumkin.

Demak mazkur devor uchun  $q_v=0$  bo'lgan (2.1) tenglamako'rinishga kelib, uning yechilishi uchun zaruriy chegaraviy shartlar 2.1 - rasmga muvofiq

$$\frac{d^2t}{dx^2} = 0 \quad (2.1)$$



2.1-rasm. Bir qatlamlili yassi devorining issiqlik o'tkazuvchanligi

$$\left. \begin{array}{l} x = 0 - bo' lganda \quad t = t_1 \\ x = \delta - bo' lganda \quad t = t_2 \end{array} \right\} (2.2)$$

shaklida yozilishi mumkin.

(2.1) tenglamani (2.2) chegaraviy shartlar bo'yicha ikki marta integrallash natijasida bir qatlamlili yassi devorning harorat maydoni tenglamasini keltirib chiqaramiz:

$$t(x) = t_1 - \frac{x}{\delta}(t_1 - t_2) \quad (2.3)$$

(2.3) tenglamadan bir qatlamlili yassi devor orqali issiqlik o'tayotganda harorat mazkur devor qalinligi bo'ylab to'g'ri chiziqli qonun asosida o'zgarishi kelib chiqadi.

Yassi devor orqali o'tayotgan issiqlik oqimining zichligini hisoblash uchun Fur'ye qonuni asosida ifodani hosil qilamiz:

$$q = -\lambda \frac{dt}{dx} = \frac{\lambda}{\delta}(t_1 - t_2) \quad (2.4)$$

(2.4) ifodadan bir jinsli yassi devor orqali o'tayotgan issiqlik oqimi zichligi mazkur devor materialining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti va shu devor tashqi sirtlari haroratlari ayirmasiga to'g'ri va mazkur devor qalinligiga teskari mutanosib ekanligi ko'rinish turibti.

(2.4) ifoda bir jinsli Yassi devorning issiqlik o'tkazuvchanligini hisoblash ifodasi bo'lib, u to'rtta kattalikni, ya'ni  $q, \lambda, \delta$  va  $t_1 - t_2$  larni o'zaro bog'laydi. Ulardan istalgan uchtasining qiymatiga ko'ra to'rtinchisini topish mumkin:

$$\lambda = \frac{q \delta}{t_1 - t_2}; \quad t_2 - t_1 = \frac{q \delta}{\lambda} \quad va \quad \delta = \lambda \frac{t_1 - t_2}{q}. \quad (2.5)$$


Yuqorida keltirib chiqarilgan ifodalarda  $\frac{\lambda}{\delta}$  nisbat yassi devorning issiqlik o'tkazuvchanligi, va uning teskarisi, ya'ni  $\frac{\delta}{\lambda}$  mazkur devorning issiqlik yoki termik qarshiligi deb ataladi.

## 2.2. Ko‘p qatlamlı yassi devorning I tartibli chegara shartidagi issiqlik o‘tkazuvchanligi

Qalinliklari va issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentlari har hil bo‘lgan vao‘zaro jips qilib tutashtirib qo‘yilgan bir jinsli yassi devorlar majmuasidan iborat devorni ko‘p qatlamlı Yassi devorlarga ichki va tashqi tomonlaridan qumsuvoq bilan qoplangan g‘isht qatlamidan iborat turar joy binolarining devorlari va shungao‘xshagan devorlar misol bo‘lishi mumkin. Bir o‘lchamlilik shartlarini yozib olamiz:

- 1) Geometrik shart- $\delta_1, \delta_2, \delta_3$  uchqatlamlı yassi devor;
- 2) Fizik shart-devorning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti berilgan  $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$ ;
- 3) Vaqt sharti-harorat o‘zgarmaydi (barqaror);
- 4) Chegara sharti-Itartibli  $t_1, t_4$ .

O‘zaro tutash va mos ravishda qalinliklari  $\delta_1, \delta_2, \delta_3$ , va issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentlari  $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$  bo‘lgan yassi devorlardan iborat ko‘p qatlamlı devor berilgan bo‘lsin (2.2-rasm).



2.2 - rasm.Ko‘p qatlamlı yassi devorning issiqlik o‘tkazuvchanligi

Devorning tashqi sirtlarining haroratlari mos ravishda  $t_1$  va  $t_4$ , hamda qatlamlarning o‘zaro jipslashtirib qo‘yilgan sirtlarining haroratlari  $t_2$  va  $t_3$  ekanligi ma’lum.

Barqaror issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayonlarida issiqlik oqimi zichligi ko‘p qavatli devorni tashkil qiluvchi alohida qatlamlar uchun bir xil, ya’ni doimiy bo‘lganligi sababli (2.4) ifodagaasosan ko‘p qatlamlı yassi devorning alohida qatlamlari uchun quyidagi tenglamalarni yozish mumkin.

$$\left. \begin{aligned} q &= \frac{\lambda_1}{\delta_1} (t_1 - t_2); \\ q &= \frac{\lambda_2}{\delta_2} (t_2 - t_3); \\ q &= \frac{\lambda_3}{\delta_3} (t_3 - t_4). \end{aligned} \right\} (2.5)$$

Bu tenglamalardan ko‘p qatlamlı devorning alohida qatlamlarida haroratlar o‘zgarishini hisoblaymiz :

$$\left. \begin{array}{l} t_1 - t_2 = q \frac{\delta_1}{\lambda_1}; \\ t_2 - t_3 = q \frac{\delta_2}{\lambda_2}; \\ t_3 - t_4 = q \frac{\delta_3}{\lambda_3}. \end{array} \right\} \quad (2.6)$$

(2.6) tenglamani qo‘shish natijasida quyidagini hosil qilamiz:

$$t_1 - t_4 = q \left( \frac{\lambda_1}{\delta_1} + \frac{\lambda_2}{\delta_2} + \frac{\lambda_3}{\delta_3} \right) \quad (2.7)$$

tenglamani keltirib chiqaramiz.

Hosil qilingan tenglamadan ko‘p qatlamlı yassi devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimi zichligini hisoblash uchun quyidagi ifodani keltirib chiqaramiz

$$q = \frac{t_1 - t_4}{\frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{\delta_3}{\lambda_3}}. \quad (2.8)$$

Ko‘p qatlamlı yassi devor qatlamlarining soni n ta bo‘lsa (2.8) ifoda umumiy holda

$$q = \frac{t_1 - t_{n+1}}{\sum_{i=1}^n \frac{\delta_i}{\lambda_i}} \quad (2.9)$$

shaklda yozilishi mumkin.

Agar (2.9) ifodaorqali hisoblangan yassi devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimi zichligining qiymatini (2.10) tenglamalar tuzimiga keltirib qo‘ysak, qiymatlari noma’lum bo‘lgan ko‘p qatlamlı yassi devor qatlamlarining o‘zarो jips qilib tutashtirib qo‘yilgan sirtlarining haroratlarini, ya’ni  $t_2$  va  $t_3$  larni hisoblash ifodalarini keltirib chiqarish mumkin:

$$t_2 = t_1 - \left( \frac{t_1 - t_4}{\frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{\delta_3}{\lambda_3}} \right) \frac{\delta_1}{\lambda_1};$$

$$t_3 = t_2 - \left( \frac{t_1 - t_4}{\frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{\delta_3}{\lambda_3}} \right) \frac{\delta_2}{\lambda_2} = t_4 + \left( \frac{t_1 - t_4}{\frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{\delta_3}{\lambda_3}} \right) \frac{\delta_3}{\lambda_3}. \quad (2.10)$$

### 2.3. Bir qatlamlı silindrik devorning I tartibli chegara shartidagi issiqlik o'tkazuvchanligi

Bir qatlamlı silindrik devor berilgan bo'lib, uning uzunligi 1 ga teng.

Ushbu holat uchun bir o'lchamlik shartlarini yozib olamiz:

- 1) geometrik shart-bir qatlamlı silindrik devor,  $r_1, r_2$ ;
- 2)fizik shart-issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\lambda$ ;
- 3)vaqt sharti-barqaror, harorat vaqt bo'yicha o'zgarmaydi;
- 4)chevara sharti-I tartibli:  $t_{d1}, t_{d2}$ .

Shu devor orqali oqib o'tuvchi issiqlik oqiminini zichligini aniqlang.

Buning uchun ushbu qatlama radiusi drgateng bo'lgan elementarqatlam ajratib olamiz. Elementar qatlam uchun issiqlik oqimini ifodasi quyidagicha yoziladi:

$$Q = -\lambda \frac{dt}{dr} F \tau \quad (2.11)$$


$$F = 2\pi r l \quad (2.12)$$

(2.12) ni silindrning yuzasini ifodani (2.11) dagi Fni o'rniga qo'yamiz:

$$Q = -2\pi\lambda r l \frac{dt}{dr} \tau \quad (2.13)$$

(2.13) dagi dt ni qiymatini aniqlaymiz:

$$dt = -\frac{Q}{2\pi\lambda l} \cdot \frac{dr}{r} \quad (2.14)$$



2.3-rasm qatlamlı silindirik devorning 1 tartibli chegara shartidagi issiqlik o'tkazuvchanligi

(2.14) ifodani integrallaymiz:

$$Q = \frac{2\pi\lambda l(t_{d1} - t_{d2})}{\ln \frac{d_2}{d_1}} \quad (2.15)$$

Quvur uzunligiga nisbatan olingan issiqlik oqimining zichligini aniqlaymiz. Mazkur devorda radiusi  $r$  va qalinligi  $dr$  ga teng bo'lgan halqasimon qatlam ajratamiz ( $dr$ ). Silindirik devorda harorat faqat radial yo'nalishda o'zgarishini hisobgaolsak barqaror jarayonlar uchun issiqlik o'tkazuvchanlikning differensial tenglamasi ( $dr$ ) silindirik koordinatlar tizimida

$$\frac{d^2t}{dr^2} + \frac{1}{r} \cdot \frac{dt}{dr} = 0 \quad (2.16)$$

ko'rinishgaegabo'libuningyechilishiuchunzaruriychegaraviyshartlar sistemagamuvofiq (2.17)

$$\begin{cases} r = r_1 \text{ bo'lganda } t = t_1 \\ r = r_2 \text{ bo'lganda } t = t_2 \end{cases} \quad (2.17)$$

shaklda yozilishi mumkin.

(2.16) tenglamani (2.17) chegaraviy shartlar bo'yicha ikki marta integrallash asosida bir jinsli devorda harorat maydoni tenglamasini keltirib chiqaramiz, ya'ni

$$t = t_1 - (t_1 - t_2) \frac{\ell n \frac{r}{r_1}}{\ell n \frac{r_2}{r_1}}. \quad (2.18)$$

Hosil qilingan tenglamada bir jinsli silindrik devor orqali issiqlik o‘tayotganda harorat mazkur devor qalinligi bo‘ylab logarifmik qonuniyat bo‘yichao‘zgarishi kelib chiqadi.

Silindrik devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimi zichligini hisoblash uchun Fur’ye qonunidan foydalanish asosida

$$q = \frac{\lambda}{r} \cdot \frac{t_1 - t_2}{\ln \frac{r_2}{r_1}} \quad (2.19)$$

ifodani keltirib chiqaramiz.

Silindrik devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimini mazkur devor uchun  $\frac{r_2}{r_1} = \frac{d_2}{d_1}$  va  $F = 2\pi r \ell$  ekanligini hisobgaolgan holda

$$Q = qF = \frac{2\pi\lambda\ell}{\ln \frac{d_2}{d_1}}(t_1 - t_2) \quad (2.20)$$

ifodaorqali hisoblash mumkin.

Silindrik devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimi zichligini hisoblash ifodalari mazkur devorning uzunligi ( $\ell$ ), ichki ( $F_1 = \pi d_2 \ell$ ) yoki tashqi ( $F_2 = \pi d_1 \ell$ ) sirtlariga nisbatan yozilishi mumkin, Ya’ni

$$q_e = \frac{Q}{\ell} = \frac{2\pi\lambda}{\ln \frac{d_2}{d_1}}(t_1 - t_2), \frac{Bm}{M}; \quad (2.21)$$

$$q_1 = \frac{Q}{F_1} = \frac{2\lambda}{d_1 \ln \frac{d_2}{d_1}}(t_1 - t_2), \frac{Bm}{M^2}; \quad (2.22)$$

$$q_2 = \frac{Q}{F_2} = \frac{2\lambda}{d_2 \ln \frac{d_2}{d_1}}(t_1 - t_2), \frac{Bm}{M^2}; \quad (2.23)$$

Hosil qilingan hisobiy ifodalardan silindrik devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimi zichligi mazkur devor materialining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti va shu devorning ichki va tashqi sirlari haroratlarining ayirmasiga to‘g‘ri va uning tashqi va ichki diametrлari nisbatining natural logarifmiga teskari mutanosib ekanligi ko‘rinib turibti. Tabiyki, (2.22) - (2.23)ifodalardan  $q_e$ ,  $q_1$  va  $q_2$ lar orasidagi quyidagi o‘zaro bog‘liqlik ifodasi kelib chiqadi:

$$q_e = \pi d_1 q_1 = \pi d_2 q_2. \quad (2.24)$$

## 2.4. Silindrik ko‘p qatlamlı devorninigissiqlik o‘tkazuvchanligi

Qalinligi va issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti harxil bo‘lgan silindrik devorlar majmuasidan iborat devorni ko‘p qatlamlı silindrik devor deyiladi. Ko‘p qatlamlı silindrik devorlarga tashqi sirtlari issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentlari past bo‘lgan moddalar bilan bir necha qavat qilib qoplangan issiqlik ta’mnoti tizimi quvurlari misol bo‘la oladi.

O‘zaro tutash, ya’ni jips qilib yopishtirib qo‘yilgan, mos ravishda qalinliklari  $\delta_1, \delta_2, \delta_3$  va issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentlari  $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3$  bo‘lgan 3 qatlamdan iborat silindrik devor ichki va tashqi sirtlarining haroratlari mos ravishda  $t_1$  va  $t_4$  bo‘lsin. Devorning birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi qatlamlari o‘zaro tegib turgan sirtlaridagi haroratlar mos ravishda  $t_2$  va  $t_3$  ekanligi ma’lum.

$$\left. \begin{aligned} q_e &= \frac{2 \pi \lambda_1}{\ell n} \frac{d_2}{d_1} (t_1 - t_2) \\ q_e &= \frac{2 \pi \lambda_2}{\ell n} \frac{d_3}{d_2} (t_2 - t_3) \\ q_e &= \frac{2 \pi \lambda_3}{\ell n} \frac{d_4}{d_3} (t_3 - t_4) \end{aligned} \right\}. \quad (2.25)$$

Barqaror issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayonida ko‘p qatlamlı silindrik devorning alohida qatlamlari uchun (2.25) tenglama misolida quyidagi tenglamalar tizimini yozish mumkin.

(2.25) tenglamalar tizimini mos ravishda haroratlarga nisbatan yechish va olingan natijalarni o‘zaro qo‘shish asosida

$$\left. \begin{aligned} t_1 - t_2 &= q \frac{1}{2\pi\lambda_1\ell} \ln \frac{d_2}{d_1} \\ t_2 - t_3 &= q \frac{1}{2\pi\lambda_2\ell} \ln \frac{d_3}{d_2} \\ t_5 - t_4 &= q \frac{1}{2\pi\lambda_3\ell} \ln \frac{d_4}{d_3} \end{aligned} \right\} \quad (2.26)$$

ifodani keltirib chiqaramiz.

Hosil qilingan ifodadan ko‘p qatlamlı silindrik devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimi zichligining mazkur devor uzunligiga nisbatan olingen qiymatini hisoblash ifodasi kelib chiqadi, ya’ni

$$t_1 - t_4 = q \left( \frac{1}{2\pi\lambda_1\ell} \ln \frac{d_2}{d_1} + \frac{1}{2\pi\lambda_2\ell} \ln \frac{d_3}{d_2} + \frac{1}{2\pi\lambda_3\ell} \ln \frac{d_4}{d_3} \right) \quad (2.27)$$

Ko‘p qatlamlı silindrik devor qatlamlarining soni 3 ta bo‘lsa (2.27) ifoda umumiyl holda

$$q_r = \frac{2\pi\ell(t_1 - t_4)}{\frac{1}{\lambda_1} \ln \frac{d_2}{d_1} + \frac{1}{\lambda_2} \ln \frac{d_3}{d_2} + \frac{1}{\lambda_3} \ln \frac{d_4}{d_3}} \quad (2.28)$$

shaklda yozilishi mumkin.

Qatlamlar soni n ta bo‘lgan ko‘p qatlamlı silindrik devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimi zichligini hisoblash ifodasi mazkur devorning ichki ( $t_1$ ) yoki tashqi ( $t_n$ ) sirtlariga nisbatan mos ravishda

$$q_\ell = \frac{\ell(t_1 - t_n)}{\sum \frac{1}{\lambda_i} \ln \frac{d_i}{d_{i+1}}} \quad (2.29)$$

## 2.5. Shar shaklidagi jismning issiqlik o‘tkazuvchanligi

Issiqlik oqimi shar shaklidagi jismdan oqib, lekin issiqlik manbai sharning ichida joylashgan. Harorat sharning radiusi bo‘ylab o‘zgaradi.

Ichki yuzanining harorati  $t_{d1}$  tashqi yuzaniki esa  $t_{d2}$  deb belgilanadi.

$$Q = -\lambda F \frac{dz}{dr} \quad (2.30)$$

(2.30) dagi  $F$  ni qiymati quyidagiga teng bo‘ladi

$$F = 4\pi r^2$$

Shuni hisobga olgan holda (2.30) ifodani quyidagicha yozish mumkin.

$$\text{yoki } Q = -\lambda 4\pi r^2 \frac{dt}{dr} \quad (2.31)$$

Devorning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti λ o‘zgarmaydi, sharning ichki radiusi  $r_1$  tashqisi esa  $r_2$  ga teng.

$dr$  qalilikka va  $r$  radiusga ega bo‘lgan devor uchun issiqlik oqimining ifodasini Fur’ye qonuniga binoan quyidagicha yechiladi.

$$dt = \frac{Q}{4\pi r} \frac{dr}{r^2} \quad (2.32)$$

Oxirgi ifodani integrallash natijasida quyidagini hosil qilamiz.

$$Q = \frac{4\pi r^2 (\tg_1 - \tg_2)}{\left(\frac{1}{r_1} - \frac{1}{r_2}\right)} = \frac{2\pi r^2 (\tg_1 - \tg_2)}{\left(\frac{1}{r_1} - \frac{1}{r_2}\right)} \quad (2.33)$$

(2.33) ifoda shar shaklida jism uchun 1 tartibli chegara shartidagi issiqlik o‘tkazuvchanligi ifodasi bo‘lib hisoblanadi.

## 2.6. Ixtiyoriy shakldagi jismning I tartibli chegara shaklidagi issiqlik o‘tkazuvchanligi

Ko‘rib chiqilganlardan shu narsa yuzaga keldiki har bir shakl uchun issiqlik o‘tkazuvchanligi tenglamalari bo‘lib ular boshqa jismlar uchun ishlata olmaydi.

Ixtiyoriy shaklga ega bo‘lgan jismlar issiqlik o‘tkazuvchanlikni quyidagi ifoda orqali aniqlansa bo‘ladi.

$$Q = \frac{\lambda}{\delta} (t_{d1} - t_{d2}) F \quad (2.34)$$

bu yerda  $F$  - ixtiyoriy shakldagi jism yuzasi ( $m^2$ ).

Yassi va silindrik yuzalar uchun  $\frac{F_1}{F_2} < 2$  bo‘lganda

$$F_{o'r} = \frac{F_1 + F_2}{2} \quad (2.35)$$

bilan aniqlanadi. Bunda  $F_1$  – jismning ichki yuzasi,  $F_2$  – jismning tashqi yuzasi.

Silindrik shakildagi yuza uchun  $\frac{F_1}{F_2} > 2$  bo‘lganda

$$F_{o'r} = \frac{F_2 - F_1}{2.3 \lg \frac{F_2}{F_1}} \quad (2.36)$$

Shar shaklidagi yuza uchun

$$F_{o'r} = \sqrt{A_1 - A_2} \quad (2.37)$$

Ushbu keltirilgan tenglamalar hammasi hisoblashga qulay bo‘lgan yaqinlashtirilgan usulda keltirib chiqarilgandir. Agar aniqlikdagi hisoblashlarga majbur bo‘lsak, u holda shaklning har bir elementi yuzasi va undagi harorato‘zgarishi e‘tiborga olinadi.

### Masalalar:

1. Uzunligi 3 m, ichki diametri 140 mm li bug‘ quvuri qalinligi  $\delta_2 = 20$  mm va  $\delta_3 = 40$  mm bo‘lgan izolyatsiya qatlidan iborat. Quvurning va izolyatsiya qatlamarining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentlari mos ravishda  $\lambda_1=55$  ;  $\lambda_2=0,037$  va  $\lambda_3=0,14$   $Vt/m^0C$  ga teng. Quvurning ichki sirtidagi harorat  $t_1 = 300^0C$  va izolyatsiyaning tashqi sirtidagi harorat  $t_4 = 55^0C$  ga teng. Bug‘ quvurining qalinligi  $\delta=5$  mm . Bug‘ quvuridan o‘tgan issiqlik oqimini aniqlang.

Javob : 517,5  $Vt / m$  .

2. Agar 1-masaladagi izolyatsiya qatlamarining o‘rnini almashtirsak, izolyatsiyalangan bug‘ quvuridan o‘tgan issiqlik qanday o‘zgaradi?

3. Diametri 160/170 mmli bug‘ quvuri  $\delta= 100$  mm va issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\lambda_{iz}= 0,062(1+0,00363 t) \text{ } Vt/m^0C$  bo‘lgan izolyatsiya qatlidan iborat. Quvurning tashqi sirtidagi harorat  $t_2 = 300^0C$  , izolyatsiyaning tashqi sirtidagi harorat  $50^0C$  ga teng bo‘lganda 1 m bug‘quvurdan yo‘qolgan issiqlikning va quvurning ichki sirtidagi haroratni aniqlang.

Javob:  $q_l = 205 \text{ Vt/m}$ ,  $t_l = 300^{\circ}\text{C}$ .

### **Nazorat savollari.**

- 1.Bir qatlamlı yassi devor issiqlik o‘tkazuvchanligini ifodalashni keltirib chiqaring.
2. Ko‘p qatlamlı yassi devorni I tartibli chegara shartidagi issiqlik o‘tkazuvchanligini yozib bering.
- 3.Bir qatlamlı silindrik devor issiqlik o‘tkazuvchanligi.
- 4.Ko‘p qatlamlı devorninig issiqlik o‘tkazuvchanligi.
- 5.Shar shaklidagi jismning issiqlik o‘tkazuvchanligi.

### 3.Barqaror sharoitda III - tartibli chegara shartidagi issiqlik o‘tkazuvchanlik.

#### 3.1.Bir qatlamlili yassi devor orqali issiqlik uzatilishi


Bir muhitdan (suyuqlik yoki gaz) ikkinchi muhitga bir qatlamlili yoki ko‘p qatlamlili qattiq devor orqali issiqliknинг o‘tishiga **issiqlik uzatilishi** deyiladi.

Qalinligi  $\delta$  va sirt yuzasi  $F \text{ m}^2$  bo‘lgan bir qatlamlili devorning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\lambda$  ( $\text{Vt}/(\text{m}\cdot\text{K})$ ). Muhit haroratlari  $t_{s1}$  va  $t_{s2}$  hamda ikkala oqimning  $\alpha_1$  va  $\alpha_2$  issiqlik berish koeffitsiyentlari berilgan (3.1-rasm). Issiq muhitdan devorga issiqlik konveksiya orqali o‘tadi:

$$q = \alpha_1 (t_{c_1} - t_{d_1})$$

devordan issiqlik o‘tkazuvchanlik orqali o‘tadi:

$$q = \frac{\lambda}{\delta} (t_{d1} - t_{d2}) \quad (3.1)$$



3.1-rasm.Barqaror sharoitda 3-tartibli chegara shartidagi issiqlik o‘tkazuvchanlik

devordan muhitga konveksiya orqali o‘tadi:

$$q = \alpha_2 (t_{d1} - t_{s2})$$

Bu ifodalarni haroratga nisbatan olamiz.

$$\left. \begin{aligned} t_{c_2} - t_{q_1} &= q \frac{1}{\alpha} \\ t_{q_1} - t_{q_2} &= q \frac{1}{\alpha} \\ t_{q_2} - t_{c_1} &= q \frac{1}{\alpha} \end{aligned} \right\} \quad (3.2)$$

\*Tenglamalar tizimini qo‘shamiz.

Bu ifodalarni haroratlar farqi orqali ifodalab, keyin qo'shib issiqlik uzatish tenglamasini hosil qilamiz:

$$q = \frac{\frac{t_{c_1} - t_{c_2}}{1 + \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{\alpha_1}}}{\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{\alpha_2}} = \kappa(t_{c_1} - t_{c_2}) \quad \text{Vt/m}^2 \quad (3.3)$$

bu yerda  $\kappa$  – issiqlik uzatish koeffitsiyenti.

$$\kappa = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{\alpha_2}} \quad \text{Vt/m}^2\text{K} \quad (3.4)$$

Issiqlik uzatish koeffitsiyenti son jihatdan vaqt birligi ichida birlik yuzadan haroratlar farqi  $1^\circ\text{C}$  ga teng bo'lganda o'tgan issiqlik miqdoriga teng. Issiqlik uzatish koeffitsiyentiga teskari bo'lgan kattalik issiqlik uzatilishning **to'liq termik qarshiligi** deyiladi.

$$R = \frac{1}{\kappa} = \frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta}{\lambda} + \frac{1}{\alpha_2} \quad \text{m}^2\text{K/Vt} \quad (3.5)$$

### 3.2. Ko'p qatlamlili yassi devor orqali issiqlik uzatish

Ko'p qatlamlili yassi devor orqali o'tayotgan issiqlik oqimining zichligi, masalan, uch qatlamlili devor orqali o'tgan issiqlik:


$$q = \frac{\frac{t_{c_1} - t_{c_2}}{\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{\delta_3}{\lambda_3} + \frac{1}{\alpha_2}}}{\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{\delta_3}{\lambda_3} + \frac{1}{\alpha_2}} = \kappa(t_{c_1} - t_{c_2}) \quad \text{Vt/m}^2 \quad (3.6)$$

bu yerda:

$$\kappa = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{\delta_3}{\lambda_3} + \frac{1}{\alpha_2}} \quad \text{Vt/m}^2\text{K}$$

$F (\text{m}^2)$  sirtga ega bo'lgan yassi devor orqali issiqlik oqimi  $Q$  ga teng

$$Q = q \cdot F = k \cdot \Delta t \cdot F \quad \text{Vt} \quad (3.7)$$



3.2-rasm 3-qatlamlı yassi devor 3 tartibli chegara sharti

Devor qatlamlari orasidagi haroratlar quyidagicha topiladi:

$$Q = \alpha(t_d - t_s)F \quad (3.8)$$

Silindr yuzasi quyidagiga teng:

$$F = \pi d l \quad (3.9)$$

Shuni hisobga olganda:

$$Q = \alpha \pi d_{ich} l (t_s - t_{d_2}) \quad (3.10)$$

Devor orqali o'tgan issiqlik oqimi:

$$Q = \frac{\pi e (t_{d_1} - t_{d_2})}{\frac{1}{2\pi} \ln \frac{d_2}{d_1}} \quad (3.11)$$

Devordan suyuqlikka berilgan issiqlik oqimi:

$$Q = \alpha_2 d_{tashqi} l (t_{d_2} - t_{s_2}) \quad (3.12)$$

Hosil bo'lgan (3), (4), (5), tenglamalarni haroratlarga nisbatan yechamiz:

$$\left. \begin{aligned} t_{s_1} - t_{d_1} &= Q \frac{1}{\alpha_1 \pi d_1 l} \\ t_{d_1} - t_{d_2} &= Q \frac{1}{2\pi \lambda l} \ln \frac{d_2}{d_1} \\ t_{d_2} - t_{s_2} &= Q \frac{1}{\alpha_2 \pi d_2 l} \end{aligned} \right\} \quad (3.13)$$

Hosil bo‘lgan tenglamalar tizimi (6)dan Q ni aniqlaymiz:

$$Q = \frac{\pi l(t_{s_1} - t_{s_2})}{\frac{1}{\alpha_1 d_1} + \frac{1}{2\lambda} \ln \frac{d_2}{d_1} + \frac{1}{\alpha_2 d_2}}. \quad (3.14)$$

Chiziqli issiqlik uzatish harorati  $K_e$  quyidagiga teng:

$$K_e = \frac{1}{\frac{1}{\alpha_1 d_1} + \frac{1}{2\lambda} \ln \frac{d_2}{d_1} + \frac{1}{\alpha_2 d_2}}, \quad \text{Vt/km} \quad (3.15)$$

Issiqlik oqimining zichligi:

$$q = \frac{Q}{l} = K_e \pi (t_{d_1} - t_{d_2}), \quad \text{Vt/m} \quad (3.16)$$

Shularni hisobga olganda (3.16) tenglama quyidagicha yoziladi:

$$Q = K_e \pi l (t_{s_1} - t_{s_2}) \quad (3.17)$$

Bir qatlamlı silindrik devorning chiziqli zichligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} t_{d_1} &= t_{s_1} - q \frac{1}{\alpha_1} \\ t_{d_2} &= t_{s_1} - q \left( \frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta_1}{\lambda_1} \right) \\ t_{d_3} &= t_{s_1} - q \left( \frac{1}{\alpha_1} + \sum_{i=1}^n \frac{\delta_i}{\lambda_1} \right) \end{aligned} \quad (3.18)$$

### **3.3. Bir qatlamlı va ko‘p qatlamlı silindrik devor orqali III - tartibli chegara shartidagi issiqlik uzatish**


Bir yo‘nalishlilik shartlari:

Issiqlik oqimining chiziqli zichligi:

$$q_{\ell} = \frac{\pi(t_{s_1} - t_{s_2})}{\frac{1}{\alpha_1 d_1} + \frac{1}{2\lambda} \ln \frac{d_2}{d_1} + \frac{1}{\alpha_2 d_2}} = \kappa_{\ell} \pi (t_{s_1} - t_{s_2}), \text{ Vt/m}^2 \quad (3.19)$$

bu yerda:  $\kappa_{\ell}$  – issiqlik uzatishning chiziqli koeffitsiyenti – son jihatdan bir muhitdan ikkinchi muhitga vaqt birligi ichida uzunligi 1m bo‘lgan quvur devorida haroratlar farqi  $1^{\circ}\text{C}$  ga teng bo‘lganda o‘tayotgan issiqlik miqdoriga teng (3.3-rasm).

Bir qatlamlili silindrik devorning chizmasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:



3.3-rasm. Bir qatlamlili silindrik devor 3-tartibli chegara shartidagi issiqlik o‘tkazuvchanlik.

Issiqlik uzatish chiziqli koeffitsiyentiga teskari bo‘lgan kattalik  $R = 1/\kappa_{\ell}$  issiqlik uzatishning **chiziqli termik qarshiligi** deyiladi.

$$R_e = \frac{1}{\kappa_{\ell}} = \frac{1}{\alpha_1 d_1} + \frac{1}{2\lambda} \ln \frac{d_2}{d_1} + \frac{1}{\alpha_2 d_2}, \quad \text{m}^2\text{K}/\text{Vt}. \quad (3.20)$$

Qatlamlar orasida harorat quyidagi formulalar orqali topiladi:

$$\begin{aligned} t_{o_1} &= t_{s_1} - q_e \frac{1}{\pi} \frac{1}{\alpha_1 d_1} \\ t_{o_2} &= t_{s_1} - q_e \cdot \frac{1}{2\lambda_1} \ln \frac{d_2}{d_1} \\ t_{o_3} &= t_{s_1} - q_e \cdot \frac{1}{2\lambda_2} \ln \frac{d_3}{d_{12}} \end{aligned} \quad (3.21)$$

Ko‘p qatlamlili silindrik devor uchun issiqlik uzatilishi.

Ko‘p qatlamlili silindrik devor uchun issiqlik oqim quyidagicha yoziladi:

$$Q = \frac{\pi e(t_{s_1} - t_{s_2})}{\frac{1}{\alpha_1 d_1} + \sum_{i=1}^n \frac{1}{2\lambda_1} \ln \frac{d_{i=1}}{d_1} + \frac{1}{\alpha_2 d_{2n+1}}} \quad (3.22)$$

Chiziqli issiqlik o‘tkazuvchanlik haroratga teskari bo‘lgan termik qarshilik deyiladi va R harfi bilan belgilanadi:

Ko‘p qatlamlili silindrik devor uchun:

$$R = \frac{1}{K_e} = \frac{1}{\alpha_1 d_1} + \sum_{i=1}^n \frac{1}{2\lambda_1} \ln \frac{d_{i=1}}{d_1} + \frac{1}{\alpha_2 d_{2n+1}} \quad (3.23)$$

Bu ifodalarda:

$\frac{1}{\alpha_1 d_1}$  va  $\frac{1}{\alpha_2 d_2}$  - tashqi termik qarshilik

$\frac{1}{2\lambda_1} \ln \frac{d_2}{d_1}$  va  $\sum_{i=1}^n \frac{1}{2\lambda_1} \ln \frac{d_{i=1}}{d_1}$  - ichki termik qarshilik:

Ko‘p qatlamlili silindrik devor orqali o‘tayotgan issiqlik oqimining zichligi:

$$q_\ell = \frac{\pi(t_{d_1} - t_{d_2})}{\frac{1}{\alpha_1 d_1} + \frac{1}{2\lambda_1} \ln \frac{d_1}{d_2} + \frac{1}{2\lambda_2} \ln \frac{d_3}{d_2} + \frac{1}{\alpha_3 d_3}} = \kappa_\ell \pi(t_{s_1} - t_{s_2}) \quad (3.24)$$

### 3.4. Izolatsiyaning kritik diametri

Qizitilayotgan yuzasi shunday qoplama qoplanganki yuzadagi issiqlik tashqi muhutga yo‘qolib ketmaydi. Shunday qoplamalar issiqlik izolyatsiyasi deb ataladi. Issiqlik izolyatsiyasi sifatida turli xil materiallar ishlataliladi. Bularning issiqlik o‘tkazuvchanligi juda past bo‘ladi, masalan asbest, probka, jun materiallar, torf va boshqalar.

Silindr shaklidagi jismalarni, ya’ni quvurlarni tahlil qilish ifodalaridan shu narsa aniq bo‘ladiki, quvurlarning izolyatsiya kesimidan issiqlikning yoqolishi shunchalik kamayadi.

Quvurni izolyatsiya qilish uchun ishlatalayotgan material issiqlik yo‘qolishini kamaytirishi holatini ko‘rib chiqamiz.

Issiqlik quvur bir qatlamlı izolyatsiya bilan o'ralgan deb olamiz. Bunda  $\alpha_1, \alpha_2, d_1, d_2, \lambda_1, \lambda_2, t_1, v_{at_2}$  lar o'zgarmas deb hisoblab to'liq termik qarshilik izolyatsiya qalinligini o'zgarishida qanday o'zgarishini ko'rib chiqamiz.

Ikki qatlamlı silindrik devor uchun termik qarshilikning tenglamasida

$$R_e = \frac{1}{K_e} = \frac{1}{\alpha_1 d_1} + \frac{1}{\lambda_1} \ln \frac{d_2}{d_1} + \frac{1}{\lambda_2} \ln \frac{d_3}{d_2} + \frac{1}{\alpha_2 d_2} \quad (3.25)$$

Tashqi diametr  $d_3$  ni (3.25) ifodadagi qatlam qarshiligi ( $\frac{1}{\lambda_2} \ln \frac{d_3}{d_2}$ ) ortadi, lekin issiqlik berish qarshiligi  $\frac{1}{\lambda_2 d_3}$  kamayadi.

(3.26) ifodadagi o'ng tomonida  $d_1$  bo'yicha hosil bo'lib va uni nolga tenglash natijasida quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\frac{d(R_y)}{d(d_3)} = \frac{1}{2\lambda d_3} - \frac{1}{\alpha_2 d^2 3} = 0 \quad (3.26)$$

Unga ko'ra  $R=f(d_3)$  egri chiziqdagi nuqtaga mos keluvchi izolyatsyaning kritik diametri quyidagicha aniqlanadi.

$$d_{kr} = d_{iz} = \frac{2\lambda_{iz}}{\alpha_2} \quad (3.27)$$

(3.27) ifodadan shu narsa aniq bo'ldiki, izolyatsyaning kritik diametri quvurning o'lchamlariga bog'liq emas, u izolyatsyaning issiqlik o'tka-zuvchanligi qancha kam bo'lsa, shuncha kam boladi, issiqlik chiqarish koeffitsiyenti ko'p bo'lsa, ko'p bo'ladi.

$R_y$  ni noldan katta deb hisoblasak, demak kritik diametr issiqlik qarshiliginini minimumga issiqlik oqimini maksimumga mos keladi. Buni quyidagi rasmda ko'rish mumkin.

(3.27) tenglamani tahlil qilish shunu ko'rsatadiki, agar tashqi izolyatsiya diametri faqat  $d_{kr}$  dan kuchli holda oshsa unda issiqlik yo'qolishlari ortadi (Ax egri chizig'i)  $d_{kr}=d_{iz}$  bo'lgan holatda tashqi muhitga maksimal issiqlik yo'qolishlari yuzaga keladi. Izolyatsiyasi tashqi diametrini oshirib borsak  $d_{iz}>d_{kr}$  yo'qolishari kamayadi (Bx egri chizig'i).

Demak kiritik diametri eng samarador holati y hol bo'lsa, izolyatsyaning diametri izoliyatsiyaga ega bo'limgan holatdagi quvurning tashqi diametridan kichik holatda bo'lar ekan,yani  $d_{iz}<d_2$ .

Shunday qilib quvurlarni izolyatsiya qilish issiqlik berish koeffitsiyenti  $\alpha_2$ , va izolyatsiya qilinmagan holatdagi quvurlarning tashqi diametri  $d_2$  berilganda quyidagicha bo‘lishi kerak

$$\lambda_{iz} < \frac{\alpha_2 d_2}{2} \quad (3.28)$$

(3.28) shar shaklidgi yuzanining issiqlik uzatilishi ifodasi.

III- tartibli chegara shartida sharning ichki diametri -  $d_1$  berilgan. Sharning ichidagi issiq issiqlik tashuvchi harorati  $-t_1$ , sovuq issiqlik tashuvchining harorati  $-t_2$  issiq, issiqlik tashuvchining issiqlik berish chegarasi koeffitsiyenti  $\alpha_1$ , sovuq issiqlik tashuvchiniki esa -  $\alpha_2$  berilgan.

Barqaror holatda izotermik yuzalardan oqib chiquvchi issiqlik oqimi o‘zgarmas.

$$\left. \begin{aligned} Q &= \alpha_1 \pi d_1^2 (t_1 - t g_2) \\ Q &= \frac{2\pi\lambda}{\frac{1}{d_1} - \frac{1}{d_2}} (t g_1 - t g_2) \\ Q &= \alpha_2 \pi d_2^2 (t g_2 - t_2) \end{aligned} \right\} \quad (3.29)$$

(3.29) ifodani haroratga nisbatan yechib, quyidagini hosil qilamiz.

$$Q = \frac{1}{\left( \frac{1}{(\alpha_1 d_1)^2} + \left[ \frac{1}{(2\lambda)} \left( \frac{1}{d_1} - \frac{1}{\alpha_2 d_2^2} \right) \right] \right)} \quad (3.30)$$

yoki

$$Q = K_{sh} \pi d (t_1 - t_2); \quad (3.31)$$

(3.31) ifodani issiqlik uzatish koeffitsiyentini aniqlaymiz.

$$K_{sh} = \frac{1}{\left( \frac{1}{(\alpha_1 d_1)^2} + \left( \frac{1}{(2\lambda)} \right) \left( \frac{1}{d_1} - \frac{1}{\alpha_2 d_2^2} \right) + \frac{1}{(\alpha_2 d_2)^2} \right)} \quad (3.32)$$

## Masalalar

1. Bug‘ qozonidagi tutun gazlarining harorati  $t_{c1}=1000^{\circ}\text{C}$ , suvning harorati  $t_{c2}=200^{\circ}\text{C}$ , gazlardan devorga issiqlik berish koeffitsiyentia<sub>1</sub> =  $100 \text{ Vt/m}^2\text{ }^{\circ}\text{C}$  va devordan suvga issiqlik berish koeffitsiyentia<sub>2</sub> =  $5000 \text{ Vt/m}^2\text{ }^{\circ}\text{C}$  bo‘lganda  $1 \text{ m}^2$  isitish sirtidan o‘tgan issiqliknini va devor sirtlaridagi haroratlarni toping. Devor materialining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti  $\lambda = 50 \text{ Vt/m }^{\circ}\text{C}$  va qalinligi  $\delta = 12 \text{ mm}$  ga teng.

Javob:  $q = 76560 \text{ Vt / m}^2$ ,  $t_1 = 234^{\circ}\text{C}$ ,  $t_2 = 215^{\circ}\text{C}$ .

2.Qozondagi gazning harorati  $t_{c1} = 1100^{\circ}\text{C}$ , suvning harorati  $t_{c2} = 200^{\circ}\text{C}$ , yassi devordan o‘tgan issiqlik oqimining zichligi  $q = 50000 \text{ Vt/m}^2$  va devordan suvga issiqlik berish koeffitsiyentia<sub>2</sub> =  $5700 \text{ Vt/m}^2\text{ }^{\circ}\text{C}$  ga teng. Agar devor materialining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentil $\lambda = 56 \text{ Vt/m }^{\circ}\text{C}$ , qalinligi  $\delta = 12 \text{ mm}$  bo‘lsa, issiqlik uzatish koeffitsiyenti, gazlardan devorga issiqlik berish koeffitsiyenti va qozon devori sirtlaridagi haroratlarini aniqlang.

Javob :  $k = 55,6 \text{ Vt/m}^2\text{ }^{\circ}\text{C}$ ,  $\alpha_1 = 55,5 \text{ Vt/m}^2\text{ }^{\circ}\text{C}$ ,  
 $t_1 = 200^{\circ}\text{C}$ ,  $t_2 = 188^{\circ}\text{C}$ .

3. Bug‘ qozonining devori qalinligi  $\delta_1=230 \text{ mm}$  bo‘lgan o‘tga bardoshli g‘ishtdan, qalinligi  $\delta_2=40 \text{ mm}$  havodan va qalinligi  $\delta_3=380 \text{ mm}$  bo‘lgan qizil g‘ishtdan iborat. Bug‘ qozonidagi gazlarining harorati  $t_{c1}=1100^{\circ}\text{C}$  va havoning harorati  $t_{c2}=30^{\circ}\text{C}$  bo‘lganda, qozon devori qatlamlari orasidagi havoning atrof- muhitga yo‘qolayotgan issiqlikka va tashqi sirt haroratiga ta’sirini aniqlang. Gazlardan devorga issiqlik berish koeffitsiyentia<sub>1</sub>= $10 \text{ Vt/m}^2\text{ }^{\circ}\text{C}$  va devordan havoga issiqlik berish koeffitsiyentia<sub>2</sub> =  $5 \text{ Vt/m}^2\text{ }^{\circ}\text{C}$  teng. Devor materialining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti mos ravishda :  $\lambda_1 = 1,65 \text{ Vt/m }^{\circ}\text{C}$ ,  $\lambda_2 = 0,4 \text{ Vt/m }^{\circ}\text{C}$  va  $\lambda_3 = 0,7 \text{ Vt/m }^{\circ}\text{C}$ .

Javob: Issiqlikning yo‘qolishi  $50,5\%$  ,  
 tashqi qatlam harorati  $110^{\circ}\text{C}$  ga kamayadi.

Diametri 150 / 165 mm bo‘lgan quvur ichida harorati  $t_{c1} = 90^{\circ}\text{C}$  bo‘lgan suv harakatlanadi. Quvurning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentil $\lambda=50 \text{ Vt/m }^{\circ}\text{C}$ , atrof-muhitning harorati  $t_{c2} = -15^{\circ}\text{C}$ , suvdan quvur devoriga issiqlik berish koeffitsiyentia<sub>1</sub> =  $1000 \text{ Vt/m}^2\text{ }^{\circ}\text{C}$  va quvurdan havoga issiqlik berish koeffitsiyentia<sub>2</sub> =  $12 \text{ Vt/m}^2\text{ }^{\circ}\text{C}$  bo‘lganda, 1 mquvur sirtidan o‘tgan issiqlik va quvurning ichki, tashqi sirtlaridagi haroratlarni aniqlang.

Javob :  $q_l = 652 \text{ Vt / m}$ ,  $t_1 = 89,8^{\circ}\text{C}$ ,  $t_2 = 89,6^{\circ}\text{C}$ .

## Nazorat savollari.

1. III- tartibli chegara shartlari nima?
2. Bir qatlamlı yassi devor uchun issiqlik uzatishni ifodasini keltirib chiqaring.
3. Ko‘p qatlamlı yassi devor orqali issiqlik uzatilishini ifodasini yozib bering.
4. Bir qatlamlı silindrik devor uchun III- tartibli chegara sharti ifodasini yozing.
5. Ko‘p qatlamlı silindrik devor uchun issiqlik uzatish.
6. Izolyatsiyaning kritik diametri.
7. Shar shaklidagi yuzanining issiqlik uzatishi.

## 4. Nobarqaror sharoitda issiqlik o‘tkazuvchanlik

### 4.1. Asosiy tushunshalar

Agar harakatlar maydoni vaqt bo‘yicha o‘zgarsa bunday sharoitda bo‘lib o‘tadigan issiqlik jarayonlari nobarqaror jarayonlar deyiladi. Nobarqaror issiqlik o‘tkazuvchanlik jarayonlari metall sovutishda qattiq jisimlarni o‘yishda shishalarni tayyorlashda, g‘ishtni pishitishda, daraxtni qizdirishda va boshqalarda uchraydi.

Nobarqaror issiqlik o‘zgaruvchanligini agar harorat maydonini o‘zgarishi qonuni va issiqlik oqimini vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi bo‘lsa aniqlasa bo‘ladi.

$$t = f(x, y, z, \tau) \quad \text{va} \quad Q = f(x, y, z, \tau) \quad (4.1)$$

Bu yerda :  $x, y, z$  - nuqta koordinatalari

$\tau$  - vaqt.

Vaqtningo‘zgarishini va issiqlikningo‘zgarishi Fur’yening issiqlik o‘tkazuvchanligi differensial tenglamasini yechish bilan aniqlash mumkun;

$$\frac{\partial z}{\partial \tau} = a \frac{\partial^2 t}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 t}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 t}{\partial z^2} = a \nabla^2 t, \quad (4.2)$$

Quyidagi (4.2) yechishda chegara shartlari va jism yuzasida haroratningo‘zgarishini bilish kerak bo‘ladi.

Chegara shartlari quyidagi tenglama yordamida beriladi:

$$\left( \frac{\partial t}{\partial \tau} \right)_{yuza} = - \left( \frac{\alpha}{\lambda g} \right) (t_{yuza} - t_{muhut}) \quad (4.3)$$

Bunda  $\left( \frac{\partial t}{\partial \tau} \right)_{yuza}$ - yuza bo‘ylab yo‘nalgan harorat gradienti

$\alpha$ -yuza va muhit orasidagi issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti.

$\lambda_d$ - devorning issiqlik o‘tkazuvchanligi koeffitsiyenti.

$t_{yuza}$ -yuzaning harorati.

$T_{muhut}$ -muhitning harorati.

Fizik kattaliklar  $\lambda, c, \rho$  o‘zgarmas kattalik bo‘lib qoladi.

Ko‘rilayotgan jismning boshlang‘ich vaqt birligi ichida, ya’ni  $\tau = 0$  bo‘lganida bir tekis taqsimlangan ya’ni  $t_0 = \text{const}$

(4.2) va (4.3) tengliklarni chegara vaqt shartlari bilan birgalikda yechish natijasida haroratlar maydoni tenglamasini quyidagi ko‘rinishga olib keladi.

$$t = f(a, \lambda, \alpha, \tau, x, y, z, t_0, t_{o'r}, l_0, l_1, \dots, l_n) \quad (4.4)$$

(4.4) ifodadan ko‘rinib turibdiki, harorat juda ko‘p o‘zgaruvchi parametrlarga bog‘liq shuning uchun uning yechimi juda katta qiyinchiliklarga olib keladi

(4.4) ifodani tahlil qilish shunu ko‘rsatib turibdiki, ifodadagi o‘zgaruvchan kattaliklarni guruhlar asosida yozishimiz mumkin.

$$\frac{al}{\lambda g} = Bi \quad - Bio \quad \text{soni}$$

$$\frac{a\tau}{l^2} = Fo \quad - Fure \quad \text{soni}$$

$$\frac{x}{l} \quad - \quad o'lchamsiz \quad \text{koordinata}$$

O‘lchamsiz harorat  $\frac{V}{V_1}$  quyidagicha yoziladi:

$$V = t_{jism} - t_{muhit} \quad (4.5)$$

V- tashqi muhitning haroratidan hisoblangan harorat bo‘lib qattiq jisimni ortiqcha harorati hisoblanadi.

Shularni hisobga olganda ifoda quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{V}{V_1} = F\left(F_o, Bi, \frac{x}{l}\right) \quad (4.6)$$

## 4.2. Regulyar rejim. Regulyar rejim holatda nobarqaror issiqlik o'tkazuvchanlik

Nobarqaror issiqlik o'tkazuvchanlikda harorat vaqt o'tishi bilan o'zgarmasdan qoladi. Shuning uchun har bir holat o'zgarishini haroratga bog'liq ravishda o'zgarishini tekshirish zarurdir. Istalgan yuza bo'yab harorat o'zgarib borsa, u holda yuza bo'yab haroratning vaqt bo'yicha taqsimlanishi e'tiborga olinadi.

Ixtiyoriy jismni o'zgarmas harorat va o'zgarmas issiqlik berish koeffitsiyentini vaqt bo'yicha o'zgarishi issiqlik o'tkazuvchanlikning differensial tenglamasi yordamida aniqlanadi.

$$\frac{dt}{dt} = q \nabla^2 t \quad (4.7)$$

va chegara shartlari:

$$\left(\frac{dt}{dt}\right)n = 0 = -\left(\frac{\ell}{\alpha}\right)(t_d - t_{o'r})(t)_{\tau=0} = f(\alpha_1 y_1 z) \quad (4.8)$$

Harorat xohlagan nuqtada quyidagicha o'zgaradi:

$$v = \sum_{i=1}^{\infty} A_i V_i E^{-mi\tau} \quad (4.9)$$

Bunda  $V=t_0-t_{o'r}$ ;  $A_i$  – o'zgarmas kattaliklar bo'lib, u jismning tuzilishi va haroratlarning taqsimlanishiga bog'liqdir;

$V_i$  – haroratni fazoda o'zgarishini xarakterlaydigan koordinata funksiyasi;  $m_i$  – bir qator o'sib boradigan sonlarni xarakterlaydigan o'zgarmas kattaliklar; (4.8)- tenglamani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki,  $\tau$  ning kichik sonlarida ( $\tau = 0$  dan  $\tau = \tau_p$  gacha) sovitish jarayoni, sovitishning boshlang'ich shartiga bog'liq, sovitish shartiga bog'liqmasdir. Sovitishning bu oralig'i (4.8) ifodadagi faqat birinchi emas, balki qolganlari bilan ham aniqlanadi. Bu sovitish jarayonining birinchi oralig'i deyiladi.

Vaqtning oshishi bilan birinchi qatordan tashqari, qolganlari nolga intiladi.  $\tau > \tau_1$  bo'lganida boshlang'ich shartlar ikkilamchi xususiyatga ega bo'lib qoladi va jarayon jism yuzasining sovitilishi shartlariga uning fizik parametrlariga geometrik tuzilishiga, o'lchamlariga bog'liq bo'ladi. Sovitish jarayonining ikkinchi bosqichi regulyar holat bilan yoziladi:

$$V = A_1 U_1 L^{-mi} \tau \quad (4.10)$$

(4.10)ni logariflaymiz.

$$\ln V = \ln(AU) - m\tau = -m\tau + C (x_1 y_1 z) \quad (4.11)$$

(4.11) ifoda shuki ko'rsatadiki ortiqcha harorat ( $V$ ) ning natural logarifmi vaqt bo'yicha to'g'ri chiziqli bog'lanishga ega.

(4.11) ning ikkala qismni vaqt differensiallash natijasida quyidagiga ega bo'ladi:

$$m = -\frac{1}{Vdn} \frac{dV}{c^{-1}} \quad (4.12)$$

Bu ifodadan ko'rinish turibdiki, jismning istalgan nuqtadan vaqt birligida haroratni o'zgarishining nisbiy tezligi koordinataga va vaqtga bog'liq emas. M kattaligi regulyar rejimning me'yori deyiladi.

Umuman olganda m kattalik quyidagicha aniqlanadi:

$$m = \varphi A \frac{\alpha}{c}, c^{-1} \quad (4.13)$$

Bu yerda:  $\varphi$  - o'lchamsiz proporsiallik koeffitsiyenti  
 $\alpha$  – issiqlik berish koeffitsiyenti

$A$  – jism yuzasi

$C = \varphi v$  – to'liq issiqlik sig'imi

### 4.3 Yassi yuzada nobarqaror issiqlik o'tkazuvchanlik

Cheksiz yassi devorning qalinligi  $2\delta$  ( $L=d$ ) deb qilingan bo'lsin. Agar boshlang'ich hisoblovchi haroratga atrof muhitni tm ni va devorning ortiqcha haroratini, belgilansa, yani  $v = t_c - t_0$  deb belgilasak, tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{dv}{d\tau} = q \frac{d^2 v}{dx^2} \quad (4.14)$$

$x = \pm v$  bo'lganda chegara shartlaridan

$$- \frac{dv}{d\tau} = \frac{ag}{\lambda g} \quad (4.15)$$

Boshlang‘ich shartlariga ko‘ra, agar  $\tau=0$  bo‘lsa, u holda

$$v = v^1 \quad (4.16)$$

Texnik hisoblashlarda ko‘pincha yuzaning harorati  $v_g$  ni va devorning o‘rtasidagi harorat –  $v_0$  ni bilsak yetarli bo‘ladi. Shunda tenglama quyidagicha yoziladi:

$$\begin{aligned} x = 0 \text{ bo‘lganida} \quad \alpha &= 0, \\ x = \delta \text{ bo‘lganida} \quad \alpha &= 1 \text{ bo‘ladi.} \end{aligned}$$

Demak,

$$\frac{v_g}{v^1} = \phi_g (B_i, F_0) \quad (4.17)$$

yoki

$$\frac{v_g}{v^1} = \phi_0 (B_i, F_0) \quad (4.18)$$

Haroratlar taqsimlanishidan tashqari issiqlik oqimini  $Q_g$  ni topish kerak bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Nobarqaror issiqlik o‘tkazuvchanlik nima?
2. Nobarqaror issiqlik o‘tkazuvchanlikdagi kriteriyarlarni izohlab bering.
3. Regulyar rejimnimani izohlaydi?

## 5.KONVEKTIV ISSIQLIK ALMASHINUVI (ISSIQLIK BERISH)

### 5.1. Umumiy tushunchalar

Konvektiv issiqlikalmashinuvi yoki **issiqlik berish** deb, qattiq jism bilan suyuqlik yoki gazlar orasidagi issiqlik almashuvigaaytiladi. Konvektiv issiqlik almashinuvi bir vaqtning o‘zida ikki usul: konveksiya va issiqlik o‘tkazuvchanlik yo‘li bilan amalgaoshiriladi. Bunda issiqlik tarqalishi harakatlanuvchi muhitga (suyuqlik yoki gazga) uzliksiz bog‘liqdir.

Issiqlik berish jadalligi ko‘p hollarda issiqlik tashuvchining Issiqlik berish yuzasiga nisbatan harakat tezligigabog‘liq bo‘ladi. Issiqlik tashuvchining harakati erkin yoki majburiy bo‘lishi mumkin.

Erkin harakatlanish yoki **erkin konveksiya** deganda tizimdasuyuqlik yoki gazning tashqi bir xil bo‘lmagan massaviy kuchlar maydoni (gravitatsion, magnit, elektr yoki inersiya maydonlari kuchlari) ta’siridagi harakat tushuniladi.

Majburiy harakat yoki **majburiy konveksiya** tizim chegaralariga qo‘yilgan tashqi yuza kuchlari yoki tizim ichidagi suyuqlikka quyilgan massaviy kuchlarning bir xil maydoni; suyuqlikka tizimdan tashqari berilgan kinetik energiya hisobiga yuzaga keluvchi harakat hisoblanadi.

Amaliyotdasuyuqlik yoki gazzarda erkin konveksiya suyuqlikning issiq va sovuq zarrachalari zichliklari farqi tufayli sodir bo‘ladi.

Majburiy konveksiya esatashqi kuch ventilyator yoki nasos ta’sirida sodir bo‘ladi.


Suyuqlikning oqish tartibi konvektiv issiqlikalmashinuvining yuzaga kelishining asosini tashkil etadi.

1884 yilda Reynolds o‘zining tajribalari asosidasuyuqlikning harakatini **laminar** yoki **turbulent** bo‘lishini ko‘rsatib berdi.

Suyuqlikning zarrachalarining bir tekisdaaralashmagan holda yuzaga kelishigalaminar **oqim** deyiladi. Bundoqish yo‘nalishida normal bo‘yicha issiqlikning uzatilishi asosan issiqliko‘tkazuvchanlik bilan amalgaoshadi. Suyuqlikning issiqliko‘tkazuvchanligi ancha kichik bo‘lganligi sababli tezlik uncha katta bo‘lmaydi.

Oqish tezligi muayyan qiymatdan ortishi bilan harakat holati keskin o‘zgaradi, ya’ni tartibsiz harpakat yuzaga kelib, oqim butunlay aralashib ketadi. Bunday oqimturbulent **oqim** deb ataladi.

Turbulent oqimda issiqlikoqim ichida issiqliko‘tkazuvchanlik yo‘li bilan barcha zarrachalarning aralashishi bildan tarqaladi, shuning uchun ham issiqlikalmashinishi turbulent oqimida yuqoriroq bo‘ladi.



5.1 – rasm. Suyuqlikni quvur bo‘ylab harakatlanishi.

Reynolds suyuqlikning quvurdagi oq'ish tartibini o'lchamsiz qiymat bilan aniqlanishini ko'rsatdi, bu qiymat **Reynolds soni** deb ataladi. Laminar suyuqlik yoki gaz bir tekisda qatlam-qatlam bo'lib harakatlanadi ( $Re < 2300$ ), turbulent oqimda qatlamlar bir-biri bilan aralashib harakatlanadi ( $Re > 10\ 000$ ).

Suyuqlikning quvur bo'y lab harakatlanishini o'ziga xos xususiyatlari bor. Tezligi o'zgarmas bo'lgan suyuqlikni quvur bo'y lab harakatini ko'rib chiq'amiz (5.1-rasm).

Suyuqlikquvur bo'y lab oqa boshlashi bilan ishq'alanish natijasida devorlar yaqinidagi suyuqlik zarrachalari devorlarga yopishib qoladi. Natijada devorlar yaq'inida tezlik nolgacha pasayadi. Suyuqlik sarfi o'zgarmaganligi sababli tezlik quvur kesimining o'rtasida ko'payadi. Bundaquvur devorlarida gidrodinamik chegara qatlam hosil bo'ladi. Bu qatlamning qalinligi doqim bo'y lab ortadi. Tezlik ortishi bilan chegara qatlamning qalinligi kattalashadi. Suyuqlikning qovushqoqligi ortishi bilan qatlamning qalinligi ham ortadi. Bu o'z navbatidasuyuqlikdan qattiq jism sirtigaissiqlikerishni kamaytiradi.

Suyuqlikquvur bo'y lab laminar harakatda bo'lganda hosil bo'lgan chegara qatlam tufayli issiqlikalmashinishi kam bo'ladi, turbulent harakat yuzaga kelishi bilan harakatlanmay qolgan suyuqlik zarrachalarining harakat tezligi ortishi tufayli chegara qatlamning qalinligi kamayadi, natijadaissiqlikalmashishi ortadi.

Issiqlik berish jarayonini hisoblashda N'yuton-Rixman qonunidan foydalaniladi:

$$Q = \alpha (t_d - t_m) F \quad (5.1)$$

bu yerda:  $Q$  – issiqlikoqimi,  $Vt$ ;

$\alpha$  – issiqlik berish koeffitsiyenti,  $Vt/m^2K$ ;

$t_m$  – atrof-muhit harorati,  $^0C$ ,

$t_d$  – devor sirtining harorati,  $^0C$ ;

$F$  – issiqlikalmashinuv yuzasi,  $m^2$ .

Issiqlik berish koeffitsiyenti  $\alpha$  - son jihatdan 1 sekund vaqt ichida  $1\ m^2$  yuzadan muhitga yoki muhitdan  $1\ m^2$  yuzaga haroratlar farqi ( $t_d - t_m$ ) yoki ( $t_m - t_d$ )  $1^0C$  ga teng bo'lganda berilgan issiqlik miqdoriga teng, agar  $t_d > t_m$  bo'lsa,  $\Delta t = t_d - t_m$ ; agar  $t_m > t_d$  bo'lsa,  $\Delta t = t_m - t_d$  bo'ladi.

Issiqlikoqimi zichligi:

$$q = \alpha \Delta t, \quad Vt/m^2 \text{ ga teng.} \quad (5.2)$$

## 5.2. Issiqlik berish koeffitsiyentiga ta'sir etuvchi faktorlar

Turbulent harakatda esa suyuqliq qatlamlarini bir-biriga aralashishi natijasida tartibsiz holatdagi harakatidir. Buning natijasida oqimning harakatlanmasdan qolgan holati bo'lmaydi, balki hammasi bir-biri bilan aralashib harakat hosil qiladi, harakat tezligi orta boradi. Xarakat holatini o'zgarishi issiqlik beruvchanlikning intensivligiga ta'sir etadi. Laminar harakat holatida tabiiy molekulalarning harakati bir tekisda bo'ladi.

Buning natijasida suyuqlik harakatlanayotgan qattiq jism sirti yuzasida laminar qatlamlari, ya'ni harakatlanmasdan qolgan suyuqlik (gaz) molekulalarining qatlami hosil bo'ladi. Shu qatlamning qalinligi qancha katta bo'lsa, qattiq jism sirti shuncha kam bo'ladi. Turbulent harakat holatida esa shu harakatlanmasdan qolgan qatlam ning qalinligi kamayishi hisobiga qattiq jism sirtidan suyuqlikka issiqlik berish ortadi.

Issiqlik berish koeffitsiyenti –  $\alpha$  fizik parametr bo'lib, u jism o'zidan q'ancha issiqlik bera olishini ifodalaydi. Uning fizik ma'nosi: Vaqt birligida yuza birligidan muhitga berilgan issiqlik, issiqlik berish koeffitsiyentiga, haroratlar farqiga, yuzasiga to'g'ri proporsional.

Issiqlik berish koeffitsiyenti fizik parametr bo'lgani uchun ham, u juda ko'p faktorlarga bog'liq ravishda o'zgaradi:

$$\alpha = f(\lambda, c, \alpha, \gamma, \mu, \Delta t, t_{\text{q}, \text{imp}}, t_s, d, l, \rho) \quad (5.3)$$

### 5.3 Konvektiv issiqlik almashinuvining differensial tenglamalari

1. Konvektiv issiqlik almashinuvida jismning oqib chiqishi gidrodinamikasi katta rol o'ynaydi, chunki shunday holatda issiqlik berishni sodir bo'lish mexanizmi aniqlanadi. Issiqlik berilishi va o'tkazuvchanlik N'yuton – Rixman va Fur'ye qonunlari orqali yuzaga kelishi mumkin.

$$dQ = \alpha (t_d - t_e) dF, \quad (5.4)$$

yoki

$$dQ = -\lambda \left( \frac{dt}{dn} \right) dF \quad (5.5)$$

Tenglamalarning chap tomoni teng bo'igani uchun ham, o'ng tomoni ham teng bo'ladi:

$$\alpha (t_s - t_d) dF = -\lambda \left( \frac{dt}{dn} \right) dF \quad (5.6)$$

bundan:

$$\alpha = -\frac{\lambda}{\nabla t} \left( \frac{dt}{dn} \right) dF \quad (5.7)$$

(5.7) tenglama issiqlik beruvchanlik differensial tenglamasi debataladi.

Umumanolganda,

konvektiv issiqlik almasin uvinidifferensialptenglamalariturlichabo‘lib, uissiqlik beruvchanlik koeffitsiyentini fizik parameterekanligi va fizikkattaliklarga bog‘liq kanligi dan kelibchiqadi.

2.

Energiya differensial tenglamasi, buharakatlanayotgansuyuqliknistalgannuqtasidaharoratniyuzabilan vaqt orasida gio‘zgarish bog‘lanishi ifodalaydi. Issiqliko‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini, issiqliksig‘iminivazichlik orasi dagibog‘lanishi ifodalab beradi. U quyidagicha bo‘ladi:

$$\frac{dt}{d\tau} = \frac{dt}{dx} w_x + \frac{dt}{dy} w_y + \frac{dt}{dz} w_z = \frac{\lambda}{c\rho} \left( \frac{d^2 t}{dx^2} + \frac{d^2 t}{dy^2} + \frac{d^2 t}{dz^2} \right) \quad (5.8)$$

3.

Haraka differensial tenglamasi.

Butenglamatezlikning vaqt bo‘yichao‘zgarish bilan fizik parametr larorasi dagibog‘lanishi ifodalaydiva quyidagi chabo‘ladi:

$$\rho \left( \frac{dw}{d\tau} + \frac{dw}{dx} w_x + \frac{dw}{dy} w_y + \frac{dw}{dz} w_z \right) = \rho g - j^i \left( \frac{d\rho}{dx} + \frac{d\rho w_y}{dy} + \frac{d\rho w_z}{dz} \right) \quad (5.9)$$

4.

Uzluksiz differensial tenglamasi. Butenglamaz ichligi vaqt bo‘yichao‘zgarish bilan fizik parametr larorasi dagibog‘lanishi ifodalaydiva quyidagi chayoziladi:

$$\frac{d\rho}{d\tau} + \frac{d(\rho w_x)}{dx} + \frac{d(\rho w_y)}{dy} + \frac{d(\rho w_z)}{dz} = 0 \quad (5.10)$$

## 5.4 Bir o‘lchamlik shartlari

Bu differensial tenglamalar issiqlik berish jarayonini umumiy holda yoritib beradi. Konvektiv issiqlik almashinuviga konkret masalalarini yechishda differensial tenglamalar tizimiga bir o‘lchamlilik qo‘shish lozim.

Ular quyidagilardan iborat:

1. Jismning shakli va o‘lchamlarini tavsiflovchi geometrik shartlar;
2. Jismning fizik xossalalarini tavsiflovchi fizik shartlar;
3. Tekshirilayotgan jarayonni vaqt bo‘yicha o‘ziga xos ko‘rsatuvchi vaqt shartlari. Beqaror jarayonlar uchun vaqt shartlari kerak emas.
4. Chegaraviy shartlar 3 xil bo‘lib quyidagicha aniqlanadi:

Birinchi tartibli chegara shart bo'yicha issiqlik berish jarayonida qatnashayotgan jismning sirtidagi harorat qiymati belgilanadi:  $t_{q,sirt1}, t_{q,sirt2}$ . Ikkinci tartibli chegara shart bo'yicha issiqlik uzatish jarayonida qatnashayotgan jismning sirtida issiqliko'qimining zichligi berilgan:  $q_{q,sirt}$ . Uchinchi tartibli chegara shartida, suyuqlik (gaz) o'qimining harorati beriladi:  $t_{s1}, t_{s2}$ .

Shunday qilib, differensial tenglamalar tizimsi chegaraviy shartlari majmuasi bilan chegaraviy masalani matematik ifodasi bo'ladi. Bunday differensial tenglamalarni tizimini yechish, ayniqsa turbulent oqimlar uchun ancha murakkab.

1904 yili L.Prandtl gidrodinamik chegaraviy qatlami nazariyasini taklif etgan. Bu nazariyaga ko'ra, qattiq jismni yuvib o'tayotgan suyuqlik va gaz oqimini sirtida suyuqlik zarrachalarining yopishishi natijasida yupqa chegaraviy qatlam hosil bo'ladi. Ushbu qatlamdagi jism sirtida suv tezligi noldan qo'zg'atilgan o'qim tezligicha o'zgaradi. Bunday qatlam gidrodinamik chegaraviy qatlam deb ataladi.

## **5.5. O'xhashlik nazariyasi asoslari. Mezonli tenglamalar. Quvurlarda majburiy oqimdaissiqlik berish**

Konvektiv issiqlik almashinushi ko'p o'zgaruvchanlik va bir ma'nolilik differensial tenglamalar bilan izohlanadi.

Issiqlik berish koeffitsiyentinalistik hisoblash, tenglamalarni yechish juda ko'p qiyinchiliklarga olib keladi, shuning uchun issiqlik berish koeffitsiyentini o'xhashlik nazariyasiga asoslanib, tajriba yoli bilan aniqlash katta ahamiyatga ega.

O'xhashlik nazariyasi tajriba qurilmalarida olingan natijalarni boshqa shunga o'xhash hodisalarga tatbiq etish mumkinligini, yani Jarayonlarni o'xhashligini aniqlashga imkon beradi.

Geometriyada ikkita figurani o'xhash deb atash uchun ularning o'xhash tomonlari nisbati va o'xhash burchaklari teng bo'lishi shart. Masalan ikkita uchburchak olsak, ularni o'xhash deb atash uchun quyidagicha yoziladi:

$$\frac{\ell'_1}{\ell_1} + \frac{\ell'_2}{\ell_2} + \frac{\ell'_3}{\ell_3} = C \quad (5.11)$$

Bu yerda  $C$  – o'xhashlik o'zgarmas soni

Issiqlik almashinushi jarayonlarida issiqlik beruvchanlikning differensial tenglamasini ikkita tizim uchun yoziladi.

1 tizim uchun:

$$\alpha' = -\frac{\lambda'}{\Delta t'} \left( \frac{\Delta t'}{dn'} \right) n \rightarrow 0 \quad (5.12)$$

2-tizim uchun

$$\alpha'' = -\frac{\lambda''}{\Delta t'} \left( \frac{\Delta t''}{dn''} \right) n \rightarrow 0 \quad (5.13)$$

(5.12) ifodadagi o‘xshash kattaliklarni o‘zgarmas kattaliklar bilan yoziladi:

$$C_\alpha = \frac{\alpha''}{\alpha'}, C_\lambda = \frac{\lambda''}{\lambda'}, C_\Delta = \frac{\Delta t''}{\Delta t'}, C_n = \frac{n''}{n'}, C_t = \frac{dt''}{dt'} \quad (5.14)$$

(5.14) ifodalarni qisqartirish natijasida quyidagilar hosil bo‘ladi:

$$\frac{\alpha\ell}{\lambda} = i \quad (5.15)$$

Shunga asoslangan holda o‘zgarmas birlikka ega bo‘lmagan kattalik (mezon)lar kelib chiqadi.

bu yerda:  $w$  – issiqlik tashuvchining harakat tezligi, m/s;

$x$  – geometrik aniqlovchi kattalik, m;

$v$  – kinematik qovushqoqlik koeffitsiyenti,  $m^2/s$ ;

$a = \lambda/s \rho$  – harorat o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti,  $m^2/s$ ;

$g$  – erkin tushish tezlanishi,  $m/s^2$ ;

$\beta$  – hajmiy kengayish harorat koeffitsiyenti,  $\frac{1}{K^4}$ ;

$\Delta t = t_d - t_m$  – haroratlar farqi;

$\lambda$  – issiqlik tashuvchining issiqliko‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti,  $Vt/mK$ .

$\alpha$  – issiqlik berish koeffitsiyenti,  $Vt/m^2K$ ;

$s$  – issiqlik tashuvchining issiqlik sig‘imi,  $J/kgK$ ;

$\rho$  – issiqlik tashuvchining zichligi,  $kg/m^3$ .

O‘xshashlik mezoni jarayonini matematik tahlil qilish yo‘li bilan topish mumkin. Issiqlikalmashinuvi jarayonlarini o‘xshashlik mezonlari son jihatdan bir-biriga teng bo‘lishi kerak. Issiqlikalmashinuvi jarayonlarining o‘xshashliligi bir xil mezon tenglamalari bilan izohlanadi.

Konvektiv issiqlikalmashinuvining o‘xshashlik tenglamasi va mezon tenglamasi issiqlik tashuvchining turbulent harakatida (ko‘proq majburiy) quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$Nu = f(Re, Pr) \quad (5.16)$$

Issiqlik tashuvchining laminar (ko‘proq erkin) harakatida o‘xshashlilik tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$Nu = f(Gr, Pr) \quad (5.17)$$

Suyuqlikquvur bo‘ylab harakatlanganda oqimga qarshilik kuchlari ta’sirida butun quvur ko‘ndalang kesimi va uzunligi bo‘ylab suyuqlik harakati o‘zgarib boradi. Suyuqlikoqimi turbulent va laminar holatda bo‘lishi mumkin. Suyuqlikning fizik xususiyatlari o‘zgarishi tufayli laminar oqimda ( $Re \leq 2300$ ) noizotermik harakatda ikkita holat bo‘lishi mumkin – qovushqoq va gravitatsion qovushqoq.

Bunday harakatlar uchun issiqlik berish qonunlari har xil va ular har xil mezon tenglamalari orqali izohlanadi.

Laminar gravitatsion – qovushqoq holatda harakatlanayotgan issiqlik tashuvchining o‘rtaga issiqlik berish koeffitsiyentini taxminiy qiymatini quyidagi ifoda orqali hisoblash mumkin:

$$Nu_{sd} = 0,15 Re_{s,d}^{0,33} \cdot Pr_s^{0,33} (Gr_{s,d} \cdot Pr_s)^{0,1} \cdot \left(\frac{Pr_s}{Pr_o}\right)^{0,25} \cdot \varepsilon_e \quad (5.18)$$

bu yerda:  $\varepsilon_e$  – quvur uzunligi  $\ell$  ning diametri  $d$  ga nisbatini hisobga oluvchi tuzatma.

$\varepsilon_e$  ning  $\ell/d$  kattalikka bog‘liq ravishdagi qiymatlari jadvalda ko‘rsatilgan. O‘xshashlik mezonlaridagi indeks suyuqlikni yoki devorni o‘rtaga haroratlariga tegishli ekanliklarini ko‘rsatadi. ( $d$  – devor;  $s$  – suyuqlik).

Suyuqlik turbulent ( $Re \geq 10000$ ) harakatlanganda,  $\ell/d > 50$  bo‘lsa, issiqlik berish koeffitsiyentini o‘rtacha qiymat i  $\alpha$  ni quyidagi ifoda orq’ali topish mumkin.

$$Nu_{sd} = 0,02 Re_{sd}^{0,8} \cdot Pr^{0,43} \cdot \left(\frac{Pr_s}{Pr_o}\right)^{0,25} \quad (5.19)$$

$Pr_d$  – devordagi suyuqlikning o‘rtacha harorati bo‘yicha olinadi.

To‘g‘ri tekis quvurda turbulent harakat qilayotgan gazning issiqlik berish koeffitsiyentini quyidagi ifoda orqali hisoblash mumkin.

$$Nu_{s(x/d)} = 0,022 Re_{s(x/d)}^{0,8} \cdot Pr_s^{0,43} \cdot \varepsilon_o \quad (5.20)$$

Agar  $x/d \geq 15$  bo‘lsa,  $\varepsilon_e \approx 1$  va  $x/d < 15$  bo‘lsa,  $\varepsilon_d = 1,38 (x/d)^{0,12}$  ga teng bo‘ladi.

Agar quvur diametri dumaloq bo‘lmasa yoki ilonsimon shaklda bo‘lsa hisoblashda bu e’tiborga olinishi kerak.

Erkin konveksiya uchun mezonlar tenglamasi:

Gorizontal joylashgan quvurlar , agar  $10^3 < \text{Gr}_s \text{Pr}_s < 10^9$  bo‘lsa,

$$\text{Nu} = 0,5 (\text{Gr}_s \text{Pr}_s)^{0,25} \left( \frac{\text{Pr}_c}{\text{Pr}_d} \right)^{0,25} . \quad (5.21)$$

Vertikal quvurlar va yassi vertikal sirtlar laminar holatda agar  $10^3 < \text{Gr}_s \text{Pr}_s > 10^9$  bo‘lsa,

$$\text{Nu} = 0,76 (\text{Gr}_s \text{Pr}_s)^{0,25} \left( \frac{\text{Pr}_c}{\text{Pr}_d} \right)^{0,25} . \quad (5.22)$$

Vertikal quvurlar va yassi vertikal sirtlar turbulent holatda agar  $\text{Gr}_s \text{Pr}_s < 10^9$  bo‘lsa,

$$\text{Nu} = 0,15 (\text{Gr}_s \text{Pr}_s)^{0,33} \left( \frac{\text{Pr}_c}{\text{Pr}_d} \right)^{0,25} . \quad (5.23)$$

Majburiy konveksiya uchun mezonlar tenglamasi:

Gorizontal plastina atrofida turbulent harakatlanishi

$$\text{Nu} = 0,037 \text{Re}_s^{0,8} \text{Pr}_s^{0,43} \left( \frac{\text{Pr}_c}{\text{Pr}_d} \right)^{0,25} . \quad (5.24)$$

Gorizontal plastina atrofida laminar harakatlanishi

$$\text{Nu} = 0,66 \text{Re}_s^{0,5} \text{Pr}_s^{0,43} (d)^{0,25} . \quad (5.25)$$

Quvur ichida turbulent harakatlanishi

$$\text{Nu} = 0,021 \text{Re}_s^{0,8} \text{Pr}_s^{0,43} \left( \frac{\text{Pr}_c}{\text{Pr}_d} \right)^{0,25} . \quad (5.26)$$

Quvur ichida laminar harakatlanishi

$$\text{Nu} = 0,15 \text{Re}_s^{0,33} \text{Pr}_s^{0,43} \left( \frac{\text{Pr}_c}{\text{Pr}_d} \right)^{0,25} . \quad (5.27)$$

Quvurlarning ko‘ndalang oqib o‘tishida(  $10 < Re_s < 10^3$  )

$$Nu = 0,5 Re_s^{0,5} Pr_s^{0,38} \left( \frac{Pr_c}{Pr_d} \right)^{0,25}; \quad (5.28)$$

$$\text{havo uchun } Nu = 0,44 Re_s^{0,5}. \quad (5.29)$$

Quvurlarning ko‘ndalang oqib o‘tishida(  $10^3 < Re_s < 10^9$  )

$$Nu = 0,25 Re_s^{0,6} Pr_s^{0,38} \left( \frac{Pr_c}{Pr_d} \right)^{0,25}; \quad (5.30)$$

$$\text{havo uchun } Nu = 0,22 Re_s^{0,6}. \quad (5.31)$$

Koridorli joylashgan quvurlar to‘plamidan oqib o‘tishida

$$Nu = 0,23 Re_s^{0,65} Pr_s^{0,33} \left( \frac{Pr_c}{Pr_d} \right)^{0,25}. \quad (5.32)$$

Shaxmatli joylashgan quvurlar to‘plamidan oqib o‘tishida

$$Nu = 0,41 Re_s^{0,6} Pr_s^{0,33} \left( \frac{Pr_c}{Pr_d} \right)^{0,25}. \quad (5.33)$$

Bu yerda :

$$\text{Nusselt mezoni } Nu = \frac{\alpha d}{\lambda}; \quad (5.34)$$

$$\text{Reynolds mezoni } Re_s = \frac{\omega d}{\gamma}; \quad (5.35)$$

$$\text{Prandtl mezoni } Pr_s = \frac{\gamma}{a}; \quad (5.36)$$

$$\text{Grasgoff mezoni } Gr_s = \frac{g \beta \Delta t d^3}{\gamma^2}, \quad (5.37)$$

$\omega$  – tezlik , m/s ;

$g$  – erkin tushish tezlanishi ,  $m^2/s$  ;

$\gamma$  – kinematik qovushqoqlik koeffitsiyenti ,  $m^2/s$  ;

$\beta = 1/T$  – termik kengayish koeffitsiyenti

Bu tenglamalardagi ko‘paytma( $\frac{Pr_c}{Pr_d}$ )<sup>0.25</sup> havo uchun 1 ga teng deb olinadi.

## Masalalar

1. Gorizontal issiqlik almashuv apparatining diametri  $d = 400$  mm, sirtining harorati  $t_{q.s} = 200$   $^0C$  va xonadagi havoning harorati  $t_h = 30$   $^0C$  ga teng bo‘lganda vaqt birligi ichida  $1\ m^2$  gorizontal issiqlik almashuv apparati sirtidan o‘tgan issiqliknini aniqlang.

$$\text{Javob: } q = 1000 \text{ Vt / m}^2.$$

2. Balandligi 2 m bo‘lgan vertikal plitaning issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlang, agar plita sirtining harorati  $t_{q.s} = 100$   $^0C$  va atrof-muhitning harorati  $t_x = 20$   $^0C$  ga teng bo‘lsa,

$$\text{Javob : } \alpha = 7,92 \text{ Vt / m}^2 \text{ } ^0C.$$

3. Moy bakidagi MS markali moy diametri 20 mm li gorizontal quvurlar yordamida harorati bir xilda saqlanadi. Moyning harorati  $t_s = 60$   $^0C$  va quvur sirtidagi harorat  $t_{q.s} = 90$   $^0C$  bo‘lganda quvur sirtidan moyga berilgan issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlang.

$$\text{Javob : } \alpha = 96,2 \text{ Vt / m}^2 \text{ } ^0C.$$

4. Diametri 76 mm va balandligi 4 m bo‘lgan vertikal izolyatsiyalanmagan quvur havoga issiqlik beradi. Havoning harorati 20  $^0C$  va quvur sirtidagi harorat  $t_{q.s} = 80$   $^0C$  ga teng. Quvurdan chiqqan issiqliknini aniqlang.

$$\text{Javob : } Q = 413 \text{ Vt}$$

Nazorat savollari.

1. Konvektiv issiqlik almashinushi qanday jismlar orasida sodir bo‘ladi?
2. Nyuton-Rixman qonuni.
3. Issiqlik berish koeffitsiyentiga ta’sir etuvchi faktorlar.
4. Konvektiv issiqlik almashinuvining differensial tenglamalari.

## **6.Erkin harakatlanishdaissiqlik berilishi**

Erkin harakat yaxlit (hajmiy) kuchlar hisobiga yuzaga keladi. Bunday kuchlargaog‘irlik kuchi, markazdan qochirma kuch vasuyuqlikda hosil bo‘ladigan elektromagnit maydon yuqori kuchlanganligi kuchlari kiradi. Gravitatsion kuchlar ta’sirida yuzaga keladigan suyuqlikning erkin harakati juda yaxshi o‘rganilgan.

Harakat tenglamasida gravitatsion kuchlar hajm birligida keltirilgan kuch o‘lchoviga ega bo‘lgan kattalik orqali hisobgaolangan. Issiqlikalmashinuvi jarayonidasuyuqlikning harorati o‘zgaruvchandir. Buning oqibatida zichliklar farqi va uning natijasida ko‘taruvchi (tushiruvchi) kuchni beradigan gravitatsion kuchlar farqi yuzaga keladi.

Texnik masalalarda, ko‘rilayotgan muhitning bir nuqtasidan boshqa nuqtasigachaog‘irlik kuchining tezlanishi deyarli o‘zgarmaydi. O‘rganilayotgan suyuqlikdagi elektromagnit maydon yoki markazdan q’ochma effekti ta’sirida hosil bo‘ladigan hajmiy kuchlar. Vektor  $F$  ning o‘zgarishi hisobi o‘zgarishi mumkin. Agar faq’at og‘irlik kuchi hisobgaolinsa, u holda,  $F=g$ .

Bu bobda faq’at erkin gravitatsion harakatdagi Issiqlikajralishi ko‘riladi. Ba’zi hollarda, gravitatsion, konveksiya uchun olingan natijalardan boshqayaxlit kuchlar ta’sirida yuzaga keladigan erkin harakatni baholash uchun foydalaniladi. Bu holda og‘irlik kuchining tezlanishi, tezlanish yig‘indisi va yaxnit kuchga ta’sir qiladigan qo‘srimcha tezlanish (misol uchun, markazdan qancha tezlanish) ga almashtiriladi. Bu yo‘l bilan olingan natija taq’ribiy (priblijenniy) deb qaralishi kerak, chunki turli kuchlarga mos keladigan tezlanishlar maydoni, gravitatsion tebranish maydonidan farq qilishi mumkinn.

Gravitatsion kuch ta’sirida erkin harakat hosil bo‘ladi. Harakatlar turbulent va laminar bo‘lishi mumkin.

Erkin laminar harakatda vertikal devorning issiqlik berish koeffitsiyenti quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$Nu_{s,x} = 0,6(Gr_{s,x}Pr_s)^{0,25}\left(\frac{Pr_c}{Pr_o}\right)^{0,25} \quad (6.1)$$

Laminar oqimida  $t_s=\text{const}$  bo‘lganda vertikal devorning issiqlik berish koeffitsiyentiquyidagiifoda bilan hisoblanadi:

$$Nu_{s,\ell} = 0,63(Gr_{s,\ell}Pr_s)^{0,25}\left(\frac{Pr_c}{Pr_o}\right)^{0,25} \quad (6.2)$$

Suyuqlikning gorizontal quvur atrofida erkin laminar harakatlanganda o‘rtacha issiqlik berish koeffitsiyentiquyidagiifoda orqali hisoblanadi:

$$Nu_{s,d} = 0,5(Gr_{s,d}Pr_s)^{0,25}\left(\frac{Pr_c}{Pr_o}\right)^{0,25} \quad (6.3)$$

Rivojlangan turbulent harakat ( $Gr_{s,x} Pr_s$ ) bo‘lganda vertikal devor bo‘ylab erkin harakatlanishda issiqlik berish koeffitsiyentiquyidagiifoda orqali topiladi:

$$Nu_{s,x} = 0,15(Gr_{s,x}Pr_s)^{0,53}\left(\frac{Pr_c}{Pr_o}\right)^{0,25} \quad (6.4)$$

(6.1), (6.2), (6.3), (6.4) ifodalarda aniqlanuvchi harorat deb qizigan yuzadan uzoqroqdagi harorat qabul qilinadi.

(6.1) va (6.4) ifodalarda aniqlanishi kerak bo‘lgan kattalik sifatida x qabul qilingan. x – devorning boshidan boshlab issiqlik berish koeffitsiyentianiqlanuvchi maydonga bo‘lgan masofa, (6.2) ifodada ℓ - devor uzunligi, (6.3) ifodada esa d – quvurning tashqi diametri.

Agar suyuqlik hajmi katta bo‘lmasa, devor har xil kichik teshiklar bilan chegaralangan, bu chegaralangan hajm deb ataladi, bunda issiqlik berish koeffitsiyentisuyuqlikning turiga, uning harakatiga, devorlar orasidagi haroratlar farqiga, teshiklarning geometrik kattaliklarigabog‘liq bo‘ladi.

Amaliy hisobda ko‘pinchasuyuqliqqtlam idan Issiqlikoqimini topish kerak bo‘ladi. Bunday sharoitda chegaralangan hajmdagi q’o‘sh jarayonlarni Issiqliko‘tkazuvchanlikning ekvivalent jarayoniga almashtirib hisoblanadi:

$$q = (\lambda_{ekv} / \delta) (t_{o_1} - t_s) , \text{ Vt/m}^2 \quad (6.5)$$

bu yerda:  $\lambda_{ekv}$  – chegaralangan hajmda issiqliko‘tkazuvchanlik va konveksiya bilan issiqliko‘tishini hisobgaoluvchi issiqliko‘tkazuvchanlikning ekvivalent koeffitsiyenti,

$$\lambda_{ekv} = \varepsilon_k \lambda \quad (6.6)$$

bu yerda:  $\lambda$  – suyuqlikning issiqliko‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti,  $\text{Vt/mK}$ ;

$\varepsilon_k$  – issiqliko‘tishida konveksiyaning ta’sirini ifodalovchi koeffisient.

$(Cr - Pr)_d > 10^3$  bo‘lgan aniqlikda  $\varepsilon_k = 0,8$   $(Cr - Pr)_d^{0,25}$  deb qabul q’ilish mumkin.

Aniqlanuvchi harorat sifatida:

$$t_j = 0,5 (t_{o_1} - t_{o_2}) , \text{ } ^0\text{C} \quad (6.7)$$

Aniqlanuvchi kattalik qilib teshik qalinligi  $\delta_m$  qabul qilingan. Gorizontal teshik bo‘lgan sharoitda yuq’ori yuzasini harorati pastki qismidagi haroratdan yuqori bo‘ladi, suyuqlik harakat qilmaydi va  $\lambda_{ekv} = \lambda$ , konvektiv issiqlik mashinuvi qiymati nolga teng bo‘ladi.

## 6.1 Tekis yuza bo‘ylab oqish jarayonida issiqlik beruvchanlikning gidrodinamikasi


Soddalashtirish maqsadida tekis yuzasuyuqlikoqimi bilan yuvilmoqda vasuyuqlikning qattiq jismidan uzoqroqdagi tezligi va harorati doimiy va  $\omega_0$  va  $t_0$  ga teng deb qaraymiz. Oqim plastina yuzasiga parallel deb qaraymiz.

Plastina yaqinida gidrodinamik chegaraqatlami hosil bo‘ladi. Qatlam chegarasidasuyuqlikning tezligi noldan to’yingan oqim tezligigachao‘zgaradi.

Chegaraqatlamidagi oqim laminar ham, turbulent ham bo‘lishi mumkin (6.2-rasm). Ammo turbulent chegara qatlamida devorda pulsatsiya yo‘q (devor o‘tkazmaydigan va suyuqlik devorga yopishadi). Bu yerda yopishqoqlik kuchlari katta. Buning oqibatida devorda suyuqlikning juda yupqa qatlamni hosil bo‘ladi, uning oqish holati laminar va bu qatlam laminar yoki qovushqoqqatlam deb ataladi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, laminar holatdagi oqimdan turbulent xolatdagiga o‘tish bir nuqtada sodir bo‘lmay ba’zi uchastkalarda sodir bo‘ladi. Bu qismdagi oqim nostabil xarakterga ega va o‘tuvchi deb yuritiladi.

Laminar va turbulent holatlar uchun issiqlik almashinushi qonuniyatları har xil, shuning uchun ular chegarasini aniqlash katta ahamiyatga ega.




6.1- rasm. Erkin harakatda issiqlik beruvchanlik

Chegara qatamlaridagi oqim shakli haqida  $Re = \frac{\omega_0 x}{v}$  kritik kattalik bo‘yicha aniqlanadi bu yerda x plastina bo‘yi bo‘yicha uzunligi, old qirrasidan o‘lchangan. Tajriba ko‘rsatadiki, turbulent holatga o‘tish  $Re_{kp}$  ning  $1 \cdot 10^4$  dan  $4 \cdot 10^6$  gacha qiymatlarida vujudga keladi.

Laminar qatlamni buzilish va barqaror turbulent oqimiga o‘tish koordinatalari Re dan tashqari o‘tib borayotgan oqimning turbulentlik darajasi  $K_{tg}$  bog‘liq. U quyidagi nisbatdan aniqlanadi.

$$K_{mg} = \frac{\sqrt{\frac{1}{3}(\bar{\omega}_x^{1/2} + \bar{\omega}_y^{1/2} + \bar{\omega}_z^{1/2})}}{\omega_0} \quad (6.8)$$



6.2-rasm. Haroratni taqsimlanishida oqim holati o‘zgarishi

Bu yerda  $\bar{\omega}_x^{1/2}$ ,  $\bar{\omega}_y^{1/2}$ ,  $\bar{\omega}_z^{1/2}$  - uchta koordinataoqlaridagi pulsatsiyalarni tashkil etuvchilar kvadratlarini vaqt bo‘yicha o‘rtacha qiymati.

6.2 rasmda egri chiziqlar ko‘rsatilgan. Egri chiziqlardan laminar holatdan o‘tuvchi  $x_{kp1}$  holatdagi va o’tish turbulent oqimga  $x_{kp2}$  holatga o’tish koordinatalarini aniqlash mumkin. Grafikda

$$Re_{kr1} = \frac{\omega_0 x_{kr1}}{v} \quad \text{va} \quad Re_{kp2} = \frac{\omega_0 x_{kp2}}{v} \quad (6.9)$$

O‘tib boruvchi oqimning turbulentlik darajasi juda ko‘p omillarga bog‘liq. Uni hisoblash yo‘li bilan aniqlash katta qiyinchilik tug‘diradi. Shu bilan birga  $Re_{kr1}$  va  $Re_{kp2}$  qiymat lari issiqlik almashinuvining intensivligiga, jism bo‘ylab bosimning o‘zgarishiga, plastinaning old qirrasi oqimga qulayligiga, jismning vibrasiyalanishiga, suyuqlikoqiminig pul’tsatsiyasiga (tebranishiga  $\bar{\omega}$ ) bog‘liq. Ta’sir qiluvchi omillarining juda ko‘pchiligi o’tish nuqtalarini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Shuning uchun o‘tuvchi holatni hisoblashda amaliyotda ko‘pincha nuqta deb qaraladi, kritik kattaligini esa tajribalardan olinganlar bo‘yicha baholashadi.

Plastinani old qirrasi etarlicha oqimga qulayligida  $Re_{kp1} \approx Re_{kp2} \approx Re_{kp} \approx 10^5$  deb qabul qilish mumkin.

Plastina yuzasida issiqlik almashinivi mavjudligi xollarda gidrodinamik chegara qiymatidan tashqari issiqlik chegara qatlami xam hosil bo‘ladi. Issiqliqqatlami chegaralarida suyuqlik harorati plastina yuzasidagi devor harorati  $t_d$  dan,  $t_0$  plastinadan olisdagi suyuqlik harorati  $t_0$  gacha o‘zgaradi.

Chegara qatlami uchun konveksiya issiqlik almashinuvining differensial tenglamalari sezilarli soddalashtirishi mumkin. Ammo bu holatda tenglamani aniq echimi katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuning uchun hisob-kitobni taxminiy usullarga zaruriyat tug‘diradi. Gidrodinamik va issiqlik chegara qatlamlarining taxminiy hisob-kitobini chegara qatlamlarining integral tenglamalaridan foydalilanigan xolda amalga oshirish mumkin.

## **6.2 Tekis yuzada suyuqlik xakarakatlanganda issiqlik berilishi**

Plastina yuzasining harorati  $t_d$  va oqib o‘tayotgan oqimning harorati  $t_c$  har xil bo‘lib yuza bilan issiqlik tashuvchi (suyuqlik yoki gaz) bilan issiqlik almashinuvi sodir bo‘layotgani Nyuton-Rixman qonuni bilan aniqlanadi:

$$q = \alpha (t_d - t_s) \quad (6.10)$$

Issiqlik almashinish jarayonida plastina yuzasidan chegara qatlam yuzasiga keladi. Issiqlik tashuvchining harorati -  $t_d$  ning qiymatidan, suyuqlik harorati –  $t_s$  qiymatigacha o‘zgaradi.

Issiqlik chegara qatlamida haroratning taqsimlanishi dinamik chegara qatlamda oqimning oqishiga bog‘liq. Shuning uchun ham laminar chegara qatlamda dinamik qatlamning qalinligi  $\delta$  ni issiqlik qatlam qalinligi  $\Delta\delta$  nisbati Prandtl soniga bog‘liq , yani issiqlik tashuvchilarning issiqlik fizik xossasiga bog‘liqdir.

Agar suyuqlik yuza bo‘ylab laminar holatda harakatlanayotgan bo‘lsa, yani issiqlik uzatilishi qatlamlar orasida issiqliko‘tkazuvchanlik bilan yuzaga keladi. Turbulent harakat sodir bo‘lishida suyuqlikni aralashish natijasida harorat oz miqdorda o‘zgaradi va uningo‘zgarishi tekis egri chizig‘i orqali yuzaga keladi. Shunday qilib, laminar holatda ham, turbulent holatda ham, chegara qatlamda haroratningo‘zgarishi bilan tezlikningo‘zgarishi orasida o‘xshashlik mavjuddir.

Haroratlar farqi ( $t_d - t_s$ )ni ortishi harorat bilan bog‘liq bo‘lgan issiqlik tashuvchini fizik parametrlariningo‘zgarishiga olib keladigan holatni yuzaga keltiradi. Haroratlar farqi qancha yuqori bo‘lsa, qovushqoqlik, issiqliko‘tkazuvchanlik va issiqlik sig‘imlari chegara qatlamning turli nuqtalari turlicha bo‘ladi. Bunday holat issiqlik beruvchanlikning intensivligiga ta’sir etadi.

Ko‘p miqdordagi tajribalarningo‘tkazilishi natijasida issiqlik beruvchanlikni hisoblovchi tenglamalar keltirib chiqarilgan.

Laminar holat uchun:

$$Nu_s = 0,33 \cdot Re^{0,5} \cdot Pr_s^{0,33} \left( \frac{Pr_e}{Pr_d} \right)^{0,25} \quad (6.11)$$

O‘rtacha issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlash uchun :

$$Nu_s = 0,66 \cdot Re^{0,5} \cdot Pr_s^{0,33} \left( \frac{Pre}{Prd} \right)^{0,25} \quad (6.12)$$

Turbulent holat uchun:

$$Nu_s = 0,03 \cdot Re^{0,8} \cdot Pr_s^{0,43} \left( \frac{Pre}{Prd} \right)^{0,25} \quad (6.13)$$

O‘rtacha issiqlik berish koeffitsiyenti uchun :

$$Nu_s = 0,037 Re^{0,8} Pr_s^{0,43} \left( \frac{Pre}{Prd} \right)^{0,25} \quad (6.14)$$

Havo uchun bu mezonli tenglamalar quyidagi ko‘rinishga ega.

a) Laminar holat uchun:

$$Nu_s = 0,57 \cdot Re^{0,5} \quad (6.15)$$

b) Turbulent holat uchun:

$$Nu_s = 0,032 \cdot Re_s^{0,8} \quad (6.16)$$

Gidrodinamikadan ma’lumkitezlikning taqsimlanishida gidrodinamik chegara qatlaming qalinligi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi.

$$\delta = 4,64 \sqrt{\frac{yx}{\omega_0}} \quad (6.17)$$

(6.17) ifoda ko‘rsatadiki,  $\delta$  plastinaning old qirrasidagi to berilgan nuqtagacha masofalarida kvadrat ildiz ostiga proporsional o‘zgaradi.

Bu ifodaga o‘lchamsiz ko‘rinish berish mumkin.

$$\frac{\delta}{x} = \frac{4,64}{\sqrt{\omega_0 x / v}} = \frac{4,64}{\sqrt{Re_x}} \quad (6.18)$$

Issiqlikoqimi tenglamasi yechimini ko‘rib chiqamiz. Soddashtirish maqsadida haroratni qattiq jism yuzasidagi haroratdan boshlab sanab chiqamiz, yuzadagi harorat doimiy deb hisoblanadi.

Quyidagicha belgilaymiz:

$$v = t - t_c \quad \text{ba} \quad v_0 = t_0 - t_c$$

Bu yerda  $t_0$ - issiqlik chegara qatlami ichidagi suyuqlik harorati. Bunday hollarda chegara shartlari ilgari gidrodinamik chegara qatlamlari uchun qabul qilingan shartlari o‘xshash bo‘ladi.

Haqiqatdan ham  $y=0$  da  $v=0$  bo‘ladi. Bundan tashqari energiya tenglamasidan kelib chiqib agar devorga tegib turgan suyuqlikda issiqlik faqatgina issiqliko‘tkazuvchanlik bilan uzatilishi e’tiborga olinsa, u holda  $(d^2v/dy^2)_{y=0} = 0$ . Issiqlikqatlaminingtashqi chegaralarida quyidagi shartlar bajariladi.

$$v = v_0 = \text{const} \quad \text{va} \quad (dv/dy)_{y=k} = 0$$

Natijada haroratning taqsimlanishi tezlikning taqsimlanishiga o‘xshash shaklda qabul qilish mumkin.

$$\frac{v}{v_0} = 1,5\left(\frac{y}{k}\right) - 0,5\left(\frac{y}{k}\right)^3 \quad (6.19)$$

bundan shu kelib chiqadiki

$$\frac{dv}{dy} = \frac{1,5v_0}{k} - \frac{1,5v_0}{k^3}y^2 \quad \left(\frac{dv}{dy}\right)_{y=0} = \frac{1,5v_0}{k} \quad (6.20)$$

Issiqlik chegara qatlam lari chegaralarida (6.17) ni  $y=0$  dan  $y=k$  gacha integrallab Issiqlikoqimi tenglamasi integralini hisoblab topamiz. Avvaldan  $k=\delta$  deb q’abul q’ilamiz. Bunday xolatlarda  $y=0$  dan  $y=k$  gacha chegaralarda integrallash issiqlikhamda gidrodinamik qatlam chegaralarda integrallash hisoblanadi.

Agar  $\delta > k$  holatlari uchun ham integrallashni tarq’atilsa, u holda bundan Issiqlik chegara qatlam lari chegaralirida tezlikning taq’simlanishi ikki q’onuniyati bildiradi:

$y > \delta$  bo‘lganida (6.20) tenglamasiga muvofiq’ va  $\delta \leq y \leq k - \omega_x = \omega_0 = \text{const}$  shartiga muvofiq’.

Integrallashdan quyidagi kelib chiq’adi

$$\int_0^k (t_0 - t)\omega_x dy = \int_0^k (v_0 - v)\omega_x dy = v_0 \omega_0 \int_0^k \left[ 1 - 15\left(\frac{y}{k}\right) + \right.$$

$$+ 05\left(\frac{y}{k}\right)^3 \left[ 1,5\left(\frac{y}{\delta}\right) - 0,5\left(\frac{y}{\delta}\right)^3 \right] dy = v_0 \omega_0 \delta \left[ \frac{3}{20} \left(\frac{k}{\delta}\right)^2 - \frac{3}{280} \left(\frac{k}{\delta}\right)^4 \right]$$

$k < v$  bo'lganligidan  $\frac{k}{\delta} < 1$ , shuning uchun tenglamaning o'ng tarafidagi qavsdagi ikkinchi a'zo birinchiga nisbatan kichik va ular bilan e'tiborga olish mumkin.

Integralning hisoblangan qiymatini va (6.20) ga muvofiq  $(dv/dy)_{y=0}$  qiymatini kiritib quyidagini hosil q'ilamiz:

$$\frac{3}{20} v_0 \omega_0 \frac{d}{dx} (\beta^2 \delta) = \frac{3}{2} a \frac{v_0}{\beta \delta} \quad (6.21)$$

$$\frac{1}{10} \omega_0 \left( \beta^3 \delta \frac{d\delta}{dx} + 2\beta^2 \delta^2 \frac{d\beta}{dx} \right) = a$$

$$\text{bu yerda } \beta = \frac{k}{\delta}.$$

Agar nafaqat gidrodinamik qatlam, balki issiqlikqatlami ham plastinaning eng oldidan rivojlansa, ya'ni plastinaning boshlang'ich qismida isitilmaydigan hududni yo'qligi  $\frac{d\beta}{dx} = 0$  bo'lsa, u holda

$$\frac{1}{10} \omega_0 \beta^3 \delta \frac{d\delta}{dx} = a$$

(6.17) tenglamasidan quyidagi kelib chiqadi.

$$\delta \frac{d\delta}{dx} = \frac{140}{13} \frac{v}{\omega_0}$$

Bu qiymatni avvalgi tenglamaga kiritib, va  $\sqrt[3]{\frac{130}{140}} = 0,98 \approx 1$  deb taxmin qilsak  $\beta = \sqrt[3]{\frac{a}{v}}$  yoki  $\frac{k}{\delta} = \frac{1}{\sqrt[3]{P_x}}$  ni hosil qilamiz.

Xuddi shu natijani aniqroqyechimlar ham beradi.

(6.17) ga muvofiq  $\delta$  qiymatini (6.18) tenglamaga kiritib, quyidagini hosil qilamiz:  $k = \frac{4,64x}{\sqrt{Re} \sqrt[3]{P_r}}$

bu yerda

$$Re_x = \frac{\omega_0 x}{v}$$

Tomchi suyuqliklar uchun, qoida bo'yicha  $P_r > 1$  va buning natijasida  $k < \delta$ , ya'ni issiqlikoqimi tenglamasini integrallagandagi qabul qilingan shart bajariladi. Moylarda  $P_r$  ayniqsa katta qiymatga ega. Moyning past haroratlarida Prandtl' mezoni bir necha o'n minglab qiymatlarga erishishi mumkin. Gazlarda Prandtl' mezonlari taxminan 0,6 dan 1 gacha chegaralarda o'zgaradi, shunga o'xshash holatda  $P_r \approx 0,7$  haroratning katta oralig'idir. Bunday vaziyatlarda  $k < \delta$ , lekin issiqlik va gidrodinamik qatlamlari qalinligi orasidagi farq katta emas. Masalan  $P_r \approx 0,6$  bo'lganida  $k = 1,18\delta$ .

Suyuq metallar uchun  $k > \delta$ , ular uchun olingan issiqlik almashinuvi tenglamasidan foydalanamiz.

$$\alpha = \frac{\lambda}{v_0} \left( \frac{dv}{dy} \right)_{y=0} \quad (6.21)$$

Haroratningtaqsimlanish tenglamasidan  $\left( \frac{dv}{dy} \right)_{y=0} = v_0 \frac{3}{2} \frac{1}{k}$  ni hosil qilamiz.

Issiqlik almashinuvi tenglamasiga kiritgan holda quyidagini hosil qilamiz (manfiy ishorani tekshirib qoldiramiz).

$$\alpha = \frac{3}{2} \frac{\lambda}{k} \quad (6.22)$$

Bundan issiklik bervchanlik koeffitsiyenti issiqlik chegara qatlami qalinligiga teskari proporsional.

(6.22) tenglamasini o'lchamsiz ko'rishiga keltirish mumkin. Buning uchun chap va o'ng taraflarni  $x/\lambda$  ga ko'paytiramiz quyidagi hosil bo'ladi.

$$Nu_x = 033 \sqrt{Re_x} \sqrt[3]{Pr} \quad (6.23)$$

bu yerda

$$Nu_x = \frac{d_x}{\lambda}, \quad Re = \frac{\omega_0 x}{\nu} \quad \sigma_a \quad Pr = \frac{\nu}{d} \quad (6.24)$$

(6.24) tenglamasidan kelib chiqadi, issiqlik almashinuvining koeffitsiyenti  $\omega_0$  tezligining, chiziqli o'lchamlarining va  $\lambda, \nu, a$  fizikaviy parametrlarning funksiyasi hisoblanadi.

a ning  $x$  ga tobeligini quyidagicha yozish mumkin.

$$\alpha = \frac{c}{\sqrt{x}} = cx^{-0,5} \quad (6.25)$$

Proporsionallik koeffitsiyentini belgilovchi c kattaligi  $\omega_0$  texlik va  $\lambda$ ,  $v$ ,  $\alpha$  fizik kattaliklar X ga bog'liq emas.

(x) ga muvofiq  $x=0$  da issiqlik almashinuvi koefitsiyentini cheksiz katta, X ning o'sishida u oxirgi va sekin asta pasayuvchi kattalikga ega.

X ning bunday xarakterda o'zgarishini shunday holat bilan izohlanadi, bunda harorat farqi  $v_0 = t_0 - t_c$  plastina bo'ylab o'zgarmaydi, shu tomonda devordagi harorat gradiyenti X ning o'sishi bilan uzlusiz kamayadi.

(6.25) ifodasi keyingi shartlar qanoatlantirgandagina hosil plastina yuzasidagi harorat doimiy, suyuqlikning fizik parametrlari haroratga bog'liq emas va plastina boshida isitilmaydigan holat yo'q.

Amaliyot va nazariyaning ko'rsatishicha, bu omillarni hisobga olmaslik sezilarli xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Issiqlik almashinuvi plastinaning uzunligi bo'yicha yuzasidagi haroratningo'zgarishiga bog'liqligi. Plastina uzunligi bo'yicha  $t_c$  ni o'zgarishi issiqlik almashinuvida sezilarli ta'sir etishi mumkin. Devor haroratiningo'zgaruvchanligi natijasida issiqlik chegara qatlamidagi haroratning taqsimlanishi o'zgaradi, uning qalinligi va jism yuzasidagi suyuqlikda harorat gradiyentining qiymati o'zgaradi.

Plastinaning aniq joyidagi issiqlik almashinuvining koeffitsiyent avvalgi hududdan chegara qatlamining rivojlanishiga, hamda bu hududdagi devor haroratiningo'zgarishiga bog'liqdir. Bu effekt suyuqlikning fizikaviy parametrlariningo'zgaruvchanligi bilan qiyinlashadi.

$Nu_{x(m=0)}$  kattaligini (6.26) ifodasidan aniqlash mumkin. (6.26) nisbatini e'tiborga olgan holda plastina yuzasidagi harorato'zgaruvchan bo'lganida va chegara qatlamining laminarligida issiqlik almashinuvining mahalliy koeffitsiyentini hisoblash uchun quyidagi tenglamadan foydalanish mumkin.

$$Nu_{sx} = 033\varepsilon Re_{sx}^{0,5} Pr_s^{0,33} (Pr_s/Pr_s)^{0,25} \quad (6.26)$$

## Masalalar

1. Kvadrat kesimli kanalning eni  $a=10$  mm va uzunligi  $l= 1600$  mm ga teng. Kanaldan, suv  $w=4$  m/c tezlikda oqib o'tadi. Suvning harorati  $t_s= 40^{\circ}\text{C}$  va kanalning ichki sirtidagi harorat  $t_{q.s.}= 90^{\circ}\text{C}$  bo'lganda kanal devoridan suvg'a issiqlik berish koeffitsiyenti va issiqlik oqimini aniqlang.

Javob:  $\alpha = 20300 \text{ Vm/m}^2\text{C}$ ,  $Q=50994 \text{ Vt}$ .

2. Uzunligi  $l=2\text{m}$  va eni  $a=1,5\text{m}$  gorizontal plastinadan havo oqimi o‘tadi. Havo oqimining tezligi  $w=3\text{m/s}$ , harorati  $20^\circ\text{C}$  va plastina sirtidagi harorat  $90^\circ\text{C}$  ga teng. Plastinadan havoga issiqlik berish koeffitsiyentini va issiqlik miqdorini aniqlang.

Javob:  $\alpha=4,87 \frac{\text{Bt}}{\text{m}^2 \text{ }^\circ\text{C}}$ ,  $Q = 2050 \text{ Vt}$

3. Ichki diametri  $d=50 \text{ mm}$  bo‘lgan quvurdan suv  $W=0,8 \text{ m/s}$  tezlikda oqib o‘tadi. Suvning harorati  $t_s=50^\circ\text{C}$ , quvur sirtidagi harorati  $t_{q,s}=65^\circ\text{C}$  bo‘lganda  $1 \text{ m}$  quvur sirtidan o‘tgan issiqliknini aniqlang.

Javob:  $q_\ell = 9,03 \text{ kVt/m.}$

4. Tashqidiametrid=15 mmbo‘lgansuvkolorimetrinihavooqimiko‘ndalangigaoqibo‘tadi. Havo kolorimetr o‘qiga  $90^\circ$  burchak ostida  $2 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanadi. Havoning harorati  $20^\circ\text{C}$  va kolorimetr tashqi sirtining harorati  $t_{q,s}=80^\circ\text{C}$  ga teng. Issiqlik berish koeffitsiyenti va birlik uzunlikdagi issiqlik oqimini aniqlang.

Javob:  $\alpha=36,3 \text{ Vt}/2\text{m}^2 \text{ }^\circ\text{C}$ ,  $q_\ell = 102 \text{ Vt/m.}$

Nazorat savollari.

1. Erkin harakatlanishda issiqlik berilishi qanday sodir bo‘ladi?
2. Tekis yuzada suyuqlikhakarakatlanganda issiqlik beruvchanlik qanday sodir bo‘ladi?
3. Plastina yuzasida oqishning gidrodinamikasi.

## 7. Quvurlarda suyuqlikning majburiy oqimida issiqlik beruvchfnlik.

### 7.1. Suyuqlikquvur bo‘ylab harakatlanganda issiqlik almashuvi

Hozirgi kunda suyuqlikning turbulent oqimi holatida issiqlik tarqalishining nazariy o‘rganishni rivojlantirish, issiqlik almashinuvining gidrodinamik nazariyasi asosida amalga oshirilmoqda.

Issiqlik almashinuvining gidrodinamik nazariyasi O. Reynoldsning mexanik energaiya va issiqlikning konvektiv ko‘chish birligi g‘oyasiga asoslanadi.

Bu talqin, issiqlik berish qobiliyati va ishqalanish qarshiligi orasidagi bog‘lanishni aniqlashga imkoniyat beradi.

Gidrodinamik tajriba yoki qarshiliklarni hisoblashga asoslangan holda issiqlik almashinuvini hisoblash ifodalarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Turbulent issiqlik almashinuv mexanizmi mohiyatini ochishda gidrodinamik nazariya yetarli yaxshi natija beradi.

Turbulent chegaraviy qatda, jism sirtida yupqa laminar oqayotgan suyuqlik qatida-yopishqoq yoki laminar qatcha bo‘ladi. Bu qatchada "y" -o‘qi bo‘yicha yo‘nalgan jism sirtiga normal yo‘nalishda tezlikning sezilarli o‘zgarishi ro‘y beradi. Harorat ham asosan shu laminar qatcha soxasida o‘zgaradi.

Issiqlikning issiqliko‘tkazuvchanlik orqali oqim bo‘yicha uzatilishi kam, shuning uchun uni e’tiborga olmasa ham bo‘ladi.

Shunday qilib, devor sirtiga parallel laminar qatlamning ixtiyoriy tekisligidagi urinma kuchlanish va issiqlikoqimining zichligiquyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$q = \mu \frac{d\omega_x}{dy} \quad \text{va} \quad q = \lambda \frac{dt}{dy} \quad (7.1)$$


Bunda issiqlik laminar o‘tayotgan oqimga ko‘ndalang holda faqatgina issiqliko‘tkazuvchanlik orqali uzatiladi.

Turbulent tebranish sababli uzlusiz suyuqlik zarralari o‘tadi. Sirt birligidan vaqt birligida pastdan yuqoriga o‘tayotgan  $\omega_x$  tezlik va t haroratga ega bo‘lgan suyuklik miqdori. Bu miqdordagi suyuqlik tekislikdan o‘tadi. Turg‘un holatda shu miqdordagi suyuqlik tekislikdan o‘tishi kerak, bunda tezlik  $\omega_x$  ga va harorat  $t_x$  ga teng bo‘ladi. Pastdan yuqoriga harakatlanayotgan suyuqlikzarralari o‘zi bilan birga  $\omega_t$  ga teng va pastga harakatlanayotgan zarralari esa  $\omega_T$  ga teng issiqliknini olib o‘tadi.

Agar  $t' > t$  bo‘lsa, nazorat sirti birligidan vaqt birligiga turbulent almashuv orqali o‘tgan issiqlik miqdori quyidagi foda bilan aniqlanadi.

Harakatlanayotgan suyuqlik zarralari ma’lum tezlikga ega ekanligi uchun issiqlikbilan bir qatorda kinetik energiya ham olib o‘tadi. Agarda  $\omega'_x > \omega_x$  bo‘lsa, u holda pastdagagi suyuqlikzarralari yuqoridagilaridan tezlanish oladi va teskarisi yani yuqoridagi suyuqlik zarrachalari tezligi kamayadi.

Turbulent almashunuvi sababli harakat miqdorlarining o‘zgarishi suyuqlik zarralarining  $w_x$  va  $w_z$  tezliklari orasidagi farq kamayadi. Shunday qilib suyuqliklarning turbulent almashunuvi, fizik ahamiati butunlay boshqachaligiga qaramasdan, laminar oqimdagи molekulalarning urunma kuchlanishi kabi amal qiladi.



7.1- rasm. Suyuqlik harakatlanishida tezlikningo‘zgarishi.

Turbulent almashinuv sababli  $A - A$  tekisligida hosil bo‘ladigan urunma kuchlanishi. Bu kuchlanishni harakat miqdori qonuni yordamida aniqlash mumkin. Buni ko‘rilayotgan holatga qo‘llanilganda u quyidagi ko‘rinishni oladi.

Turbulent chegaraviy qatlama issiqlik uzatish koeffitsiyentlari quyidagi tenglama orqali aniqlanadi.

$$Nu_{s,x} = 0,0296 Re_{s,e}^{0,8} Pr_s^{0,43} (\Pr_s/\Pr_e)^{0,25} \quad (7.2)$$

O‘rtacha miqdorlari esa quyidagi tenglama orqali topiladi:

$$Nu_{s,x} = 0,037 Re_{s,e}^{0,8} Pr_s^{0,43} (\Pr_s/\Pr_e)^{0,25} \quad (7.3)$$

Aniqlovchi  $t_0$  harorat uchun jismdan uzoqdagi suyuqlik harorati qabul qilingan ( $t_0$  orqali tenglamadagi  $\Pr_s$  dan tashqari).


O‘lchamni aniqlovchi sifatida issiqlikmashuv boshlanadigan nuqtadan hisoblanadigan  $X$  – koordinatasi [(7.2) ifodadagi] yoki 1 – plastina uzunligi [(7.3) ifodadan] olinadi.

## 7.2. Quvurlar to‘plamida issiqlik beruvchanlik

Issiqlik almashinuv qurilmalari kamdan – kam holatlarda ko‘ndalang yuviladigan bitta quvurdan tashkil topadi, chunki bunda issiqlik almashinuv

yuzasi katta bo‘lmaydi. Odatda quvurlar bog‘lam qilib yig‘iladi. Texnikada ko‘proq quvur bog‘lamlarining ikkita asosiy turi uchraydi: shaxmatli va koridorli (7.2 – rasm).

Bog‘lam xarakteristikalari, ko‘ndalang qadam  $s_1$  (suyuqlikoqimi ko‘ndalang yo‘nalishi quvurlar o‘qlari orasidagi masofa) va bo‘ylama qator  $s_2$  (suyuqlikning oqimi yo‘nalishiga ketma – ket joylashgan ikki qator quvurlarning o‘qlari orasidagi masofa).  $s_1$  va  $s_2$  dan tashqari bog‘lamlar quvurlarning tashqi diametr iva suyuqlik yo‘lidagi quvur qatorlarning soni bilan ham xarakterlanadi (7.2– rasmda) har – bir bog‘lamda beshtadan qator.



7.2 – rasm. Koridorli (a) va shaxmatli (b) bog‘lamlarda trubalarning joylashish sxemasi

Muayyan bog‘lam uchun quvurlar diametri d hamdas  $s_1$  va  $s_2$  qadamlar odatdasuyuqlikoqimi bo‘yicha ko‘ndalang ham, bo‘ylama ham o‘zgarmaydigan kattaliklardir.

Bog‘lamdagi suyuqlikoqimi yetarlicha murakkab xarakterga ega. Chunki bog‘lamning yonma – yon turgan quvurlari bir – biriga ta’sir o’tkazadi, yakkajoylashgan quvurning yuvilishidan farq qiladi. Odatda, quvurlar bog‘lami qandaydir kanalga joylashtiriladi. Shuning uchun bog‘lamdagioqim kanaldagi oqim bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Suyuqlikoqishinig ikkita asosiy tartibi ma’lum: laminar va turbulent. Ushbu holatlar suyuqlik bog‘lamda harakatlanganda ham mavjud bo‘lishi mumkin. Suyuqlikoqimining shakli ko‘proq bog‘lamdan oldingi kanaldagi oqimning tabiatini (xarakteri)ga bog‘liq. Agar berilgan sarf va haroratlarda bog‘lam o‘rnatilgan kanaldagi oqim bog‘lam yo‘qligida turbulent bo‘lsa, u bog‘lamga

ham albatta turbulent bo‘ladi, chunki bog‘lam a’lo darajadagi turbulizator hisoblanadi. Ammo, agar bog‘lam o‘rnatalishiga qadar laminar tartibli oqimga ega bo‘lgan kanalga joylashtirilgan bo‘lsa, buholda Re sonigabog‘liq holda u yoki bu shakldagi oqimga ega bo‘lish mumkin. Re qancha kichik bo‘lsa, laminar oqim shuncha barqaror bo‘ladi, qancha katta bo‘lsa – oqimni turbulent holatgao‘tkazish shunchaengil kechadi. Re ning kichik qiymatlarida oqim laminar bo‘lib qolishi mumkin. Bunda trubalararo tirkishlar alohidao‘zgaruvchan kesimli yoriqsimon kanallar hosil qilgandek bo‘ladi (quvurlar orasidagi masofa juda katta bo‘lgandagi holat bundan mustasno).

Quyidagi ifoda kelib chiqadi:

$$Nu_{s,d} = c \text{Rec} Re_{s,d}^n Pr_s^{0,33} (\Pr_s/\Pr_s)^{0,25} \varepsilon_i \varepsilon_s \quad (7.4)$$

Bunda, shaxmatli bog‘lamlar uchun  $s = 0,41$  va  $n = 0,60$  va koridorli bog‘lamlar uchun  $s = 0,26$ ,  $n = 0,65$ . Bu (4) ifodada quvurlar bog‘laming tashqi diametri asosiy o‘lchov hisoblanadi.  $Re_{cd}$  mezonigasuyuqlikning tezligi bog‘lamning eng ingichka ko‘ndalang kesimli joyidan hisoblanadi. Suyuqlikning o‘rtacha harorati asosiy harorat hisoblanadi (devor harorati bo‘yicha tanlanadigan  $Re_c$  bundan mustasno).

### Nazorat savollari.

1. Konvektiv issiqlik mashinuvi haqida tushuncha bering.
  2. Nima uchun o‘xshashlik nazariyasi kiritilgan?
  3. Issiqlik berish koeffitsiyenti nimalargabog‘liq?
  4. Quvurlarda issiqlik berish qanday sodir bo‘ladi?
  5. Erkin harakatlanishda issiqlik berilishi qanday sodir bo‘ladi?
  6. Majburiy harakatlanishda issiqlik berilishi qanday sodir bo‘ladi?
  7. Nusselt mezoni nimani ifodalaydi?
  8. Laminar va turbulent oqim nima?
- 8. Quvur va quvurlar bog‘laming ko‘ndalang oqib o‘tishida issiqlik almashinuvi.**

#### 8.1. Quvurning ko‘ndalang oqib o‘tishidagi issiqlik almashinuvi.

Suyuqlik quvurning ko‘ndalang oqib o‘tishidajuda ko‘p qulayliklarga ega. Bu esa oqib o‘tayotgan oqimninig harakatini quvur yuzasiga yaqinligiga bog‘liqdir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki quvur atrofida tekis harakatning sodir

bo‘lishi Reynolds sonining kichik qiymatida sodir bo‘ladi, ya’ni  $Re < 5$  (8.1,a-rasm).

Tabiiy konveksiyaning qurvurining turli holatlarida uning qizishiga va sovutishiga ta’sirini hisobotga olish mukammal masala hisoblanadi.

Yopishqoq gravitatsion rejimning ba’zi xususiy hollari uchun tajriba natijalari umumlashtirib olingan M.A.Mixeyev yopishqoq gravitatsion rejimda issiqlik uzatishning o‘rtacha koeffitsiyentini yaqinlashtirilgan hisobini quyidagi formula yordamida bajarish tavsiya etadi.

$$Nu_s = 0.1 Re_s^{0.33} \quad (8.1)$$

Bu yerda aniqlovchi sifatida quvurdagi suyuqlikning harorati olingan. Aniqlovchi o‘lchov sifatida quvurning ichki diametrik olingan.

## **8.2. Quvurlar bog‘laming ko‘ndalang yuvilishida issiqlik almashinuvi**

Hozirgi paytda dumaloq quvurlardagi issiqlik almashinuvi yaxshi o‘rganib chiqilgan ko‘ndalang kesimi dumaloq bo‘lmagan quvurlardagi issiqlik almashinuvining hisob-kitob qilinishi natijasida diametri quyidagiga teng:

$$d_{ekv} = \frac{4V}{F} = \frac{4f}{P} \quad (8.2)$$

Bu yerda:

$f$ -quvurning ko‘ndalang kesim yuzasi.

$P$ -ko‘ndalang kesimda qo‘llanadigan perimetri

$V$  - quvur ichidagi suyuqlik hajmi.

Tenglamasi asosidan aniqlanadigan kesimi dumaloq bo‘lgan ekvivalentquvuridagi issiqlik almashinuvining hisob-kitobi keltiriladi. Dumaloq quvurlar uchun  $d_{Ek} = d$ .

$d_{Ek}$  yordamida issiqlik almashinuvini hisoblash uslubi taxminiy hisoblanadi. Bu uslubni qollashdagi aniq chegaralari hali aniqlanmagan.

Ayrim sinab olingan natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda bunday taxminiy hisob-kitoblarni qoniqarli deb hisoblash mumkin. M.A.Mixeyevning tavsiyasiga binoan to‘rtburchak (tomonlarning nisbati  $a/b=1/40$ ) va uchburchak shaklidagi kanal hamda suyuqlik quvur bog‘larini ko‘ndalang oqib o‘tgandagi issiqlik almashinuvini ekvivalent diametr yordamida hisoblash mumkin.

Quvurlarning ko‘ndalang oqib o‘tishida issiqlik beruvchanlikni kuzatilganda o‘zining bir necha xususiyatlari mavjuddir, bu esa oqim gidrodinamikasi bilan tushuntiriladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, bir tekis uzilmas oqimning hosil bo‘lishi oqim tezligining kichik qiymatlarida yuzaga

keladi, bu esa oqim harakatining laminar holatiga mos keladi. Tezlikning ortib borishi harakat holatiningo‘zgarishiga, ya’ni turbulent holatning yuzaga kelishiga olib keladi.

Yakka quvurlarda egilgan quvurlarda harakatning sodir bo‘lishida quvurning old qismida oqim molekulalari to‘plamining yuzaga kelishi issiqlik almashinuvini kamaytiradi, shuning uchun ham oqimning harakat tezligini oshirish zarur bo‘ladi.

Suyuqlik harakatida va havo harakatida issiqlik beruvchanlikni aniqlashda mezonli tenglamalardan foydalaniladi.

Suyuqlik harakatlanganda quyidagi ifodadan Nu mezoni aniqlanadi.

$$Re_s < 10^3 \text{ bo‘lganda}$$

$$\bar{N}u_{s,d} = 0.56 Re_s^{0.5} Pr_s^{0.35} \left( \frac{Pr_c}{Pr_g} \right)^{0.25} \quad (8.3)$$

$$Re < 10^3$$

$$\bar{N}u_{s,d} = 0.28 Re_s^{0.6} Pr_s^{0.38} \left( \frac{Pr_c}{Pr_g} \right)^{0.25} \quad (8.4)$$

Havo uchun quyidagi ifodalardan foydalaniladi:

$$Re < 10^3$$

$$\bar{N}u_{s,d} = 0.49 Re_{s,d}^{0.56} \quad (8.5)$$

$$Re > 10^3$$

$$\bar{N}u_{s,d} = 0.24 Re_{s,d}^{0.6} \quad (8.6)$$

Quvurlar to‘plami ikki xil joylashgani uchun ulardagи oqimning harakat holati ikki xil tarzda bo‘ladi:

Koridor shaklida joylashgan quvurlar to‘plamida quvurning birinchi qatorida harakat holatining tezligi kichik bo‘lgani uchun quvurning I qatorida to‘lqin uchragani uchun oqim molekulalarini to‘planib qolish holatlari yuzaga keladi. II va III qatorlariga o‘tishi jarayonida oqim o‘zining yo‘lini topib olgani uchun ham, oqimning to‘planib qolish holatlari kamayib boradi va natijada III qatordan keyin, oqimdan quvurga yoki quvurdan oqimga issiqlik berish ko‘payadi. Natijada issiqlik berish ortadi.

Koridor shaklida joylashgan quvurlar to‘plamining I qatorida 60%, II qatorida 90 % issiqlik berilsa, III qatorida esa 100% issiqlikberiladi.

Tajriba natijalarini umumlashtirganda o‘rtacha issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlash uchun quyidagi ifodalardan foydalaniлади.

Koridorshaklidagi quvurlar uchun:

$$1) Re_s < 3 \cdot 10^3 \text{ bo'lganda}$$

$$\bar{N}u_{s,d} = 0.56 Re_s^{0.5} Pr_s^{0.33} \left( \frac{Pr_s}{Pr_g} \right)^{0.25} \quad (8.7)$$

$$2) Re > 3 \cdot 10^3 \text{ bo'lganda}$$

$$\bar{N}u_{s,d} = 0.22 Re_s^{0.65} Pr_s^{0.33} \left( \frac{Pr_s}{Pr_g} \right)^{0.25} \quad (8.8)$$

Shaxmat shaklida joylashgan quvurlar to‘plamida issiqlik berish koridor shaklidagiga qaraganda yuqoriq bo‘ladi, buning asosiy sababi, oqim hech qanday to‘sinqqa uchramay, bemalol I, II, III qatorlarda harakat qiladi.

Bunday quvurlarto‘plamiuchun issiqlikberish, koeffitsiyentini aniqlash quyidagi ifodalardan foydalaniqlanadi:

$$3) Re_c < 3 \cdot 10^3 \text{ bo'lganda}$$

$$\bar{N}u_{s,d} = 0.56 Re_{s,d}^{0.5} Pr_s^{0.33} \left( \frac{Pr_s}{Pr_g} \right)^{0.25}$$

$$4) Re > 3 \cdot 10^3 \text{ bo'lganda}$$

$$\bar{N}u_{s,d} = 0.40 Re_{s,d}^{0.6} Pr_s^{0.33} \left( \frac{Pr_s}{Pr_g} \right)^{0.25}$$

### **8.3.G‘adir-budur quvurlardagi issiqlik almashinuv**

G‘adir-budur quvurlardagi issiqlikning turbulent oqimi hollarida sezilarli gidrodinamik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlar g‘adir-budurliklarning balandligi  $\delta$  va laminar qatlamning qalinligiga bog‘liqdir. Hodisani soddalashtirgan holda, ikkita asosiy holatni ko‘rib chiqish mumkin: g‘adir-

budurliklar laminar qatlamga chuqur kirib borgan  $\delta < \delta_{L_q}$  va g‘adir-budurliklar laminar qatlam chegarasidan chiqib ketgan( $\delta > \delta_{L_q}$  ).

Birinchi holatda g‘adir-budurliklar qatlamdagi laminar oqimga ta’sir etmaydi, oqim uzulmagan va bo‘ronchalar hosil qilmagan holda oqadi. Bunda g‘adir-budir va silliq quvurlar orasida hech qanday farq yo‘q. G‘adir-budurliklardagi bunday oqimning ishonchliligi **Re** soni va nisbiy g‘adir-budurlikning  $\delta/d$  ( $d$  quvur diametrik) kamaygan sari oshib boradi, chunki **Re** soni kamayishi bilan qatlam qalinligi oshadi. Nisbiy g‘adir-budurlik tushunchasi esa sof gidrodinamik ma’noga ega bo‘lib qoladi.

#### **8.4. Yaxlit dumaloq quvurning ko‘ndalang oqib o‘tishidagi issiqlik almashinuvi**

Quvurning suyuqlik oqimi bilan ko‘ndalang ravishda oqib o‘tishi bir qator, xususiyatlarga ega. Rasmida ko‘rsatilganidek, suyuqlik silindr dan uzilmay, uni astalik bilan oqib o‘tish faqatgina taxminan  $Re = \frac{\omega_0 d}{\gamma} < 5$ , ( $\omega_0$  – oqim tezligi, d – tashqi diametr) o‘rin olgan.  $Re > 5$  hollarida silindr ko‘ndalang oqim uchun noqulay jism hisoblanadi. Quvurning oldingi yarmida hosil bo‘ladigan chegaraviy qatlam quvurning yon qismidan uzilgan holda silindr orqasida ikkita simmetrik bo‘roncha hosil qiladi. Reynolds soni oshgan sari bo‘ronchalar silindr dan borgan sari cho‘zilaveradi.  $Re \geq 10^3$  holda bo‘ronchalar dam-badam quvurdan ajralib suyuqlik oqimi bilan olib ketiladi, bunda quvur orqasida bo‘ronchalar yo‘lakchasi hosil bo‘ladi. Chegaraviy qatlamning uzilishi oqim bo‘ylab bosimning ortishi va qattiq devor suyuqlikning tormozlashi hisobiga sodir bo‘ladi. Silindrning old qismini oqib o‘tganda oqim kesimi kichiklashadi, suyuqlikning tezligi esa ko‘payadi, chunki bu yerda statik bosim kamayadi.

Quyushqoqlik kuchlarining ta’siri natijasida tezlik, va shu tariqa, silindr sirti yaqinidagi suyuqlikning kinetik energiyasi kam bo‘ladi. Oqim bo‘ylab bosimning ortishi suyuqliklarning tormozlanishiga va keyinchalik qarshi harakatga olib keladi. Qarshi oqim chegaraviy qatlamni jism sirtidan siqib chiqarishga majbur etadi, oqimning uzulishi va bo‘ronchalarning paydo bo‘lishi kuzatiladi (rasm)

Oqimning uzilishi va bo‘ronchalarning paydo bo‘lishi quvurlarni ko‘ndalavg oqib o‘tish jarayonining asosiy xususiyati.

Quvur sirtidan chegaraviy qatlamning uzilish joyi bu joyning oldidagi oqim laminar yoki turbulentligiga bog‘liq. Nisbatan ko‘p bo‘lmagan **Re** sonida va silidrga oqib kelayotgan oqimning turbulentlik darajasi kichik bo‘lganda laminar chegaraviy qatlamning uzilishi kuzatiladi. Bu  $\varphi = 82 \div 84^\circ$  da sodir bo‘ladi ( $\varphi$  burchagi quvurning pesh qismidan olnadi). **Re** soni oshganda chegaraviy

qatlamning kinetik energiyasi ko‘payadi. Bosimning ortishi hisobiga oqimning tormozlanishi qatlamning uzilishiga emas, qatlamdagi harakatning turbulent shakliga olib keladi. Chegaraviy turbulent qatlam katta kinetik energiyaga ega, chunki turbulent pulsatsiya hisobiga energiya tashqi oqimdan qatlamga o‘tadi. Buning natijasida uzilish joyi oqim bo‘yicha pastga tushadi. Chegaraviy turbulent qatlam  $\varphi = 120 \div 140^\circ$  da uziladi. Uzilish joyining surilishi silindr orqasidagi bo‘ronchalar zonasining kichiklashishiga olib keladi (rasm 2) silindrning oqib o‘tilishi yaxshilanadi.

### **Masalalar.**

1. Plastinaning suyuqlik yuvishida  $x=1$  nuqtada  $t_s = 30^\circ\text{C}$  va tezlik  $w=5 \text{ m/c}$ . Dinamik va issiqlik chegara qatlami qalinligi va issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlang.  $t=20^\circ\text{C}$  da havo uchun  $v=15,06 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2/\text{s}$ ;  $\lambda=0,0259 \text{ Vt/m}\cdot\text{K}$ ,  $\text{Pr}=0,7$ .

$$\delta = \frac{\omega \ell}{\sqrt{\text{Re}}}; \delta_r = \frac{\delta}{\sqrt[3]{\text{Pr}}}; \text{ Nu} = 0,332 \sqrt{\text{Re}} \sqrt[3]{\text{Pr}}$$

Javob:  $\delta=8,7 \text{ mm}$ ;  $\delta_{ch,q}=9,8 \text{ mm}$ ;  $\alpha=4,4 \text{ Vt/m}^2 \text{ K}$

2.

Tutungazlaribug‘qozoniekonomayzeriquvurlarto‘plaminiko‘ndalangyuvibo‘tad i. Ekonomayzer diametri  $d=32 \text{ mm}$ , qalinligi  $\delta=6 \text{ mm}$ , qadamlari  $s_1/d=2,4$ ,  $s_2/d=1,8 \text{ mm}$  bo‘lgan shaxmatli joylashgan quvurlar to‘plamidan iborat. Tutun gazlarining tezligi  $w=14 \text{ m/s}$ . Quvurga kirishdagi harorat  $t_{s1}=520^\circ\text{C}$  va chiqishdagi  $t_{s2}=380^\circ\text{C}$ .  $t=450^\circ\text{C}$  da havo uchun  $v=68,3 \cdot 10^{-6} \text{ m}^2/\text{s}$ ;  $\lambda=6,13 \cdot 10^{-2} \text{ Vt/m}\cdot\text{K}$ ,  $\text{Pr}=0,63$ .

$$\text{Nu} = 0,35 ((s_1/d)/(s_2/d))^{0,2} \text{ Re}^{0,6} \text{ Pr}^{0,36}$$

Javob:  $\alpha=117 \text{ Vt/m}^2 \text{ K}$ .

### **Nazorat savollari.**

1. Quvurning ko‘ndalang oqib o‘tishidagi issiqlik almashinushi qanday sodir bo‘ladi?

2. G‘adir-budur quvurlardagi issiqlik almashinushi qanday sodir bo‘ladi?

3. Yaxlit dumaloq quvurni ko‘ndalang oqib o‘tishidagi issiqlik almashinushi qanday sodir bo‘ladi?

## **9.Suyuqlikerkin harakatlanganda issiqlikberilishi.**


### **9.1. Suyuqlik katta hajmda erkin harakatlanganda issiqlikberilishi.**

Ushbu paragrafda qattiq jismning (vertikal,gorizontal silindr) eng oddiy geometrik shaklli yuzasi uchun erkin gravitatsion oqim ko‘rib chiqiladi.

Suyuqlik hajmi shunchalik kattaki, shu hajmda joylashgan boshqa jismlarda yuzaga keladigan erkin harakat ko‘rilayotgan oqimga ta’sir ko‘rsatmaydi deb taxmin qilanadi. Majburiy konveksiyadagi singari suyuqlikning erkin harakati laminar ham turbulent ham bo‘lishi mumkin.

Vertikal plastina bo‘ylab erkin laminar harakatda issiqlik ajralishiyuzasiningharoratio‘zgarmas  $t_c$  bo‘lgan vertikal plastina suyuqlik yoki gazda joylashgan bo‘lsin. Plastinadan uzoqda suyuqlik harakatsiz (majburiy oqim yo‘q) plastinadan uzoqdagi suyuqlikning harorati bir xil va  $t_c$  ga teng. Hisoblanishni oddiylashtirish uchun  $t_c > t_a$  deb qabul qilamiz (biroq olingan natijalar haroratlarning teskari o‘zaro nisbatan uchun ham to‘g‘ri bo‘ladi).

Bunda plastinada suyuqlikni q‘izigan qatlaming ko‘tarma harakati paydo bo‘ladi. Platinadan uzoqda esa tezlik avvalgidek nolga teng.



9.1-rasm.X va Yo‘qiningplastina yuzasigajoylashishi.

Koordinatalar boshini platinaning pastki chekkasiga joylashtiramiz; X o‘qini plastina bo‘ylab yo‘naltiramiz, Y o‘qini esa plastina yuzasiga normal joylashtiramiz


Plastina Z o‘qi bo‘yicha cheksiz deb faraz qilamiz. Jarayon stasionar. Masala yechimini osonlashtirish uchun quyidagilarni qabul qilamiz:

- 1) Inersiya kuchlari og‘irlilik va yopishqoqlik kuchlari bilan solishtirganda juda ham kam;
- 2) Issiqlikning konventiv ko‘chirishni hamda harakatlanayotgan suyuqliqatlami bo‘ylab issiqliko‘tkazuvchanlikni hisobga olmaslik mumkin;
- 3) Bosim gradiyenti nolga teng;
- 4) Suyuqlikning fizik parametrlari (zichlikni hisobga olmasdan) o‘zgarmas; Zichlik haroratning chiziqli funksiyasidir.

Laminar oqimda  $t_c = \text{const}$  bo‘lgandagi vertikal platinaning o‘rtacha issiqlik ajratishi.

$$Nu_e = 0.63(G_{re}P_r)^{0.25} \quad (9.1)$$

(9.1) ifodadagi proporsionallik koeffitsiyentlari ba’zi bir aniqliklarga muhtoj.



9.2 – rasm. Gorizontal quvurlar yaqinidagi erkin harakat.

Qaynoq gorizontal quvurlar yaqindagi erkin harakatning tabiatini 9.2 – rasmda ko‘rsatilgan. Quvurning diametri qancha katta bo‘lsa, boshqa barcha sharoitlar birxil bo‘lsa ham laminar oqimning buzilishi quvurlardan uzoqdan sodir bo‘lishi mumkin. Gorizontal quvurlar yaqinidagi erkin harakat paytidagi issiqlik ajralishining o‘rtacha koeffitsiyentini hisoblash uchun I.M.Mixeyev ifodasidan foydalanish’ mumkin:

$$Nu_{s,d} = 0,50 (\text{Gr}_{s,d} \text{Pr}_s)^{0,25} (\text{Pr}_s/\text{Pr}_s)^{0,25} \quad (9.3)$$


Ifodada belgilovchi sifatida quvurdan suyuqlik yoki gazning harorati qabul qilingan, belgilovchi o‘lchov sifatida esa quvurning diametri olinadi.

## **9.2. Suyuqlik cheklangan muhitda erkin harakatlanganda issiqlik berilishi**

Agar suyuqlikning hajmi ko‘p bo‘lmasa, ushbu hajmda joylashgan boshqa jismlar yoki shu jismlarning qismlarida yuzaga keladigan erkin harakat ko‘rilayotgan oqimda sezilishi mumkin. Bu harakatlarni ajratish va ularni alohida ko‘rib chiqish juda qiyin, ba’zida esa buning iloji ham yo‘q.

Bu holda harakat va issiqlik ajratish suyuqlik turiga, uning haroratiga va haroratli **tazyiqga**, shu jumladan muhitning shakli va o‘lchovlariga bog‘liq.

Ikkita yassi devorlar yordamida qurilgan gorizontal tirqishlarda jarayon qizdirilgan va sovuq yuzalar va ular orasidagi masofa bilan aniqlanadi. Agar yuqori devorning harorati pastki devornikidan yuqori bo‘lsa, suyuqlikning erkin oqimi yo‘q bo‘ladi. Bu holda issiqlik yuqori devordan pastki devorga issiqliko‘tkazuvchanlik yoki nurlanish yo‘li bilan o‘tkaziladi.



9.3 – rasm. Cheklangan hajmdagi erkin harakat

Suyuqlikning harorati gorizontal qatlamlarda doimiy, vertikal yo‘nalishda esa ortib boradi. Aytilganlar harorat oshgani sari zichligi kamaydigan suyuqlik uchun tegishlidir. Agar pastki devorning harorati yuqori devornikidan yuqori bo‘lsa, ma’lum bir sharoitlarda tirkishda konveksion toklar hosil bo‘ladi. Suyuqlikning zichligi kam bo‘lgan issiq bo‘lakchalari yuqoriga ko‘tarilishga harakat qiladi. Yoriqda bir – biri bilan o‘rin almashadigan ko‘tariladigan va pasayadigan oqimlar paydo bo‘ladi (9.3,g-rasm). Yuqoridan ko‘rilganda oqim maydoni aniq yoki noaniqroq tuzilishi olti qirrali uyachalardan iborat katakchalar tuzilmasidan iborat. Ushbu katakchalarning ichida oqim yuqoriga harakatlanadi, chekkalaridan esa pastga qaytadi. Bunday oqim tartibsiz turbulent oqim yuzaga kelgunicha davom etadi.

## Masalalar

1. Kvadrat kesimli kanalning eni  $a=10$  mm va uzunligi  $l= 1600$  mm ga teng. Kanaldan, suv  $w=4$  m/c tezlikda oqib o‘tadi. Suvning harorati  $t_s= 40^{\circ}\text{C}$  va kanalning ichki sirtidagi harorat  $t_{q,s}= 90^{\circ}\text{C}$  bo‘lganda kanal devoridan suvgaga issiqlik berish koeffitsiyenti va issiqlikoqimini aniqlang.

Javob:  $\alpha = 20300 \text{ Vm/m}^2\text{C}$ ,  $Q= 50994 \text{ Bt}$ .

2. Uzunligi  $l=2\text{m}$  va eni  $a=1,5\text{m}$  gorizontal plastinadan havo oqimi o‘tadi. Havo oqimining tezligi  $w=3\text{m/s}$ , harorati  $20^{\circ}\text{C}$  va plastina sirtidagi harorat

$90^{\circ}\text{C}$  ga teng. Plastinadan havoga issiqlik berish koeffitsiyentini va issiqlik miqdorini aniqlang.

$$\text{Javob: } \alpha = 4,87 \frac{\text{Bt}}{\text{m}^2 \text{ } ^\circ\text{C}}, \quad Q = 2050 \text{ Vt}$$

3. Ichki diametri  $d=50$  mm bo‘lgan quvurdan suv  $W=0,8$  m/s tezlikda oqib o‘tadi. Suvning harorati  $t_s=50$   $^{\circ}\text{C}$ , quvur sirtidagi harorati  $t_{q,s}=65$   $^{\circ}\text{C}$  bo‘lganda 1 mquvur sirtidan o‘tgan issiqliknini aniqlang.

$$\text{Javob: } q_\ell = 9,03 \text{ kVt/m.}$$

4. Tashqi diametri  $d=15$  mm bo‘lgan suv calorimetring havo oqimi ko‘ndalangiga oqib o‘tadi. Havo calorimetri o‘qiga  $90^{\circ}$  burchak ostida 2 m/s tezlik bilan harakatlanadi. Havoning harorati  $20$   $^{\circ}\text{C}$  va calorimetri tashqi sirtining harorati  $t_{q,s}=80$   $^{\circ}\text{C}$  ga teng. Issiqlik berish koeffitsiyenti va birlik uzunlikdagi issiqlikoqimini aniqlang.

$$\text{Javob: } \alpha = 36,3 \text{ Vt}/2\text{m}^2 \text{ } ^\circ\text{C}, \quad q_\ell = 102 \text{ Vt/m.}$$

Nazorat savollari.

1. Suyuqlik erkin harakatlanganda issiqlik berilishi qanday sodir bo‘ladi?
2. Suyuqlik cheklangan muhitda erkin harakatlanganda issiqlik berilishini izohlab bering.
3. Suyuqlik erkin harakatlanishida mezonli tenglamani tushuntirib bering.


## 10.Qaynashda issiqlik beruvchanlik

### 10.1.Qaynash jarayoni va uni sodir bo‘lishi.

Qaynash jarayoni texnikada keng tarqalgan, masalan, bug‘ qozonlarida, bug‘lantiruvchi apparatlarda, sovitgich qurilmalarida va boshqalar.

Qaynash jarayonini qattiq jism sirtida va suyuqlik hajmida kuzatishimiz mumkin. Ko‘proqqattiq jism sirtidagi qaynash keng tarqalgan. Qaynash jarayoni issiqlik berish bilan bog‘langan, shuning uchun qaynashda issiqlik beruvchanlik ko‘proq qiziqish uyg‘otadi. Qaynash jarayonining mexanizmi konvektiv issiqlik almashinish mexanizmidan chegara qatlam jarayonlari bilan ajralib turadi. Bug‘ pufakchalar chegara qatlamni turbulizatsiya holatiga keltiradi. Qaynash jarayonini hosil bo‘lish shartlari quyidagicha: suyuqlik to‘yinsh haroratidan yuqori haroratgacha qizigan bo‘lishi va issiqlik almashinish yuzasida bug‘lanish markazlari (BM) bo‘lishi kerak. BM sifatida yuza g‘adir-budirligi, havo pufakchalar, chang zarrachalari misol bo‘la oladi.

Agar qattiq jism yuzasidagi issiqlik almashinishdagi bug‘ pufakchasini ko‘radigan bo‘lsak, issiqlik bug‘ pufakchasing oyoqchasidan ( $Q_1$ ), chegara qatlamdan ( $Q_2$ ) va yuqoriga ko‘tarilish yadrosidan ( $Q_3$ ) olinishi mumkin.



10.1-rasm Qaynash jarayonining sodir bo‘lishi.

Bug‘lanish markazida joylashgan bug‘ pufakchasi, bug‘ pufakchasi ichidagi bosim kuchi ( $R_1$ ) va atrofdagi suyuqlik bosim kuchi ( $R$ ) ta’sir etadi. Bu kuchlarning tenglilik shartlari Laplas tenglamasi bilan yoziladi:

$$\Delta R = R_1 - R = \frac{2\sigma}{R_{kp}}, \quad (10.1)$$

bunda  $\sigma$  – sirtiy taranglik kuchi;

$R_{kp}$  – kritik radius – pufakchaning yuzaga kelishidagi minimal radius.

Agar  $\Delta R > \frac{2\sigma}{R_{kp}}$  bo‘lsa, bug‘ pufakchasi kattalashadi.

$\Delta R < \frac{2\sigma}{R_{kp}}$  bo‘lsa, bug‘ pufakchasi qaytadan suvga aylanadi.


Kritik radiusni quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$R_{kp} = \frac{2\sigma T_m}{r \rho_s (T_s - T_m)} \quad (10.2)$$

bunda  $T_t$  – to‘yinsh harorati, K;

$T_s$  – suyuqlik harorati, K;  
 $\rho_s$  – suyuqlik zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  
 $r$  – bug‘lanish issiqligi, [kJ/kg].

Bizgama’lumki, pufakchalaryningqattiq jism sirtida paydo bo‘lishi, ularning kattalashishi, jism sirtidan ajralishi, yuqorigasuyuqlik vaqattiq jism sirtining haroratiga vaajralish diametriga ( $d_{aj}$ ) bog‘liqdir.



10.2-rasm. Katta bo‘layotgan bug‘ pufakchasing diametr bo‘ylab o‘sishi.

Kattabo‘layotganyokiboshqachaqilibaytgandao‘sayotganbug‘pufakchaside metrbo‘ylabo‘sib, ajralishdiametriga (10.2-rasm) yetganda ( $d_{aj}$ ), sirtdanajralib, suyuqlikyuzasibo‘ylabyuqorigako‘tariladi.

Ajralish diametri quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi.

$$d_{aj} = 0,0208 \theta \sqrt{\frac{\delta}{g(\rho_s - \rho_b)}} \quad (10.3)$$

bunda  $\delta$  – chekkaburchak;

$g$  – erkintushishtezlanishi;

$\rho_b$  – bug‘ning zichligi.

Chekka burchak  $\delta$ ning ortishi bilan qaynayotgan suv yuzasi yomonlashadi. Ajralish diametri kattalashadi. Agar  $\delta > \frac{\pi}{2}$  bo‘lsa, suyuqlik yuzasi ho‘llanmaydi, pufakchalar kattalashadi va issiqlik suvgaga emas, balki bug‘ga beriladi.


## 10.2. Qaynashning turlari

Qaynash quyidagi turlarga bo‘linadi: pufakchali, plyonkali va sirt yuzasida (yoki isimagan suyuqlik qaynashi).


Pufakchalik qaynashdabug‘ pufakchalari yuzada paydo bo‘lib kattalashadi va sirt yuzasidan ajralib, chegaraqatlamni jadal aralashtiradi. Bundasuyuqlik harorati to‘yinish haroratidan yuqori bo‘ladi. Pufakchalar butun suyuqlik hajmi bo‘ylab harakatlanadi. Pufakchalarining hosil bo‘lishi qattiq jism sirtining haroratini katta bo‘lishigabog‘liq.

Plyonkali qaynashda (10.3-rasm) qattiq jism sirtida bug‘ pufakchalar shunchalik ko‘p bo‘ladiki, ular sirt yuzasida bug‘li plyonkaqatlaminu hosil qiladi, bug‘ plyonkasi qatlam bo‘lgani uchun suyuqliknini sirdan ajratib turadi, bu issiqlikalmashishni kamaytiruvchi termik qarshilikni hosil qiladi:

$$R = \frac{\delta_{\text{пленка}}}{\lambda_{\text{буг}}} \quad (10.4)$$



10.3-rasm. Plyonkali qaynash.



10.4-rasm. Qaynash jarayonining sodir bo‘lishi.a) puffakchali qaynash b) qattiq jism yuzasida qaynash.

Termik qarshilik qancha yuqori bo‘lsa, issiqlik berilishi shuncha kam bo‘ladi. Qattiq jism yuzasida qaynashda (10.4-rasm) sirt yuzasidagi qatlam dasuyuqlik qizigan hisoblanadi. Qattiq jism sirtida hosil bo‘lgan pufakchalar yuzadan ajralib qaynash haroratigacha qizib ulgurmagan suyuqlikning


yadrosiga kelib tushadi va bug‘ qaytadan suvgaaylanadi. Chegaraqatlam jadal aralashadi va issiqlik beruvchanlik yuqori holatda qoladi.

### 10.3.Qaynash krizislari va ungata’sir etuvchi omillar

Qaynashdaissiqlik beruvchanlikning haroratlar farqigabog‘liqligi (qaynash egri chizig‘i)ni ko‘rib chiqamiz.

Qaynash egri chizig‘idaquyidagi qismlar mavjud: (10.5-rasm) 1-tabiiy konveksiya (suyuqlikning isitilishi); 2-qaynash jarayonining sekin hosil bo‘lish qismi; 3-tezlashgan pufakchali qaynash qismi; 4-o‘tish qismi (me’yorsiz); 5-plyonkali qaynash (me’yorli).

K nuqtasi pufakchali qaynashdan plyonkali qaynashgao‘tish **I qaynash krizi** deyiladi. Issiqlik yuklamasi birinchi kritik yuklamasi deb atalib,  $q_{kr1}$  deb belgilanadi. Qaynash krizisi boshlangandaissiqlik beruvchanlik koeffitsiyenti yomonlashadi va yuza harorati judaortib ketishi hisobiga yuza buzilishi mumkin.



10.5-rasm. Qaynash egri chizig‘i.

Issiqlik yuklamasini kamayishi hisobiga plyonkali qaynash pufakchali qaynashgaalmashadi. Plyonkali qaynashgao‘tish nuqtasi **II qaynash krizi** deyiladi va  $q_{kr2}$  deb belgilanadi,  $q_{kr2} \ll q_{kr1}$ .

Suv uchun  $q_{kr1} = 1 \cdot 10^6 \text{ Vt/m}^2$ ,  $\Delta t_{kr} = 25 {}^\circ\text{C}$ .

Katta hajmdagi suyuqlik uchun erkin konveksiyada kritik issiqlik yuklamasi quyidagi ifodaorqali hisoblanadi:

$$q_{kr1} = k \cdot r \sqrt{\rho''} \sqrt{g \sigma (\rho' - \rho'')} \quad (10.5)$$

bunda  $k$ - ikki fazali chegaraqatlamning o‘zgarmas kattaligi,  $k=0,13$ .

Qaynashdaissiqlik berish hodisasini ham emperik, ham mezonli tenglamalar yordamida hisoblash mumkin. Emperik ifodalarning ko‘rinishi quyidagicha:

$$\alpha = Aq^{0,7}.(10.6)$$

Erkin konveksiya qismidaquyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\alpha = f(\Delta t). (10.7)$$

Tezlashgan qaynash qismida:

$$\alpha = f(\Delta t) \text{ va } \alpha = f(q). (10.8)$$

Masalan, suv uchun ifodaquyidagicha yoziladi:

$$\alpha = 3,14 q^{0,7} r^{0,15} \quad (10.9)$$

Mezonli tenglamaning (Labunsev ifodasi) ko‘rinishi quyidagicha:

$$Nu = c Re^n Pr_c^{\frac{1}{3}} \quad (10.10)$$

bunda  $Nu = \frac{\alpha \ell}{\lambda}$  aniqlovchi kattalik

$$\ell_s = \frac{c_p \cdot \rho^1 \sigma T_r}{(r \rho)}, \quad (10.11)$$

$$Re \geq 10^2, \quad Nu = 0,125 Re^{0,65} Pr_c^{\frac{1}{3}} \quad (10.12)$$

$$Re \leq 10^2, \quad Nu = 0,625 Re^{0,5} Pr_c^{\frac{1}{3}} \quad (10.13)$$

Bu ifodalar bosimning qiymat i  $R=45 \cdot 10^2 \div 175 \cdot 10^5$  Pa bo‘lganda ishlatish mumkin.

Qaynashdaissiqlik beruvchanlikkaquyidagi faktorlar ta’sir etadi:issiqlik yuklamasi va haroratlar farqi;

1. Bosim ortishi bilan Issiqlik berish koeffitsiyenti ortadi;
2. Suyuqlikning fizik xossalari:
  - a) Issiqliko‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti ortishi bilan issiqlik berish koeffitsiyenti ortadi;
  - b) kinematik qovushqoqlik koeffitsiyenti ( $v$ ) ortishi bilan issiqlik berish koeffitsiyenti kamayadi;
  - d)  $\sigma$  ortishi bilan issiqlik berish koeffitsiyenti kamayadi;
4. Suyuqlikning tezligi issiqlik berish koeffitsiyentiga quyidagicha ta’sir etadi –  $W^{0,8}$ ;

5. Sirtning g‘adir-budirligi issiqlik berish koeffitsiyentining ortishiga olib keladi, chunki bug‘lanish markazlarining soni ortadi.

## 10.4 Katta hajmdagi va kanallardagi qaynash

Katta hajmda va kanallarda ham qaynash mavjud bo‘lib, bular bir-biridan farqlanadi. Katta hajmdagi pufakchali qaynashda haroratlar maydonini ko‘rib chiqamiz (10.6-rasm).

Sirtning harorati qaynash haroratidan ancha yuqoriqoq. Suyuqliking harorati, butun hajmi bo‘ylab, to‘yinish haroratidan  $0,2^{\circ}\text{C}$  ga ko‘proq, bug‘ holatida esa, to‘yinish haroratiga teng.

Sirt bo‘yicha qaynash da (10.7-rasm) suyuqlik yadrosidagi harorat to‘yinish haroratiga qaraganda kichik faqat chegara qatlamida suyuqlik to‘yinish haroratiga nisbatan isigan.



10.6-rasm.Katta hajmdaqaynash.10.7-rasm.Sirtbo‘yichaqaynash.

Kanallardagi 2 fazalioqimningtuzilishbalandligibo‘ylabozgaradi. Kanallardagi qaynashda sodir bo‘ladigan qismlarni ko‘rib chiqamiz (10.8-rasm).Rasmda 1-ekonomayzerqismi, suyuqlikqaynashharoratigacha qiziydi, konveksiyaqismi; 2- qattiqjismsirtida qaynashqismi, suyuqlikfaqtqaynaydi, oqimyadrosida esa haliqaynamaganhisoblanadi; 3-tezlashganpufakchaliqaynashqismi, buniemulsionholatqismideb ataladi; 4-probkaliholatqismi, bunda bug‘katta probka holatida bo‘lib, markazda harakatlanadi, suyuqlikesa sirtyuzasida qaynaydi; 5- halqasimonholatqismi; 6-qurishqismi, suyuqlikplyonkasisirtda quriydi, faqatnambug‘ oqadi, bukonveksiyahisoblanadi, issiqlikberishkoeffitsiyentikamayadi, sirtningharorati ortadi, buikkinchitartibliqaynashkrizisideyiladi.


Ikki fazali oqimning bir qancha parametrlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Hajmiy bug‘ saqlami

$$\varphi = \frac{M_b / \rho_b}{V_{ap}}, \quad (10.14)$$

Bunda:  $M_b$  – bug‘ningmassasi;

$V_{ap}$  – bug‘-suvaralashmasininghajmi.



10.8-rasm. Kanallardagiqaynash.

## 2. Massaviysarflanishbug‘saqlami

$$X = \frac{G_6}{G_{ap}} = \frac{G_6}{G_6 + G_c}, \quad (10.15)$$

$G_{ar}$  – bug‘-suyuqlik aralashmasining sarfi, kg/sek.

## 3. Sirkulyatsiya tezligi

$$W_s = \frac{G_{ap}}{\rho_{ap} f}, \quad (10.16)$$

$f$ - kanalning ko‘ndalang kesim yuzasi.

## 3. Hajmiy sarflanish bug‘ saqlami

$$\beta = \frac{V_6}{V_{ap}} = \frac{V_6}{V_6 + V_c}, \quad (10.17)$$

$$V = \frac{G}{\rho}$$

## 4. Haqiqiy bug‘ saqlami

$$\psi = \frac{f_6}{f_6 + f_s}, \quad (10.18)$$

$f_b$  – bug‘ bilan qoplangan kanalning ko‘ndalang kesim yuzasi qismi;

$f_s$  – suyuqlik bilan qoplangan kanalning ko‘ndalang kesim yuzasi qismi;

## 5. Bug‘ning haqiqiy tezligi

$$W_b = \frac{V_6}{f_6} \quad (10.19)$$

## 6. Fazalar sirg‘anish tezligi

$$U = W_b - W_s, \quad (10.20)$$

Plyonkali qaynash da issiqlik beruvchanlik quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$\alpha = s \sqrt{\frac{\lambda_6^3 r \rho_6 (\rho_c - \rho_6) g}{\mu_6 \Delta t \ell_0}}, \quad (10.21)$$

bunda  $\ell_0$  – aniqlovchikattalik –gorizontalquvurlarda diametr, vertikalquvurlarda balandlik olinadi.

Ko‘pchilik mualliflarning ishlarida suyuq metallarning qaynashi tekshirilganda, issiqlik beruvchanlik krizisining yangi turi kelib chiqqanligini ko‘rish mumkin, bunda bir fazalik konveksiyadan tezda plyonkali qaynashga o‘tishi va uni «uchinchi qaynash krizisi» termini deb ataldi ( $q_{kr3} < q_{kr2} < q_{kr1}$ )

Oqimning aylanishi – bug‘ generatoridagi qaynash jarayonining jadalligidir. Lekin oqimning aylanishini bog‘liqligi kelib chiqishi turlichadir. Tekis, ustiga va tagiga egilgan quvurlarda har xil bo‘ladi, tagiga egilgan quvurlarda kichik bo‘ladi.

Qaynash da issiqlik almashinishni jadallashtirish uchun g‘ovakli yuzalarni qo‘yish kerak bo‘ladi, bunda bug‘lanish markazlarining ko‘proq yuzaga kelishi vujudga keladi. Shu narsa kuzatilganki, g‘ovakli yuzalardagi qaynashdagi egri chiziq tekis yuzalarnikiga qaraganda yuqoriroq joylashadi va  $q_{kr1}$  uch marotaba yuqori bo‘ladi.

Qaynash jarayonini murakkabligi, matematik modellarini yaratishni qiyinlashtiradi. Bir qancha katta ilmiy-tekshirish markazlarida qaynashda issiqlik berishning matematik modellarini tuzish tuzish borasida ish olib borish davom etmoq’da.

## Masalalar

1. Gorizontall Issiqlik almashuv apparatining diametri  $d = 400 \text{ mm}$ , sirtining harorati  $t_{q.c} = 200 {}^\circ\text{C}$  va xonadagi havoning harorati  $t_h = 30 {}^\circ\text{C}$  ga teng bo‘lganda vaqt birligi ichida  $1 \text{ m}^2$  gorizontal issiqlik almashuv apparati sirtidan o‘tgan issiqlikni aniqlang.

Javob:  $q = 1000 \text{ Vt / m}^2$ .

2. Balandligi  $2 \text{ m}$  bo‘lgan vertikal plitaning issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlang, agar plita sirtining harorati  $t_{q.s} = 100 {}^\circ\text{S}$  va atrof-muhitning harorati  $t_x = 20 {}^\circ\text{S}$  ga teng bo‘lsa,

Javob :  $\alpha = 7,92 \text{ Vt / m}^2 {}^\circ\text{C}$ .

3. Moy bakidagi MS markali moy diametri  $20 \text{ mm}$  li gorizontal quvurlar yordamida harorati bir xilda saq’lanadi. Moyning harorati  $t_s = 60 {}^\circ\text{C}$  va quvur

sirtidagi harorat  $t_{q,s} = 90^{\circ}\text{C}$  bo‘lganda quvur sirtidan moyga berilgan issiqlik berish koeffitsiyentini aniqlang.

$$\text{Javob : } \alpha = 96,2 \text{ Vt / m}^2 \text{ } ^\circ\text{C}.$$

4. Diametri 76 mm va balandligi 4 m bo‘lgan vertikal izolyatsiyalanmagan quvur havoga issiqlik beradi. Havoning harorati  $20^{\circ}\text{C}$  va quvur sirtidagi harorat  $t_{q,s} = 80^{\circ}\text{C}$  ga teng. Quvurdan chiqqan issiqlikn ni aniqlang.

$$\text{Javob : } Q = 413 \text{ Vt}$$

### **Nazorat savollari.**

1. Qaynash deb nimaga aytildi?
2. Qaynash jarayoni necha turga bo‘linadi?
3. Qaynashning sodir bo‘lishdagi shart-sharoitlarini aytib bering.
4. Bug‘lanish markazlarining hosil bo‘lishi nimalarga bog‘liq?
5. Bug‘lanish nima?
6. Qaynash krizislari to‘g‘risida gapirib bering.

## **11.Bug‘ni qaytadan suvgaga aylanishida issiqlik beruvchanlik.**

### **11.1. Kondensatsiya hodisasi**

Bug‘ to‘yinish haroratidan pastroq haroratga ega bo‘lgan yuza bilan tutushsa, u yana qaytadan suvgaga aylanadi, ana shu hodisani **kondensatsiya** hodisasi, hosil bo‘lgan massani esa **kondensat** deyiladi.

Amalda kondensatsiya hodisasi – turbina kondensatorlarida, issiqlik almashinish apparatlarida uchraydi.

Kondensatsiya jarayoni issiqlik almashinuvi bilan bog‘liqdir, chunki bug‘ni qaytadan suvga aylanishida ichki bug‘lanish issiqligi ajraladi.



Kondensatsiya bug‘ning hajmida ham, yuzada ham sodir bo‘lishi mumkin. Bug‘ning hajmida bo‘ladigan kondensatsiya, berilgan bosimda bug‘ to‘yinish haroratiga nisbatan sovigan holatda uchraydi.

Xalq xo‘jaligining ko‘pgina sohalarida, xususan issiqlik energetikasida, asosan bug‘ning sovuq’ yuza bilan to‘qnashishida hosil bo‘ladigan kondensatsiya, ya’ni yuzadagi kondensatsiya jarayoni ishlatiladi. Bunday kondensatsiya qachonki, yuzaning harorati berilgan bosimda to‘yinish haroratidan kichik bo‘lgandagina sodir bo‘ladi. Qattiq jism yuzasida goho kondensat plyonkasi, goho alohida tomchilari hosil bo‘ladi. Birinchi holatdagi kondensatsiya holatini plyonkali, ikkinchi holatdagisini **tomchili kondensatsiya holati** deyiladi.

Kondensatsiya holatining yuzaga kelishida, suyuqlik yuzani ho‘llashiga va ho‘llamasligiga bog‘liq bo‘ladi. Agar suyuqlik yuzani (sirtni) ho‘llasa, bunda plyonkali kondensatsiya bo‘ladi. Agar suyuqlik sirtni ho‘llamasa, u holda tomchili kondensatsiya hosil bo‘ladi. Yuzaningsuyuqlik bilan ho‘llanishi va ho‘llanmasligi sirtiy tortilish kuchining ta’siri hisobiga bo‘ladi. Nima ta’sirida sirtiy tortilish kuchining paydo bo‘lishini ko‘rib chiqamiz.

Suyuqlik hajmida joylashgan zarrachaga o‘zaro tortishish kuchlari ta’sir etadi. Bu kuchlarning yig‘indisi nolga teng. Sirtda joylashgan zarrachaga, shu kuch ta’sir etadi, lekin bu bir tomondan ta’siri bo‘ladi, shuning uchun qandaydir kuchlarning yig‘indisi sirtiy tortilish kuchi deyiladi, bu kuch suyuqlik ichiga yo‘naladi. Shu kuchlar ta’sirida suyuqliko‘zining sirtini kamaytirishga intiladi. Sirtiy tortilish kuchining fazalar ajralish chegarasidagi uzunligiga bo‘lgan nisbatiga **sirtiy tortilish kuchi koeffitsiyenti** deyiladi va  $\sigma$  bilan belgilanadi. Shularni e’tiborga olganda, suyuqlik yuzasi sirt yuzasi bilan burchak hosil qiladi, buni  $\theta$  bilan belgilanadi.

Ana shu burchakli sirt bilan suyuqlikorasida qanday holatda bo‘lishini quyidagi chizmada ko‘ramiz:



11.1-rasm.Sirt bilan suyuqlik orasida burchaklar hosil bo‘lishi.

I holatda:  $0 < 90^\circ$  holati yuzaga keladi, ya’ni suyuqlik yuzani ho‘llaydi;


II holatda:  $0 > 90^\circ$  holati yuzaga keladi, ya’ni suyuqlik yuzani ho‘llamaydi.

Sirtiy tortilish koeffitsiyenti ikkala holat uchun quyidagicha bo‘ladi.

$$\sigma_{\text{sir } tgaz} - \text{kuch } - \text{sirt } - \text{gaz} ;$$

Bunda:  $\sigma_{\text{suyuq. gaz}} - \text{kuch } - \text{sirt } - \text{gaz} ;$

$$\sigma_{\text{sirt suyuq}} - \text{kuch } - \text{sirt } - \text{gaz} ;$$



11.2-rasm. Vertikal yuzada kondensatsiya jarayonining sodir bo‘lishi.

Tomchi uchun tenglik shartini quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$\sigma_{\text{sir } tgaz} = \sigma_{\text{sirt suyuq}} + \sigma_{\text{sir } tgaz} * \cos \theta$$

$$\text{бундан: } \cos \theta = \frac{\sigma_{\text{sirt gaz}} - \sigma_{\text{sirt suyuq}}}{\sigma_{\text{sirt gaz}}} \quad (11.1)$$

Tomchili kondensatsiyada issiqlik berish koeffitsiyenti plyonkali kondensatsiyaga qaraganda har doim yuqori bo‘ladi, buning sababi kondensatorning plyonkasi termik qarshilikka ega bo‘ladi va bu issiqlikberilishini susaytiradi. Bunday qarshilikni kamaytirish yoki boshqacha qilib aytganda kondensatning plyonkasini ajratib yuborish kerak bo‘ladi. Shunda qarshilik kamayib, issiqlik berilishi ortadi. Tomchili kondensatsiyani sun’iy ravishda yuzaga keltirish uchun maxsus moddalar gidrofobizatorlar yordamida amalga oshiriladi. Bu moddalar yo bug‘ga qo‘shiladi, yo kondensator quvurlariga quyiladi.

Umuman olganda kondensatsiya jarayonidagi termik qarshilik, kondensat plyonkasining termik qarshiligi bilan fazoviy o'tish termik qarshiliyig' indisidan tashkil topadi.

$$R = \frac{1}{\alpha} = \frac{t_\delta - t_{cupm}}{q} = R_n + R_\phi \quad (11.2)$$

11.2-rasmdagi haroratlar o'zgarishi chizmasidan ko'rinib turibdiki, kondensat bilan bug'ning ajralish chegarasida haroratni ko'tarilishi yuzaga keladi. Ushbu harorat ko'tarilishi, ingichka yuza qatlamida qarshi molekulalar oqimini yuzaga kelishi natijasidir. Molekulalarning bir qismi esa yuzadan qaytib yana bug'ga kelib qo'shiladi. Buning natijasida ingichka yuza qatlamida turli energiya (harorat)ga ega bo'lgan yoki teng bo'lмаган molekula oqimi harakatlanadi. Demak, ushbu qatlamda bug'ning harorati, kondensatning haroratidan, harorat o'zgarishi bilan ajralib turadi. Qancha molekulalar yuzasidan qaytsa, shuncha harorat ortishi yuqori bo'ladi.

Haroratlar ortishi xarakteristikasi bo'lib kondensatsiyakoeffitsiyenti – K hisoblanadi, u suyuqlik bilan olib ketiladigan molekulalar sonining, devorga urilayotgan molekulalar soniga nisbati bilan aniqlanadi.

Fazoviy o'tish termik qarshilik bilan kondensatsiyakoeffitsiyentini bog'laydigan nazariy ifodalar mavjud bo'lib, ular bug'ning harorati va bosimiga bog'liq bo'ladi. Kondensatsiya koeffitsiyenti kichik bo'lganda, haroratlar ortishining qiymati kattaroq bo'ladi, fazoviy o'tishning termik qarshiligi ham katta qiymatga ega bo'ladi. Suv bug'i kichik bosimga ega bo'lganda, kondensatsiyakoeffitsiyenti  $k=1$  bo'ladi, demak harorat ortishi yo'q deb olinadi, shunda fazoviy o'tish termik qarshiligi  $R_f=0$  bo'ladi.

Kondensat plyonkasining termik qarshiligi oqimining oqish holatiga bog'liq. Laminar plyonkadan issiqlik, issiqliko'tkazuvchanlik asosida, turbulent plyonkada esa konvektiv issiqlik beruvchanlik hisobga olinadi. Turli avtorlarning tajribalaridan olingan qiymatlar shuni ko'rsatadiki, kritik Re soni 60-500 gacha o'zgaradi.

$1\text{kg}$  quruq to'yingan bug'ni kondensatga aylantirishda  $r$  issiqlik ajraladi. Buni **fazoviy o'tish issiqligi** deyiladi va  $r$  bilan belgilanadi. Undan tashqari kondensatning sovishi yuzaga keladi, chunki sirtning harorati to'yinish haroratidan kichik bo'ladi. Agar kondensatning sovishi ajralgan issiqlikdan kichik bo'lsa, u holda issiqlik miqdorini quyidagi ifodadan aniqlayiz:

$$Q = G \cdot r \quad (11.3)$$

bunda  $G$  – hosil bo'lgan kondensatning miqdori.

Aniq masalalarda issiqlik almashinishini ko‘rishda harakatlanayotgan va qo‘zg‘almas bug‘larning kondensatsiyasini ajratish zarur bo‘ladi. Bug‘ning harakati kondensat pylonkasining qarshiligiga, demak issiqlik almashinuvining intensivligiga ta’sir qiladi. Haqiqatdan ham biz harakatlanuvchi bug‘ning kondensatsiyasiga egamiz, chunki kondensatsiyalangan bug‘ning hajmi o‘rniga, yuzada yana yangi bug‘ hajmi paydo bo‘ladi, shuning uchun bug‘ doimo harakatda bo‘ladi. Vertikal yuza uchun bug‘ning tezligi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$W = \frac{q}{r \rho_0} , \quad m/c \quad (11.4)$$

To‘yingan suv bug‘i uchun  $W = 0,23$  m/sek. Bunday tezlik bilan bug‘ kondensat pylonkasiga ta’sir eta olmaydi, shuning uchun uni harakatlanmaydi deb hisoblanadi.

## **11.2. Vertikal yuzada harakatlanmayotgan bug‘ning pylonkalik kondensatsiyasidagi issiqlik almashinuvi**

Vertikal yuzada  $t_{sirt}$  haroratga ega bo‘lgan quruq to‘yingan bug‘ kondesasiyalanyapti. Kondensat pylonkasi koliniar haroratga ega.

Shunday holatni ko‘rib chiqish uchun quyidagilarga e’tibor beramiz:

- 1) Kondensat pylonkasida hosil bo‘ladigan inersiya kuchlari, qovushqoqlik va og‘irlik kuchlariga qaraganda kichikligi;
  - 2) Pylonkadan konvektiv issiqlik berilishi yo‘q, yana pylonka bo‘ylab issiqliko‘tkazuvchanlik hisobga olinmaydi – issiqlik faqat pylonkadan beriladi.
  - 3) Bug‘ – suyuqlik ajratish fazasi chegarasida ishqalanish yo‘q deb hisoblanadi.
  - 4) Kondensat pylonkasining tashqi yuzasidagi harorat o‘zgarmaydi va u  $t_n$  ga teng.
  - 5) Fizik parametrlari haroratga bog‘liq emas.
  - 6) Bug‘ning zichligi suvning zichligiga qaraganda kichik bo‘ladi.
- Pylonkaning laminar oqimi holatidagi o‘zgarishlarni ko‘rib chiqamiz. Energiya tenglamasini yozamiz:

$$\frac{\partial t}{\partial \tau} + W_x \frac{\partial t}{\partial x} + W_y \frac{\partial t}{\partial y} + W_z \frac{\partial t}{\partial z} = a \left( \frac{\partial^2 t}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 t}{\partial y^2} + \frac{\partial^2 t}{\partial z^2} \right) \quad (11.5)$$

$$\text{barqaror holat bo‘lgani uchun } \frac{\partial t}{\partial \tau} = 0 \quad (11.6)$$

konvektiv issiqlik uzatilishi bo‘lmasani uchun

$$W_x \frac{\partial t}{\partial x} + W_y \frac{\partial t}{\partial y} + W_z \frac{\partial t}{\partial z} = 0 \quad (11.7)$$

Paragrafni boshlanishida yozilishi bo‘yicha pylonka bo‘ylab issiqlik uzatilishi bo‘lmasani uchun, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{\partial^2 t}{\partial x^2} = 0 \quad \text{va} \quad \frac{\partial^2 t}{\partial z^2} = 0 ,$$

unda energiya tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\frac{\partial^2 t}{\partial y^2} = 0 \quad (11.8)$$

Chegara shartlari:

$$\begin{aligned} y = 0 \quad t &= t_{sirt1} \quad \frac{\partial W_x}{\partial x} = 0 \\ y = \delta \quad t &= t_{sirt2} \quad \frac{\partial W_y}{\partial y} = 0 \end{aligned} \quad (11.9)$$

Energiya tenglamasini integrallaymiz:

$$\frac{\partial t}{\partial y} = c_1 ; \quad t = c_1 y + c_2 \quad (11.10)$$

chevara shartlarini hisobga olganda:

$$\begin{aligned} y = 0 \quad c_2 &= t_{sirt} \\ \text{agar } y = \delta \quad t_n &= c, \delta + t_{sirt} \rightarrow c_1 = \frac{t_T - t_{sirt}}{\delta} , \quad (11.11) \\ \text{bundan: } \frac{\partial t}{\partial y} &= \frac{(11.11)}{\delta} \end{aligned}$$

Issiqlik berish koeffitsiyenti

$$\alpha = \frac{q}{t_n - t_{cupm}} = \frac{\lambda \frac{\partial t}{\partial y}}{t_n - t_{cupm}} = \frac{\lambda}{\delta} \frac{t_c - t_{cupm}}{t_n - t_{cupm}} = \frac{\lambda_c}{\delta} \quad (11.12)$$

Agar plyonka orqali issiqlik faqat issiqliko‘tkazuvchanlik orqali berilayotgan bo‘lsa, u holda  $\alpha = \frac{\lambda_s}{\delta}$  bo‘ladi.

Oxirgi ifoda bo‘yicha issiqlik berish koeffitsiyenti  $\alpha$  ni hisoblash uchun sirtning balandligi bo‘ylab plyonkaning qalinligini bilishimiz zarur bo‘ladi. Plyonkaning qalinligini ifodalovchi ifodani topish uchun harakat differential tenglamadan foydalanamiz. Harakat differential tenglamasini integrallab, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\delta = \sqrt{\frac{4\lambda\mu_s(t_t - t_{sirt})x}{r\rho_s^2 g}}, \quad (11.13)$$


Olingan tenglamani avvalgi tenglamaga qo‘yish natijasida,

$$\alpha = \frac{\lambda}{\delta} = \frac{\sqrt[4]{\lambda}}{\sqrt[4]{\frac{4\lambda\mu_s(t_t - t_{sirt})x}{r\rho_c^2 g}}} = \sqrt[4]{\frac{r\rho_c^2 g \lambda^3}{4\lambda\mu_s(t_t - t_{sirt})x}} \quad (11.14)$$

Ushbu ifodadan issiqlik berish koeffitsiyentini mahalliy lokal qiymatini X kesimida hisoblasa bo‘ladi. (46-rasm).

Balandlik bo‘yicha o‘rtacha issiqlik berish koeffitsiyentini quyidagi ifodadan foydalanamiz:

$$\bar{\alpha} = \frac{1}{h} \int_0^h \alpha dx \quad (11.15)$$



11.3-rasm.Kondensatsiya jaroyonida issiqlik berish va plyonkani qalinligini o‘zgarishi.

### 11.3. Gorizontal quvurlarda va quvurlar to‘plamidagi kodensatsiya

Nusselt tomonidan topilgan ifoda gorizontal quvurlar uchun quyidagicha yoziladi:

$$\bar{\alpha} = 0,788 \cdot \sqrt[4]{\frac{\rho^2 \lambda^3 gr}{\mu(t_\tau - t_{sirt})d}} \quad (11.17)$$

(11.17) ifodadagi  $\bar{\alpha}$  qo‘zg‘almas bug‘kondensatsiyasi uchun ishlatiladi. Lekin amalda qo‘zg‘aluvchan oqimlar kondensatsiya doim amalga oshiriladi. Bunda bug‘ning tezligi qancha katta bo‘lsa, haroratlar farqi va bosim katta bo‘ladi. Shuning uchun issiqlik berish koeffitsiyenti katta bo‘ladi.

Tajriba natijalarini hisoblash natijasida harakatlanayotgan quruq to‘yingan bug‘ning gorizontal quvurda kondensatsiyalashishida quyidagi ifodani ishlatiladi:

$$\overline{Nu} = 0,72 \text{ Re}_c^{-0.125} Gr^{0.045} \left( \frac{\mu_d}{\mu_s} \right)^{0.08} \quad (11.18)$$

Kondensatsion apparatlar bitta quvurdan emas, balki quvurlar to‘plamidan tashkil topgan bo‘ladi. Quvurlar to‘plamidagi kondensatsiyada issiqlik beruvchanlikning jadalligi yakka quvurlarnikiga qaraganda boshqacharoq bo‘ladi. Buni quyidagi ikkita faktor bilan tushuntirsa bo‘ladi:

1) quvurlar to‘plamidan bug‘ni harakatlanishi davomida uning tezligini kamayadi.

2) kondensat pylonkasining qalinligini quvurdan – quvurga harakatlanishi tufayli ko‘payadi.

Kondensat pylonkasining kattalashishi issiqlik beruvchanlikni kamaytiradi. Kondensat quvurga alohida tomchilar yoki oqimcha (struya) asosida oqib tushadi, bir tomonidan kondensatning pylonkasini oshiradi, ikkinchi tomonidan esa, oqimning harakatini o‘zgartiradi, ushbu holat pylonkani turbulent oqimi holatiga olib keladi. Shuning natijasida harakat quvur bo‘ylab boradi.

Issiqlik almashinishing intensivligini baholash uchun, alohida olingan quvurlar uchun tajriba yo‘li bilan quyidagi ifoda olingan, bu ifoda yuqoridagi quvurga tushadigan kondensatning miqdorini hisobga oladi.

$$\frac{\bar{\alpha}_n}{\alpha_1} = \left( \frac{\sum_{i=1}^n G_i}{G_n} \right)^{-0.07} \quad (11.19)$$

bu yerda:  $\sum_{i=1}^n G_i$  - n qator quvurlarga kelib tushadigan umumiy kondensatning miqdori;

$G_n$  - ko‘rilayotgan quvurlarda hosil bo‘lgan kondensat miqdori;  
 n – koridor yoki shaxmat shaklida joylashgan quvurlar to‘plamidagi qatorlar soni;  
 $\bar{\alpha}_n$  - n qatorga ega bo‘lgan quvurlarning issiqlik berish koeffitsiyenti;  
 $\alpha_1$  - yuqoridan birinchi qatordagi quvurlarning issiqlik berish koeffitsiyenti.

Ushbu olingan ifoda orqali hisoblashlar murakkab, chunki hisoblashni birinchi qatordan boshlab, ketma – ket davom ettirish zarur bo‘ladi. Agar ba’zi bir qisqartirishlar kiritib, ya’ni bug‘ning bosimi va haroratlari farqi quvur balandligida deb qabul qilinsa, u holda issiqlik berish koeffitsiyentini hisoblash osonlashadi.

#### 11.4. Bug‘ning tomchilab kondensatsiyasida issiqlik beruvchanlik

Bizga yuqorida ko‘rib chiqilgan paragraflardan ma’lum bo‘ldiki, tomchilab kondensatsiya holatining yuzaga kelishi yuzaning kondensat ho‘llamasligi hisobiga vujudga kelar ekan. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tomchining hosil bo‘lishi jarayoni juda tez bo‘lib, so‘ngra uning tezligi tezda kamayadi. Tomchilar bir – biri bilan qoshilib, yuzadan tezda tushib ketadi.

Tomchining hosil bo‘lishi uchun esa bug‘sovishi kerak, ya’ni uning harorati to‘yinish haroratidan kichik bo‘lishi zarur. Bunday holat tomchining tekis yuzasidan bosimini yuqoridagi bosimidan kichikligi hisobiga bo‘ladi. Bug‘ning tomchiga aylanishida uning radiusi kritik radiusdan birmuncha kattaroq bo‘lishida hosil bo‘ladi.

Kritik radius Tomson tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$R_k = \frac{2\delta T_\sigma}{r\rho_\tau(T_\sigma - T_{yuza})} \quad (11.20)$$

bu yerda:  $T_\sigma$  - berilgan bosimdagi bug‘ning harorati;

$T_{yuza}$  - tomchi yuzasining harorati.

Tomchili kondensatsiya davomida, kondensat pylonkasining hosil bo‘lib qolish holatlari bo‘ladi. Lekin bu pylonkaning qalinligi juda kichik bo‘lganligi sababli u juda tez bo‘linib tomchi hosil qiladi. Bo‘sagan joyda yana ancha pylonka hosil bo‘lib, u yana tez bo‘linadi. Kondensatning tomchi shaklida yuzaga kelishi kondensatsiya jarayonini tezlashtiradi, termik qarshilik kichik bo‘ladi.

Tomchili kondensatsiya jarayonida yuzaning harorati vaqt bo‘yicha o‘zgaradi, haroratningo‘zgarishi kondensatlanayotgan bug‘ning termik qarshiliginingo‘zgaruvchanligiga bog‘liq bo‘ladi. Ana shunday kattaliklarni

hisobga olgan holda, tomchili kondensatsiya jarayonini hisoblash uchun quyidagi ifodalar olingan:

$$\begin{aligned} \text{Re}_c &= 8 \cdot 10^{-4} \div 3.3 \cdot 10^{-3} \\ \overline{N}u &= 3.2 \cdot 10^{-4} \quad \text{Re}_c^{-0.84} \Pi_{\kappa}^{0.16} \cdot Pr^{\frac{1}{3}} \\ \text{Re}_c &= 3.3 \cdot 10^{-4} \div 1.8 \cdot 10^{-2} \\ \overline{N}u &= 5 \cdot 10^{-6} \text{ Re}^{-1.57} \Pi^{1.16} P^{\frac{1}{3}} \end{aligned}$$

$$bunda: Nu = \frac{\overline{\alpha} R_k}{\lambda_s} = \frac{\overline{\alpha} \cdot 2\delta \cdot T_T}{\lambda_s \cdot r \cdot \rho_s (t_{\delta} - t_{yuz})} \quad (11.21)$$

$$\text{Re}_c = \frac{\omega R_k}{v_s} = \frac{\lambda_c (t_{\delta} - t_{yuz})}{\lambda_s \cdot r \cdot \rho_s} \quad (11.22)$$

$$\text{Re}_c = \frac{\xi \sigma R_k (t_{\delta} - t_{yuz})}{\rho_s v_s^2} = \frac{2\xi \sigma^2 T_T}{r * \rho_s^2 v_s^2} \quad (11.23)$$

$$P_r = \frac{v_s}{a_s}$$

$\xi$  - harorat koeffisiyenti.

Mezonli tenglamalardagi mezonlarning ifodalarini qoyish natijasida quyidagi ifodalarni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} \alpha &= c_1 \Delta t^{0.16}, q = c_2 \Delta t^{1.16} \\ \alpha &= c_3 \Delta t^{-0.57}, q = c_4 \Delta t^{0.43} \end{aligned} \quad (11.24)$$

Bunda:

$c_1, c_2, c_3, c_4$  - issiqlik fizik kattaliklardan tashkil qilingan o'zgarmas kattalikdir.

### Nazorat savollari.

1. Kondensatsiya hodisasi nima?
2. Kondensatsyaning turlari qanday?
3. Tomchili kondensatsiya qanday hosil bo'ladi?
4. Plyonkali kondensatsyaning hosil bo'lish shart-sharoitlari haqida tushuncha bering.
5. Gorizontal va vertikal quvurlar uchun issiqlik berish koeffitsiyenti ifodasini yozib bering.

## **12.NURLANISHUSULIDAISIQLIKUZATILISHI**

### **12.1. Asosiy tushunchalar**

Issiqlikning nurlanish yo‘li bilan uzatilishi deb, jismning ichki energiyasining elektromagnit to‘lqinlar orqali uzatilishiga aytildi.

Nurlanish to‘lqin uzunligi  $\lambda$  (m) yoki tebranish chastotasi  $v = s / \lambda$ ,  $s^{-1}$  bilan ifodalanadi, bu yerda  $C = 2,9979 \cdot 10^8$  m/s - bu vakuumdagi elektromagnit to‘lqinlarning tarqalish tezligidir.

Qattiqva suyuq jismarda nurlanish spektri uzlucksizdir. Gazlarda selektivdir, ya’ni gazlar kerakli to‘lqin uzunligidagi nurlarni chiqaradi. Nurlanish oqimi deb vaqt birligidagi nurlanish energiyasiga aytiladi:

$$F = \frac{\delta Q}{dt} \quad (12.1)$$

$F$  - nurlanish oqimi, [Vt] ;

$\delta Q$  – nurlanishenergiyasi, [J];

$\tau$  – vaq’t, [s].

Nurlanishoqiminijismningyuzasiganisbatinurlanishdeyiladi:

$$E = \frac{\delta \Phi}{dF} \quad (12.2)$$

Issiqliknurlarigato‘lqinuzunligi  $\lambda = 0,4 \cdot 10^{-3} \div 0,8$  mm-gatengbo‘lganto‘lqinlarkiradi. Jismlartiziminurlanganda, ularharbiriboshhqajismlargao‘zlaridanqaytgannurlaritushadi.

Jismgakelibtushgannuryokiissiqlikshujismdayutiladi ( $Q_A$ ), qaytadi ( $Q_R$ ), o‘tibketadi ( $Q_D$ ).

$$Q = Q_A + Q_R + Q_D \quad (12.3)$$

$A = \frac{Q_A}{Q}$  - yutish koeffitsiyenti;

$R = \frac{Q_R}{Q}$  - q’aytish koeffitsiyenti;

$D = \frac{Q_D}{Q}$  - o‘tish koeffitsiyenti.

Nurlanish energiyasining issiqlik balansi  $A+R+D=1$  ga teng.

Agar  $A=1$ ;  $R=D=0$  bo‘lsa, jism **mutloq qora**,  $R=1$ ,  $A=D=0$  bo‘lsa, jism **mutloq oq**,  $D=1$ ;  $A=R=0$  bo‘lsa, jism **shaffof jism** deyiladi. Tabiatda mutloq oq, qora va shaffof jism bo‘lmaydi.

## 12.2. Nurlanishning asosiy qonunlari

**1. Stefan-Bolsman qonuni.** Nurlanish energiyasi bilan mutloq qora jismning mutloq haroratining to‘rtinch darajasiga to‘g‘ri proporsional:

$$E = \sigma_0 T^4 \quad (12.4)$$

$\sigma_0$  – Bolsman doimiysi;  $\sigma_0=5,67 \text{ Vt/m}^2 \text{ K}^4$ .

Amaliy hisoblashlarda bu qonun quyidagicha ifodalanadi:

$$Q = c (T/100)^4 F \quad (12.5)$$

bu yerda:  $s$  – kul rang jismning nurlanish koeffitsiyenti,  $\text{Vt/m}^2 \text{K}$ .

Bir-biridan shaffof muhit bilan ajratilgan, ikkita yassi, parallel joylashgan, harorati yuqori bo‘lgan jismda harorat past bo‘lgan jismga nurlanish yo‘li bilan o‘tayotgan umumiy issiqlikoqimi quyidagi ifodadan topiladi:

$$Q_{1-2} = Q_{\varphi_1} - Q_{\varphi_2} \quad (12.6)$$

$$Q_{1-2} = C_{\text{kel}} F [(T_1/100)^4 - (T_2/100)^4] \quad (12.7)$$

bu yerda:  $F$  – issiqlikalmashinish yuzasi,  $\text{m}^2$ ;

$S_{\text{kel}}$  – keltirilgan nurlanish koeffitsiyenti,  $\text{Vt/m}^2 \text{ K}$ .

$$C_{\text{kel}} = \frac{1}{\frac{1}{c_1} + \frac{1}{c_2} - \frac{1}{c_0}} \text{ Vt/m}^2 \text{ K}^4 \quad (12.8)$$

buyerda:  $T_1, T_2$  – nurlanuvchijismvaatrofmuhitningmutloqharorati,  ${}^0\text{C}$ ,  $C_1, C_2$  – kulrangjismarningurlanishkoeffitsiyenti;  
 $C_0=5,67 \text{ Vt/m}^2 \text{ K}$  – absolyutqorajismningurlanishkoeffitsiyenti.

$C_{\text{kel}} = \varepsilon \cdot s_0$  ifodasidananiq’lanadi,  $\varepsilon$  - qoralikkoeffitsiyenti  
 Harxilnurlanuvchitizimlardanurlanishyo‘libilanissiqlikalmashishnikamaytirishu chunekranlardanfoydalaniladi(12.1-rasm).

---



---



---

12.1-rasm. 1, 2-nurtarqatayotganjism; 3- ekran.

Agarikkitayassiparallelsirtorasigaekranqo‘yilsavaagarekranham, sirtlarihambirxilmaterialdantayyorlanganbo‘lsa, uholdaberilganissiqlikmiqdoriikkimartakamayadi. Agarn – taekranqo‘yilsa, berilganissiqlikmiqdorin+1 martakamayadi.

## 2. Vinqonuni:

Nurlanishintensivligibilanto ‘lqinuzunligiorasidagibog‘lanishniifodabaydi:  
 $T\lambda_{\max} = 2,9 \cdot 10^{-3} \text{ mK}$  (12.9)

ya’ nimaksimalto ‘lqinuzunlikjismlarningmutloqharoratigabog‘liqbo‘lib,  
uharoratningpasayishitomongayo‘naladi.

### 3. Kirxgofqonuni:

Mutloqqoravakulrangjismlarningissiqliknurlariyutishvaxossalariorasidagibog‘lanishniifodabaydi. U quyidagi ifodaorqali yoziladi:

$$\frac{E_1}{A_1} = \frac{E_2}{A_2} = \frac{E_3}{A_3} = \dots = \frac{E_0}{A_0} = f(E_0 T) \quad (12.10)$$

Buqonunquyidagichata’riflanadi:

Jismlarningurlanishxususiyatiningyutishxususiyatiganisbatibarchajismal  
ruchunbirxilbo‘ladi,  
shuharoratdagimutloqqorajismningurlanishxususiyatigatengbo‘ladi.

Buqonunnningtenglamasidankurinibturibdiki,  
kulrangjismlarningqoralikdarajasisonjihatidanuningyutishxususiyatigateng,  
ya’ni

$$A = \epsilon.$$

$\epsilon$   
kattaliko‘zgarmasbo‘lganiuchunkulrangjismningyutishxususiyatito‘lqinuzunlig  
ivaharoratgabog‘liqemas.

## Masalalar

1. Isitish pechidagi harorati  $1200^{\circ}\text{C}$ . Pechning hajmi  $V=12\text{m}^2$  va to‘la yuzasi  $F=28 \text{ m}^2$  ga teng.

Isitish pechidagi bosim  $98,1 \text{ kPa}$ , suv bug‘larining parsial bosimi  $R_{H_2O}=12 \text{ kPaga teng bo‘lganda qorayish darajasini va nurlanishini aniqlang.}$

Javob:  $E_g=0,215; E_g=57400 \text{ Vt/m}^2$ .

2. Diametri  $d=0,5 \text{ mm}$  va uzunligi  $\ell=2,5\text{m}$  bo‘lgan elektr isitgich simning haroratini aniqlang. Simning qorayish darjasasi  $E=0,9$ ; atrofidagi armaturaning harorati  $15^{\circ}\text{C}$ , isitgichning quvvati  $0,4 \text{ kVt}$  ga teng. Konveksiya hisobiga olinmasin.

Javob:  $t_l=910^{\circ}\text{C}$ .

3. Tashqi diametri 200mm bo‘lgan bug‘ quvuri harorati  $30^{\circ}\text{C}$  li xonaga o‘rnatilgan. Bug‘ quvuri sirtidagi harorat  $400^{\circ}\text{C}$ . Bug‘ quvurning birlik uzunlikda nurlanish va konveksiya orqali uzatgan issiqligini aniqlang. Quvurning qorayishi darajasi  $E=0,8$  ga teng.

$$\text{Javob: } q_{\ell}^{\text{hyp}} = 5600 \text{ Bm/m}; \quad q_{\ell}^{\text{KOHG}} = 1970 \text{ Bm/m}; \quad \frac{q_{\ell}^{\text{hyp}}}{q_{\ell}^{\text{KOHG}}} = 2,84$$

### Nazorat savollari:

1. Nurlanish yo‘li bilan Issiqlik mashinishing sodir bo‘lish shart-sharoitlarini aytib bering.
2. Absolyut qora, oq va shaffof jismlar nima?
3. Nurlanishning effektivligi nima?
4. Nurlanish qonunlarini izohlab bering.
5. Jism parallel joylashganda nurlanish energiyasi qanday aniqlanadi?

## 13.Issiqlik almashinish apparatlari.

### 13.1. Issiqlik almashinish apparatlarining issiqlik hisobi

Issiqlikni issiq issiqlik tashuvchidan (gaz) sovuq issiqlik tashuvchiga uzatib beradigan qurilmalarga **issiqlik almashinuv apparatlari** deyiladi.

Issiqlik almashinuv apparatlarini ishlash usuliga ko‘ra rekuperativ, regenerativ va aralashtiruvchi apparatlarga bo‘lish mumkin.

Aralashtiruvchi issiqlik almashinuv apparatlarda issiq almashinuvi issiq va sovuq issiqlik tashuvchilarining bir-biriga bevosita tegishi va aralashishi yo‘li bilan amalga oshiriladi. Aralashtiruvchi issiqlik almashinuv apparatlariga gradirnyalar, skrubberlar va boshqa qurilmalar misol bo‘la oladi.

Regenerativ issiqlik almashinuv apparatlarida isitilish (yoki sovitilish) sirtining o‘zini vaqtı-vaqtı bilan goh qaynoq, goh sovuq issiqlik tashuvchi bilan yuvilib turishi bilan amalga oshiriladi. Dastlab regenerator kanallaridan qizigan issiqlik tashuvchi – domna va marten pechlari, vagrankalar va boshqalardagi yonish mahsulotlari yuboriladi. Regeneratorning isitish sirti qizigan gazlardan issiqlik olib isiydi, so‘ngra bu issiqliknı sovuq issiqlik tashuvchiga beradi.

Regenerativ issiqlik almashinuv apparatlari metallurgiya, shisha pishirish va shunga o‘xhash qizigan havo beriladigan boshqa pechlarda ishlatiladi.

Rekuperativ issiqlik almashinuv apparatlarida issiqlik issiq suyuqlikdan sovuq suyuqlikka qattiq sirt orqali uzatiladi. Masalan, bug‘ generatorlari, bug‘ qizdirgichlar, suv isitgichlar va boshqalar. Rekuperativ issiqlik almashinuv appaparati to‘g‘ri oqimli, teskari oqimli va ko‘ndalang oqimli apparatga bo‘linadi.

To‘g‘ri oqimli issiqlik almashinuv apparatlarida issiq va sovuq muhitlar o‘zaro bir tomonga parallel ravishda oqadi.  $\Rightarrow \Leftarrow$

Teskari oqimli apparatlarida bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalgan bo‘ladi.  $\Rightarrow \Leftarrow$

Texnikada rekuperativ issiqlik almashinuv apparatlari keng ishlatiladi.

Issiqlik almashinuv apparatlari hisoblashda issiqlik balansi tuziladi va uning yuzasi aniqlanadi.

$$Q = G_1 C_{P1} (t'_1 - t''_1) = G_2 C_{P2} (t''_2 - t'_2), [Vt] \quad (13.1)$$

bu yerda:

$G_1$  – issiq suyuqlik sarfi, kg/s;

$G_2$  – sovuq suyuqlik sarfi, kg/s;

$C_{P1}$  – issiq suyuqlikning issiqlik sig‘imi, kJ/kg  $^0\text{C}$ ;



$C_{P2}$  – sovuq suyuqlikning issiqlik sig‘imi, kJ/kg  $^0\text{C}$ ;

$t'_1$  – issiq suyuqlikning apparatga kirishdagi harorati,  $^0\text{C}$ ;

$t''_1$  – issiq suyuqlikning apparatdan chiqishdagi harorati,  $^0\text{C}$ ;

